

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

**Huquqshunoslik. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUSIYASINI O'RGANISH**

MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi:

dots. G'ulomov A.

Asist. Nurboyev M.

Ma'ruza matni kafedraning
2010 yil 28 avgustdagi
№1 qarori bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri:

dots. G'ulomov A.

Ilmiy kengashning 2010 yil 2
sentyabrdagi №1 qarori bilan
tasdiqlangan

Fakultet dekani

Ilmiy kengash raisi:

dost. Umidullayev SH.

SAMARQAND – 2010

MUNDARIJA

1-MAVZU: DAVLAT VA HUQUQ HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR.....	3-12
2- MAVZU: MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI.....	13-23
3-MAVZU: FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI.....	24-33
4-MAVZU: ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH ASOSLARI.....	34-55
5-MAVZU: MEHNAT HUQUQI ASOSLARI.....	56-78
6-MAVZU: OILAVIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISH VA HIMOYA QILISH.....	79-99
7--MAVZU: EKOLOGIYA HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, TAMOYILLARI VA TIZIMI.....	100-108
8-MAVZU: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI O'RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	109-120
9-MAVZU: O'ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI .	121-133
10-MAVZU: O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.....	134-154
11-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY DAVLAT VA MA'MURIY- HUDUDIY TUZILISHI.....	155-162
12-MAVZU: O'ZBEKISTONDA QONUNCHILIK HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.....	163-176
13-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI.....	177-188
14-MAVZU: O'ZBEKISTONDA MAHALLIY HOKIMIYAT IDORALARI.....	189-196
15-MAVZU: O'ZBEKISTONDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.....	197-215
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	216-219

1-Mavzu: DAVLAT VA HUQUQ HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Reja:

1. Davlat va huquq tushunchasi, mazmuni va mohiyati
2. Davlat va huquqning paydo bo'lishi
3. Davlat va huquqning shakllari

Tayanch iboralar: davlat va huquq tushunchasi, mazmuni va mohiyati; davlat va huquqning paydo bo'lishi; davlat va huquqning shakllari; huquq va aholining o'zaro nisbati.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. Karimov I.A O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston. **Betiga qarang**
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
6. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
7. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

- va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
 9. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
 11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 12. Davlat va huquq nazariyasi. (A.A'zamxo'jayev va SH. O'rozov tahriri ostida). T.- 1992 255. B.
 13. Tajixonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari . O'quv qullanma T, 1999.

1. Davlat tushunchasi va mohiyati

Davlatchilik tarixida uni qanday tushushi lozmligini Aflotun va Arastudan boshlash maqsadga muvofiqdir ularning fikriga ko'ra davlat siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va o'zaro bog'liq odamlar jamoasidir. „Insoning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustida hukumronligini o'rnatuvchi hokimiyat” shu aloqalar asosini tashkil etadi , deb hisoblardi ular. (Aristotel' Politika 2 tom S.A Jabelov tarjimasini)

Davlat umumiy qiyofasini yagona fuqarolik jamoasi, siyosiy uyushma sifatida tushunish Yevropa huquqshunoslik fanida uzoq vaqt mustahkam o'rin egallab keldi. Bu borada Aflotun va Arastu izdoshlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasidan eng buyuklari G Grosiy, J Lokk, va I. Kantlarni aytish mumkin. „Urush va tinchlik huquqi to'g'risida”gi asarida G. Gorsiy davlatni „huquqqa rioya etish va umummanfaati yo'lida tuzilgan erkin kishilarning mukammal itifoqi” sifatida tariflaydi.(Grosiy o prove voynыy mira M 1956 j-b). (qo'lyozmaga

qarang) J Lok ham o'zining „Hukumronlik to'g'risida ikki risola” asarida davlat deganda men hamisha demokratiya va boshqaruvning u yoki bu shaklini emas, balki lotincha „civilas” so'zi bilan ifodalangan har qanday mustaqil uyushmani nazarda tutaman bizning tilimizda ushbu so'zga „davlat” so'zi mos keladi, u kishilarning shunday uyushmasini anglatadigan tushunchani yanada aniqroq ifodalaydi. (J Lok soch 3-tom M ,3-tom 388-b). I Kant ham o'zining „Abadiy tinchlik sari” asarida „davlat o'zi joylashgan yerning o'ziday mulk emas. Davlat - kishilarning o'zi xo'jayinlik qilib, o'zi boshqaradigan jamiyatidir”.

XVI – XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa davlat tushunchasi keskin o'zgardi. Davlat deganda tobora ko'proq hukumdor va uning yaqinlari ,xalq xokimiyati organlari, amaldorlar, mansabdorlar shaxslar qatlamlari va shu kabilar birgalikda tushuniladi. Davlatni bunday tushunishni targ'ibotchilari mavjud edi. Jumladan: J Boden o'zining „Davlat to'g'risidagi olti kitob” asarida davlatni suveren hokimiyat vositasida ko'plab oilalar va ularga tegishli narsalar ustidan adolatli hukumronlik sifatida tushunishni taklif etgandi. Odamlarni qo'rquvda ushlab, ularning harakatini ezgulikka yo'naltirishga, deydi T Gobbs, faqat barcha alohida imtiyoz va kuchlarni bir odam qo'lida yoki bir qancha kishilik jamoat qo'lida jamlash orqaligina erishishi mumkin. Agar shu tariqa ko'pchilik odamlarning birlashuvi ro'y bersa, bu davlat deb ataladi. Monarx davlat timsolida namoyon bo'ladi. Davlat moxiyati faqat anna shu odamdagina mujassamlashgan bo'ladi, deyiladi.

Bunday qarashlar Dunyo miqyosida ancha keng tarqalgan. Ana shu xislatlar ham, sotsialistlar ham, liberallar ham ularni qo'llab - quvatlashgan. Masalan: rus anarxisti M.Bakunin, davlatni jamiyatga hych qanday aloqasi bo'lmagan tashkilotlar deb hisoblaydi. Uning fikricha davlat, uch yaramas narsaga - byurokratiya, polisiya va armiyaga tayanadi. Bu imtiyozli sinflar ezuvchi va aqidaparast idrokining ko'zga tashlanib turuvchi tana jismidir. K. Marks va F Engel's uchun davlat, birinchi davlatda, „bir sinfnig ikkinchi sinf tomonidan bostirilishi mashinasidan boshqa narsa emas” Ular, burjua jamiyatidagi davlat „faqat bugun burjuaziya sinfi umumiy ishlarini boshqaruvchi qo'mitadir, xolos”deb o'qtirishgan. Lenin ham davlat timsolida „bir sinfnig boshqasi ustidan

hukumronligini saqlab turuvchi” mashinani qurgan. „Davlat muayyan sinfning hukumronlik organidir, - deydi u o'z muxoliflari bilan murosaga kelishi mumkin emas”.

Hozirgi vaqtda davlatning umumiy e'tirof etilgan qo'yidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

1. Davlat o'z davlat chegaralari darajasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi:
2. Davlat suveren hokimyatning yagona sohibidir.
3. Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks etirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi:
4. Davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizmdir.
5. Davlat qonuniylik va huquq- tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muxofaza qilish (jazolash,) organlariga ega bo'lgan yagona tashkilot:
6. Faqat davlatgina o'z mudofasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'ldi.

Huquq tushunchasi va mohiyati.

Huquq iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib „haq”, „haqiqat” so'zlaridan olingan. U qo'yidagicha ma'nolarda qo'llaniladi.

1. Muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi. M: A ning ilim olish huquqi.
2. Huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlaydigan, muxofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir: M: Fuqarolik Kodeksi .
3. Huquq ijtimoiy Fan sifatidan birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilimlarni o'zida jipislaydi. M: Konstitutsiyaviy huquq Fani.

Aflotun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy huquq hamda shartli huquqlarga ajratadi. Tabiiy huquq tan olish yoxud tan olmaslikdan qat'iy nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir. Shartli huquq-insonlar tomonidan ularning hohish-irodasiga ko'ra o'rnatiladi-qoidalar majmuidir. Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, halol yashash,

har kimga o'ziga munosibini berishi, o'zgalarga zarar yetkazmaslik, ezgulik va adolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr–al Farobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart - sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. Huquq ehtirolarni jilovlash vositasidir. Huquq - insonni asrash, avaylash qurolidir.

Yuridik adabiyotlarda huquqqa turlicha ta'rif berilgan:

1. Huquq – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulatordir.

2. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va qonunlarda ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalariga tayanuvchi normativ qoidalar tizimidir. (Ikkala fikr. Davlat va huquq nazariyasi. A.A'zamxo'jayev va SH. O'rozov tahriri ostida T.1992 255. B.

3. Huquq –davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalari tizimidir (Tajixonov U Saidov A Davlat va huquq asoslari . O'quv qullanma T, 1999. 40 Bet).

Huquqqa davlat arboblari tomonidan ham ta'rif berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi I.Karimov „Huquq ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomiga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirishni vositasi”dir deb takidlaydi. (I.Karimov O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari .T.: O'zbekiston 26 bet). Huquqning mohiyati-huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

2. Davlat va huquqning paydo bo'lishi.

Jamiyat turli ijtimoiy –siyosiy institutlarga bo'linadi. Jamiyatning birinchi tabiiy bo'g'inini tashkil etgan institut - oiladir. Oila tabiiy qonunga ko'ra tashkil topadi, qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida amal qiladi. Urug' bir necha oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qila olishi,

umumiy, qarindoshchilik qoidalari asosida tashkil topishi bilan harakterlanadi. Jamiyat taraqqiyotida bir necha urug'larning qo'shilishi bilan qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqdi.

Siyosiy institutlarning eng dastlabkisi – davlat bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida davlat bilan birga bugun ko'plab nodavlat tashkilotlar: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli –tuman ijtmoy tashkilotlar yuzaga keldi.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi nazaryalar orasida yetakchi o'rindi tabiiy huquq nazariyasi egallaydi. Uning tarafdorlari G'arbiy Yevropa olimlari D Lokk, T Gobbs, G Grosiy, B Spinoza va boshqalar. Tabiiy huquq nazariyasi tarafdorlari ikki huquqning mavjudligini: tabiiy huquq va insoniy yoki kitoblarda pozitiv huquq deb yuritiladigan huquqning mavjudligini e'tirof etadilar.

3. Davlat va huquqning shakllari

Davlat shakli uch tarkibiy qismi - boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli, va siyosiy idora usuli birlikda olingan siysiy jamiyat tashkiloti tushuniladi.

Boshqaruv shakli- konkret davlatda davlat hokimyatini tashkil etishi usullarining majmuidir. U davlatning Oliy va markaziy organlari tarkibi vakolatini , shu organlarni tashkil etish tartibini unda oddiy halq ishtiroki darajasi, bu organlar vakolati muddatlarini ko'zda tutadi.

Boshqaruv shakli: Monarxiya va Respublikaga ajraladi. „Monarxiya”atamasi („monos”- bir, „arxe”-hokimyat) yunoncha so'z bo'lib, „yakka hokimlik” „yagona hukumdor” ma'nolarini bildiradi .Monarx davlatning jonli timsoli bo'lib, tashqi va ichki siyosat bobida davlat boshlig'i sifatida, halq vakili ,millat „atamasi” sifatida maydonga chiqadi. Fransiya quollaridan biri: «davlat mening o'zimman» deb bejiz aytmagan.

Monarxiya mutloq va cheklangan monarxiyaga bo'linadi: Mutloq monarxiya shaklidagi boshqaruvning asosiy belgisi monarxiyaning to'la hokimyatni cheklaydigan biron –bir davlat organining yo'qligidir. Cheklangan monarxiya tabaqaviy- vakillik (feodalizim davrida) hamda konstitutsiyaviy monarxiyaga bo'linadi.

Konstitutsiyaviy monarxiya dualistik va parlamentlik monarxiya

(kapitalizm davrida) ko'rishishlariga egadir.

Boshqaruv dualizmi (ikki taraflamaligi) shundan iboratki, misol uchun monarx feodallar manfaatlarini, parlament esa, burjuaziya va boshqa tabaqalar manfaatlarini ifodalaydi. Bunday boshqaruvga Prussiya, Italiya, Ruminiya, davlatlari misol bo'ladi,(o'tmishda hozir mavjud emas).

Parlamentlik monarxiya mamlakatlari (hozirgi Angilya, Belgiya, Norvegiya, Shvesiya)da qirol shohlik vazifasini o'tasa-da, mamlakatni to'la ma'noda boshqarolmaydi. Hukumat parlament, tomonidan saylovlarda ko'p ovoz olgan muayyan partiyalar vakillaridan iborat qilib shakllantiriladi....

Respublika (lotincha- halq ishi) – davlat hokimiyati aholi muayyan muddatga saylab qo'yadigan organlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv shaklidir. Respublika shakli quldorlik sharoitlaridayoq namoyon bo'la boshlagan. Demokratik Respublika Afina davlatida (eramizgacha **V-IV asrlar**) mavjud bo'lgan. Buni jamiyatning ijtimoiy tarkibi, quldorlikning shu yerga xos xususiyati , ya'ni ozod afinaliklarni qulga aylantirishning istisno etilganligi, quldor jamoalar bo'lganligi, davlat boshqaruvining samarali tizimi mavjudligi bilan izoxlash mumkin edi.

Kapitalizm davri parlamentar respublika hamda prezidentlikning respublikalarini vujudga keltirdi.

Boshqaruvning aralash shakllari ham uchraydi. M: Parlament prezidentlik shakli.
M: Fransiya


Davlatning tuzilish shakllari.

Davlatning tuzilish shakli deganda davlat hokimiyatining ma'muriy - hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o'rtasidagi, davlatning alohida qismlari o'rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar harakterini tushunish kerak.U ikkiga ajraladi.

1. Unitar
2. Murakkab (a)Federativ (B)Konfederativ.

Siyosiy rejim-Davlat hokimyatini amalga oshirish usuli

Siyosiy rejimlar ikkita katta guruhga bo'linadi:



Demokratik

- (1) Liberal demokratik
- (2) Asl demokratik

demokratiyaga zid

- (1) Totalitar
- (2) Fashistik
- (3) **Avtoritar**

(a) Jamoat

(b) Yaglna shaxs

Aa1. Aristokratiya

Aa2. Oligarxiya

Bb1.

Despotik

Bb2.

Mustabid

Bb3. Shaxsiy xokimiyat

Dispotik rejim (yunoncha- cheklangan hokimiyat) dispotiya odamlarni dahshatda ushlab turishga asoslangan rejimdir. Mustabidlik rejimi - yakka shaxs hukmronligiga asoslangan. U zo'ravonlik, bosib olish, qonuniy hokimiyatni ag'darib tashlash natijasida o'rnatilishi bilan despotiyadan farq qiladi. U teror va genotsid asosda quriladi.

Totalitar rejim - fuqarolar hayotiga o'z aralashuvini cheksiz - chegarasiz kengaytirgan, boshqaruvi ko'lamiga ularning butun faoliyatini va majburiy muvofiqlashtirishni ham qo'shib olgan siyosiy rejimdir. „Totus” so'zi lotincha „jami, bir butun” ma'noni anglatadi.

Shaxsiy hokimiyat rejimi - totalitarizm ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda „shaxsga sig'inish” doxiyga sig'inish kuchayadi.

Fashistik rejim - bu totalitarizmning eng yuqori pog'onalariga xos shakllaridan biri bo'lib, millatchilik mafkurasi, bir millatning boshqalaridan afzalligi to'g'risidagi tassavurlar bilan, o'ta agressivligi bilan ajralib turadi.

Huquqning shakllari

1. Huquqiy odatlar - uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir. M: Xammuraniy qonunlari, monu qonunlari, **XII** jadval qonunlari.

2. Huquqiy pretsedent. Lotincha pretsedens - „avvalgisi, oldingisi ma'noni anglatadi. Sud yoki ma'muriy organlarning yozma yoki og'zaki qarori, kelgusida barcha shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna, etalon norma sifatida qabul qilina, u pretsedent bo'ladi. M: Angilya, Avstraliya, Kanada.

3. Normativ huquqiy aktlar davlat organlari tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan huquqiy aktdir.

(a) Qonunlar

b) Prezident farmonlari

(v) Vazirlar maxkamasi qarorlari

(g) Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining qaror, buyro'q va yo'riqnomalari

(d) Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining qarorlari

4. Halqaro shartnomalar

Musulmon huquqida esa, diniy aqidalar huquqning manbai bo'lib hisoblanadi. Musulmon huquqining quyidagi asosiy manbalari mavjud

1. Qur'on (arabcha- o'qimoq, qiroat qilmoq, , o'quv)da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan.

2. Sunna (arabcha- odat, an'ana) - Muhammad payg'ambarning so'zlari, ishlari va xatti-harakatlari. Sunna haqidagi rivoyatlar hadislarda berilgan va ular to'plam qilingan.

3. Ijmo (arabcha- yakdillik bilan qabul qilingan qarorlar) .Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih va mujtahid (intiluvchilar) to'planib ,yagona fikriga kelgan holda fatvo berishi (hukm chiqarishi).

4. Qiyos (arabcha- taqqoslash) Qur'on va Sunnada berilmagan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etiladi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Davlat deganda nimani tushunsiz?
2. Davlatning paydo bo'lishi haqida qanday qarashlar mavjud?
3. Huquqning shakllarini sanab o'ting?
4. Siyosiy rejimning qanday ko'rinishlari mavjud?

2- Mavzu: MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI

Reja:

1. Ma'muriy huquq tushunchasi
2. Davlat boshqaruvi va uning tamoyillari
3. Davlat boshqaruvining shakllari va usullari
4. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo

Tayanch iboralar: ma'muriy huquq tushunchasi; davlat boshqaruvi uning tamoyillari; davlat boshqaruvining shakllari va usullari; ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.- T: O'zbekiston,1996-249-b
3. Karimov I.A O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston. **Betiga qarang**
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
6. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).

7. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
9. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
12. Davlat va huquq nazariyasi. (A.A'zamxo'jayev va SH. O'rozov tahriri ostida). T.- 1992. 255. B.
13. Tajixonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari . O'quv qullanma T, 1999.

1. Ma'muriy huquq tushunchasi

Ma'muriy huquq- o'ziga xos turkum ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Bu munosabatlarning asosiy xarakterli xususiyati shundaki, ular davlat boshqaruvi sohasida, ya'niy O'zbekiston Respublikasi hududidagi ijroiya hokimiyat tizimini tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi, rivojlanadi va bekor bo'ladi. Bu ijtimoiy muosabatlarni bevosita davlat boshqaruv faoliyati bilan bog'liq va shuning uchun boshqarish munosabatlari deb ham yuritiladi.

Ma'muriy huquqning predmetini aniqlashda qo'yidagilar hisobga olinishi kerak:

1. Davlat boshqaruv faoliyatini har qanday namoyon bo'lishini o'z ichiga

oladigan davlat boshqaruvi soxasini:

2. Unda harakat qiluvchi ijroiya hokimyat subekti yoki o'zga ijroiya organining mavjudligini:

3. Bu subektlar tomonidan ularga davlat boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan vakolatlarni amalda ro'yobga chiqarilishini:

Ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan boshqaruv munosabatlari turli-xil bo'lib ularni turli asoslarga ko'ra qo'yidagi turlarga bo'linadi .

1. Turli tashkiliy- huquqiy darajalarda turgan va bir-biriga bo'ysunuvchi ijroiya hokimyat subektlari o'rtasidagi munosabatlar.

2. Bir xil tashkiliy- huquqiy darajadagi va bir-biriga bo'ysunmaydigan ijroiya hokimyat subektlari (ikki vazirlik ,ikki viloyat hokimligi) o'rtasidagi munosabatlar.

3. Ijroiya hokimyat subektlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlar:

4. Ijroiya hokimyat subektlari va ularning tashkiliy qaromog'iga kiruvchi davlat birlashmalari va korxonalari o'rtasidagi munosabatlar:

5. Ijroiya hokimyat subektlari va nodavlat xo'jalik va ijtimoiy madaniy birlashmalar, korxonalar, va muassasalar o'rtasidagi munosabatlar.

6. Ijroiya hokimyat subektlari va jamoat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlar:

7. Ijroiya hokimiyati organlari va fuqarolar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) o'rtasidagi munosabatlar:

Boshqaruv munosabatlarini shunengdek ularning paydo bo'lish maqsadlariga ya'niy ma'muriy-huquqiy tartibga solinishga qarab ham turlarga bo'lish mumkin. Bu asosga ko'ra ikki guruxga ajratish mumkin:

(a). Ichki yoki ichki tashkiliy, tizim ichidagi munosabatlar. Bular boshqarish tuzilmalarini shakllantirish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar asosini belgilab qo'yishi va boshqarish aparati organlari xodimlari o'rtasidagi majburiyatlar, huquqlar va ma'suliyatlarni taqsimlash bilan bog'liq va shu kabi munosabatlarni tashkil etadi.

(b).Tashqi-ijroiya hokimyat tizimiga kirmaydigan (fuqarolar jamoat

birlashmalari, tijorat tuzilmalari,)obektlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq munosabatlar.

Shunday qilib, ma'muriy huquq davlat boshqaruvini tashkil etishni amalga oshirish bilan bog'liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangan huquq normalarining yig'indisidan iborat huquq tarmog'idir.

2. Davlat boshqaruvi va uning tamoyillari.

„Ma'muriy huquq” - rahbarlik, boshqaruv ma'nosini anglatuvchi lotincha „administresio ”so'zi bilan bog'liq tushuncha bo'lib, har qanday davlatning mustaqil tarmog'idir. Ma'muriy huquqning predmetini davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi. Ma'muriy huquqning predmetini aniqlash uchun „boshqarish” „davlat boshqaruvi” tushunchalari ustida to'xtalish zarur.

Boshqarish yagona tizim sifatida ikki asosiy element subyekt (boshqaruvchi element) bilan obyekt (boshqaruvchi element) o'rtasidagi munosabatlarni anglatib,bunda subyektning obyekt faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga qaratilgan ta'siri tushiniladi. Davlat boshqaruvi ijtimoiy boshqarishning bir turi, davlat faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib qonun chiqarish, sudlov va boshqa faoliyatidan, shuningdek jamoat birlashmalari va nodavlat tuzilmalar (mehnat jamoalari, tijorat tuzilmalari)ning boshqaruv faoliyatidan farq qiladi .

Davlat boshqaruvining asosiy belgilari qo'yidagilardan iborat:

1. Davlat boshqaruvi yagona davlat hokimyatini amalga oshirish bo'yicha funksional va vakolatli xususiyatga ega bo'lgan aniq faoliyat turi:
2. Davlat boshqaruvi - ijro etish - farmoyish berishi xarakteriga ega faoliyat. Uning asosiy yo'nalishi bo'lib ijro etish, ya'ni qonunlar va qonun osti normativ xujjatlarini hayotga tadbiq qilish hisoblanadi. Bu maqsadlarga hokimyat vakolatlaridan foydalanish orqali erishiladi.
3. Davlat boshqaruvi – xo'jalik, ijtimoiy – madaniy va ma'muriy-siyosiy ko'rinishga kundalik va bevosita rahbarlik qilish jarayonida amalga oshiriladigan

ijroiya faoliyat.

4. Davlat boshqaruvi - qonun asosida va uni ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, qonun chiqarish faoliyatiga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega. Demak davlat boshqaruvi - davlat organlarining qonunlari asosida va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan va davlatning funksiyalarini amalga oshirishdan iborat ijro etish-farmoyish berish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

O'zbekistonda ma'muriy islohatlarni, davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yildagi chiqargan „Respublika davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida” va „Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi farmonlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2003 y. n pf-3358 «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» farmoning mazmuni

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

2. Respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro'yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini ta'minlash;

Tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash;

mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

Tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

Soliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 20 iyundagi F-1791-son Farmoyishi bilan tuzilgan ma'muriy islohotni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga oid takliflarni tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasining quyidagi takliflari qabul qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat moddiy zahiralari bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zahiralarni boshqarish qo'mitasi etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi etib qayta tashkil qilish;

Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligini Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi etib qayta tashkil qilish;

Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligini Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ("Sanoatkontexnazorat") etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasini tugatish.

3. Davlat boshqaruvining shakllari va usullari .

Ma'muriy-huquqiy fanda boshqaruv shakli deganda boshqaruv organlari faoliyatining tashqi namoyon bo'lish turlari davlat boshqarish organlari tomonidan sodir qilinadigan aniq harakatlarning amaliy ifodasi tushuniladi.

Odatda ijroiya hokimyatni amalga oshirishning huquqiy va noqonuniy shakllarini ajratishadi. Bevosita muayyan huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi va ancha to'liq ravishda yuridik rasmiylashtiriladigan faoliyat huquqiy shakldagi boshqarishi faoliyati sanaladi. Bunga (1)huquqiy hujjatlar qabul qilish. (2)shartnomaalar tuzish. (3) yuridik ahamiyatga ega boshqa hurakatlari qilish misol bo'ladi.

Ijroiya hokimyat faoliyatining nohuquqiy shakllari bo'lib tashkiliy va madaniy- texnikaviy ta'minlash bo'yicha harakatlar hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda yig'ilishlar, muxokamalar, tekshirishlar, ilg'or tajribani yoyish, rejalar, dasturlar, uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish, buxgalteriya va statistik hisobni amalga oshirish, namoyishlar matbuot konferensiyalari, mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil qilish kabi tashkiliy harakatlar kuplab uchraydi.

Ijroiya hokimyatni amalga oshirishning asosiy shakli davlat boshqaruvining huquqiy shaklini turlarga bo'lish anchagina diqqatga sozovordir. U ijroiya organlar

harakatining butun bir tizimidan iborat bo'lib, turli asoslarga ko'ra bir-biridan farq qiladi:

1. Yuridik ifodalanish darajasiga ko'ra: asosiy(huquqiy hujjatlar chiqarish) va unga asoslangan harakatlar, ya'ni muayyan yuridik oqibat keltirib chiqaruvchi yoki muayyan yuridik yo'nalishga ega bo'lgan (ro'yxatga olish, ruxsat berish, nazorat qilish, ogohlantirish, to'sib qo'yimoq, ta'minlamoq letsenziya berish).

2. Erishilgan notijoratlarga ko'ra : ijobiy (pozitiv) tartibga solish (ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tasdiqlash) yoki davlat boshqarish soxasidagi salbiy voqyealarga munosabat bildirish:

3. Hajmi bo'yicha: umumiy majburiy yoki aniq obektga muljallangan:

4. Kompentinsiyasiga kiruvchi masalalarni hal qilish harakteri va usullariga ko'ra :Muayyan tartib (protsedura) asosida (boshqaruv hujjatlar tayyorlash va qabul qilish) va protsessual (M: ma'muriy ish yuritish doirasida):

5. Subyekt bo'yicha ifodalanishga ko'ra : bir tamonlama ifodalangan yoki ikki va ko'p tamonlama (ma'muriy-huquqiy shartnomalar)

6. Qo'lanish shartlariga ko'ra : normal ijtimoiy hayot yoki favqulodda yoxud harbiy xolat rejimi:

7. Yuridik mazmunga ko'ra: ruxsat beruvchi, taqiqlovchi yoki majburlovchi.

Boshqaruv usuli davlat boshqaruv faoliyati funksiyalarini amalga oshirish, uning maqsadlarga erishish vositasidir. Davlat boshqaruvining universal metodi sifatida ishontirish va majburlash qabul qilingan.

Ishontirish usuli boshqarish jarayonida tushuntirish, tarbiyaviy, tashkiliy, rag'batlantirishi vositalaridan keng foydalanishni anglatadi. Ishontirish usuli ko'p shakillarda amalga oshiriladi: o'qitish, targ'ibot-tashviqot, tushuntirish, tajriba almashishi, yo'l-yo'riqlar berish, reklama, boshqaruv xodimlarining aholi bilan uchrashuvi va h...k..

Majburlash ishontirish usuli tegishli natija bermaganda, o'rnatilgan qoidalarni bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida qo'llaniladi . majburlash usuli faqat qonun asosida vakolatli organ tomonidan qo'llaniladi.

Davlat boshqaruvini amalga oshirishda nazoratning ham ahamiyati katta.

Muntazam ravishda turli yo'llar (kuzatish, tekshirish va h..k.). Bilan olib borilgan nazorat ijroiya faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

4. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz quluvchi g'ayri huquqiy, ayibli sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi .

Shaxs, uning qilmishida ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgandagina, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu elementlar qo'yidagilardan iborat. Obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon.

Obyekt-ma'muriy jazo chorasi bilan muxofaza qilinadigan munosabatlar hisoblanadi. Obyektiv tomoni- qilmishning ma'muriy huquq normalarida qayd qilingan tashqi namoyon bo'lishini tavsiflovchi belgilaridir. Ularning ichida eng asosiysi nojuya qilmishning o'zidir (talon- taroj ,savdo qilish,saqlash bosh tortish va h..k). Qilmish harakat va harakatsizlik ko'rinishlarida bo'lishlari mumkin.

Subyeksi - uni sodir qilgan shaxs hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyeksi sifatida qo'yidagilar tan olinadi.

1. Indivudal subyektlar : fuqarolar va maxsus ma'muriy-huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar (transport haydovchilar, tashkilot xodimlari, rahbarlari, muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar.

2. Yuridik shaxs hamda yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasining 2000y 15 dekabrda „Yuridik shaxslarning qurilish soxasida huquqbuzarlik uchun javobgarligi to'g'risida”gi qonunida yuridik shaxslarga ma'muriy jarima solinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Subyektiv tomoni – subyektning o'zining g'ayrihuquqiy harakati yoki harakatsizligiga bo'lgan ro'xiy munosabatini anglatadi. U qasd yoki ehtiyojsizlik shaklida ifodalanishi mumkin. Ayb - subyektiv tomoning zaruriy belgisi

hisoblanadi.

Ma'muriy jazo Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 22 - moddasiga binoan ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shunengdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq ma'muriy jazo choralari qo'yidagilardan iborat 1) jarima 2) ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish qurolli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoning haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish: 3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish qurolli hisoblangan yoki bevosita , shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish: 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus xuquqdan (transport vositasini boshqarish huquqi ov qilish huquqidan) mahrum qilish:

A) ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, 3 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, 14 yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, 18 yoshga to'lmagan shaxslarga 1-chi va 2-chi guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar qo'yidagilar hisoblanadi .

1. Tuman (shahar) sudining sudyasi: viloyat xujalik sudi
2. Shaharcha, qishloq va ovul fuqarolarning o'zini –o'zi boshqarish organliri qoshidagi ma'muriy komissiyalar.
3. Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ulanuvchi tuman (shahar) komissiyalari .
4. Ichki ishlar(militsiya) organlari (mansabdor shaxslari) davlat inspeksiyasi organlari va mansabdor shaxslar hamda qonunlar bilan vakolat berilgan boshqa organlar va mansabdor shaxslar.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Ma'muriy huquq boshqa huquq sohalaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
2. Davlat boshqaruvining tamoyillarini sanab o'ting?
3. Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi qanday tuzilishga ega?
4. Ma'muriy jazo turlari nimalardan iborat?

3-Mavzu: FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI.

Reja:

1. Fuqarolik huquqining predmeti
2. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning fuqarolik-huquqiy usullari
3. Fuqarolik huquqining tamoyillari va funksiyasi
4. Fuqarolik huquqining tizimi

Tayanch iboralar: Fuqarolik huquqi tushunchasi; mulkiy va nomulkiy munosabatlar; fuqarolik huquqining metodlari, tamoyillari va funksiyasi; taraflarning tengligi; mulkning daxlsizligi; shartnoma erkinligi;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
3. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
4. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

6. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. Rasmiy nashr. 2003.
8. Rahmonqulov X. O'zbekiston Respublikasining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997.
9. Zokirov I. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat. 1996.
10. Zokirov I. Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat. 2006.
11. Shodmanov F., G'ulomov A. Fuqarolik huquqi (umumiy qoidalar). SamDU. 2003.
12. Kommentariy k Grajdanskomu Kodeksu Rossiyskoy Federatsii, chasty pervoy. M., 1995.

1. Fuqarolik huquqining predmeti.

Fuqarolik huquqi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy shakli hisoblanadi. Fuqarolik huquqi deganda quyidagi muloxazalarni yuritish mumkin:

- 1) Me'yorlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan huquq soxasi sifatida
- 2) Normativ aktlar tizimini o'zida ifoda etgan fuqarolik qonunchiligi sifatida.
- 3) Fuqarolik-huquqiy hodisalar haqidagi bilimlarni o'rganish ga ko'maklashuvchi fan sifatida.
- 4) Fuqarolik-huquqiy bilimlar tug'risida ma'lumotlar tizimini o'zida jamlagan o'quv kursi sifatida.

Fuqarolik huquqining predmeti – huquq sohasi sifatida fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ash-yoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi normalari tartibga solib turiladigan munosabatlarning asosiy guruxini mulkiy munosabatlar tashkil qiladi. Mulkiy munosabatlar tushunchasi

mulk tushunchasi bilan uzluksiz bog'liqdir. Mulk tushunchasi huquqda quyidagi mazmunda qullanadi.

1) Shaxsning mulkini tashkil etuvchi ashyolar va moddiy qimmatliklar yig'indisi.

2) Mulk huquqi asosida boshqa shaxsdan olgan ashyolar yig'indisi (aktiv).

3) Mulkiy huquq va majburiyatlarni o'zida

Mulkiy munosabatlar–ishlab chiqarish jarayonida, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va vositalarni taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keladi. Bu munosabatlar – fuqarolarning erkiga bog'liq munosabatlar bo'lib, unda konkret shaxslar moddiy ne'matlarni o'tkazish orqali bog'lanadilar¹.

Mulkiy munosabatlar – bu fuqarolarning ashyoga, mulkka nisbatan munosabati emas, balki mulk orqali fuqarolar o'rtasida vujudga kelgan munosabatlardir.

Ayrim adabiyotlarda mulkiy munosabatlarni tovar – pul shakli sifatida talqin etiladi².

Moxiyatiga ko'ra, mulkiy munosabatlar quyidagilarga ajraladi:

1) Mulkka taalluqlilik bo'yicha munosabatlar (statika)

a) Mulkdorda mavjud mulkka nisbatan egalik munosabatlari.

b) Mulkdor bo'lmagan shaxsda joylashgan mulkka nisbatan egalik munosabatlari (ashyoviy huquq).

2) Bir shaxsdan ikkinchisiga moddiy ne'matlarni o'tkazish orqali bog'liq munosabatlar (dinamika). Bunday munosabatlar ham quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

a) Shartnomalar asosida yuzaga kelgan munosabatlar.

b) Delikt majburiyatlar. (zarar yetkazishdan, asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar).

v) Meros munosabatlar.

Fuqarolik huquqining predmeti mulkiy munosabatlar bilan birga shaxsiy nomulkiy munosabatlar ham hisoblanadi. Ular quyidagi asosiy belgilar bilan farqlanadi:

- 1) Mulkiy munosabatlardan holi, iqtisodiy mazmunga ega emas.
- 2) Ularning predmeti sifatida nomoddiy ne'matlar : ism, sha'n, qadr - qimmat, mualliflik huquqi va boshqalar.
- 3) Nomoddiy ne'matlar shaxsdan ajralmagan holda yuzaga keladi.

Fuqarolik huquqini shaxsiy nomulkiy munosabatlarini o'rni haqida yuridik adabiyotlarda ikki hil asosiy yondashuv mavjud.¹ Birinchidan: Shaxsiy nomulki huquqlar fuqarolik huquqining predmetiga kiradi, u bilan tartibga solinadi va muhofaza qilinadi. 2) Ijtimoiy munosabatlar tartibga solishning fuqarolik-huquqiy usullari.

2. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning fuqarolik-huquqiy usullari

Fuqarolik huquqini moxiyatdan ochib berish uchun, uning predmetini o'rganish bilan birga usullariga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki fanning predmeti "Nimani tartibga soladi?" degan savolga javob bersa, metodi "Qanday tartibga soladi?" degan savolga javob beradi. Demak, tartibga solishning huquqiy metodi-o'ziga xos usullar, vositalar, uslublar tizimi bo'lib, bunda huquq regulator sifatida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etadi, unda qatnashuvchilarning hulq-atvorini belgilaydi, ularga ma'lum huquq va majburiyatlar yuklaydi.

Fuqarolik huquqiy metodlarni quyidagilarga ajratishimiz mumkin.

1) Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning tengligi. Fuqarolik qonun xujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy ravishda bo'yso'nishga asoslangan emas (2-moddaning 6 qismi), bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi ikkala taraf ham, ularning kim bo'lishidan qat'iy nazar, teng hisoblanadilar. Bunday holni akademik X. Raxmonqulov quyidagicha baxolaydi: "Fuqarolik huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan tenglik, faqat unda ishtirok etuvchi taraflarning shaxsan har biriga tegishli bo'lgan muomala layoqati bilan ifodalanmaydi, balki ularning ushbu munosabatlarda ishtirokchi sifatida, bir-birlariga nisbatan bo'lgan huquq va

¹ Каранг: Гражданское право СПб, 1996.Ч1; Комментарий к гражданскому кодексу Российской Федерации, часть 1Москва 1995.

² Каранг: Иоффе О.С. Охрана чести и достоинства граждан С.Г.П.1962. №7; Комментарий части первой Гражданского кодекса Российской Федерации для предпринимателей. М. 1995.

munosabatlarning teng bo'lishi, ushbu huquq va majburiyatlar buzilganda yetkazilgan ziyonni to'la yoki ma'lum miqdorda qoplashni talab qilish huquqi va shu tufayli vujudga kelgan nizoning ma'muriy ravishda emas, balki munosabatlarda ishtirok etuvchilar uchun betaraf bo'lgan adolatli sud organi tomonidan hal qilinishi bilan belgilanadi. Bunday huquqiy tenglik zaminida iqtisodiy tenglik yotadi. U ham bo'lsa, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarning tovar-pul xarakteriga ega bo'lishidan va shu tufayli ularning haq evaziga amalga oshirilishidan iborat”¹. Bizningcha, bunda fuqarolik huquqiy munosablarda qatnashuvchilarning huquqiy holatini umumiy tengligi g'oyasi yotadi. Bunday g'oya fuqarolik huquqining barcha institutlarining mazmunidan joy olgan. Xatto fuqarolik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning belgilanishida ham tenglik metodi kuchda bo'ladi.

2) Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning iroda erkinligi metodi. Bunda shaxs o'zining hoxish irodasini mustakil va erkin amalga oshirishlari mumkin. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik xuquqlariga, o'z erkinliklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarni o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan har kanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar(FK 1-moddasi 2-bandi). Fuqarolik Kodeksi fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, hamda xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydi. “Xavfsizlikni ta'minlaydi, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishi, tabiatni va ma'daniy boyliklarni muxofaza qilish uchun zarur bo'lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonun hujjatlariga muvofiq joriy etilishi mumkin.” (1-modda 4- bandi) Demak, davlat umummanfaat maqsadlar uchun, fuqarolik huquqlarini cheklashi mumkindir.

3) Fuqaroviy - huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning mulkiy mustaqilligi. Fuqaroviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning mulkiy

¹ X. РАХМОНКУЛОВ: Узбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” Нашриёт уйи. Тошкент 1997й. 74 бет.

holati, munosabatlarning harakterini belgilab beradi. Mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari, bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari, bo'larning barchasi fuqarolar huquq layoqatining mazmunini tashkil etadi. (FK. 18-modda) “Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z hoxishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish...” (FK. 164- modda)

4) Fuqarolik huquqlarini himoya qilish. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda, huquqbuzarliklardan himoya qilish ijodi alohida o'rin tutadi. Bu metod huquqlarni tiklash xususiyatiga ega. Chunki fuqarolik normalariga asosan qo'llanishi zarur bo'lgan javobgarlik chorasi qoidaga rioya qilmagan tarafning shaxsiga nisbatan qaratilmasdan, balki huquqi buzilagan tarafning huquqini tiklashni, unga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni javobgar tomonidan qoplashni ta'minlashga qaratiladi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari FK 11- moddasida atroflicha bayon qilingan.

5) Fuqarolik-huquqiy metodi fuqarolik javobgarlikning mavjudligi bilan xarakterlanadi. U mulkiy hamda kompensatsion xarakterga ega. Javobgarlik tug'risida O.S. Ioffe quyidagi fikrni bildiradi: “Javobgarlik mas'ul subyektga mohiyatidan yangi, qo'shimcha qiyinchiliklar yuklaydigan aloxida davlat majburlov chorasidir. Qo'shimcha qiyinchiliklar huquqdan maxrum etish, majburiyatlar yuklash (masalan neustoykani to'lash) yoxud huquqdan maxrum etish va majburiyatni yuklashni birovga yuklash(masalan jinoiy chorasi sifatida ozodlikdan maxrum etish)larda aks etadi.”¹

3. Fuqarolik huquqining tamoyillari va funksiyasi

Fuqarolik huquqining metodi uning tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Fuqarolik huquqining tamoyillari bu fuqarolik huquq normalarining mazmuniga singdirilgan asosiy raxbariy qoidalardir. Ular Fuqarolik Kodeksining 1- moddasida o'z ifodasini topgan.

¹ O.S. Иоффе. Вина и ответственность по праву. “Гос право” 1972. №9 39-бет

Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlarining **tengligi tamoyili**. Bu xususida yukorida batafsil tuxtalgan.

Mulkning daxlsizligi tamoyili. U iqtisodda mulkni huquqiy tartibga solishning asosi hisoblanadi. Mulkning daxlsizligi tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53- moddasida ham qayd etilgan, “Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.”

Davlat tashabbusi mulk mulkdordan haq evaziga davlat va mahalliy ehtiyojlar uchun olib quyilishi mumkin. Qonun mulk huquqini majburiy su'atda bekor bo'lish asoslarini o'zida mustahkamlaydi. (FK ning 197, 199-204, 223- moddasi 4-bandi).

Mulk faqat haq to'lanmasdan jinoyat sodir etganda yoki boshqa bir huquqbuzarlikni amalga oshirganda sanksiya ko'rinishida sudning qaroriga binoan mulkdordan olib quyilishi mumkin, (FK 204-modda) mulk huquqini bekor qilish to'g'risidagi huquqidagi Davlat organlari va o'zini-o'zi boshqarish organlarining hujjatlari, sud qarorlari ustidan sudga murojaat qilish mumkin. (FK. 12-modda 204-modasi)

Shartnomaning erkinligi tamoyili. Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu kodeksda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Masalan, Ommaviy shartnomada tashkilotning o'z zimmasiga olgan majburiyati. (FK 358-modda).

Xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligi tamoyili. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25- moddasida “Har kim erkinlik va shaxsiy huquqiga ega” 27- moddasida “Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishlardan himoyalaniishi va turar joy daxlsizligiga ega” deyilgan. Bu qoidalar mazmuni Fuqarolik Kodeksi normalariga singdirilgan. Fuqarolarni xususiy ishlariga

o'zboshimchalik bilan aralashish natijasida unga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar to'laligicha qoplanadi. (FK 954, 1021-moddalar)

Fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilish va buzilgan huquqlarni himoya qilish ham tiklash tamoyili.

4. Fuqarolik huquqining tizimi

Fuqarolik huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar, uning kichik sohalarida va institutlarida namoyon bo'ladi. Huquqiy institut deganda, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning muayyan guruhini tartibga soladigan huquqiy me'yorlar yig'indisi tushuniladi. Kichik sohalar o'zida bir qancha bir turdagi va predmetiga ko'ra bir-biriga bog'liq fuqarolik-huquqiy institutlarining yig'indisini aks ettiradi.

Huquq instituti uchun, o'ziga xoslik bu mazmunan bir xillik, huquqiy tartibga solishning kompleksligi va qonunchilik nuqtai nazarda alohidalikdir²

Fuqarolik huquqida, huquq instituti sifatida: masalan, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, kichik soha sifatida majburiyat huquqi, soha sifatida fuqarolik huquqi e'tirof etiladi.

Talaba mavzuni o'rganayotganda fuqarolik huquqi tizimi va fuqarolik qonunchiligi tizimiga alohida e'tibor berishi lozim. Fuqarolik qonunchiligi tizimiga – Fuqarolik Kodeksi va biron bir qatorda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar kiradi. Fuqarolik huquqi tizimiga esa – fuqarolik huquq normalari bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mahalliy tuzilmalarning hujjatlari kiradi. Bulardan tashqari huquq tizimiga huquqiy odatlar sud pretsedenti kiradi.

Fuqarolik huquqi tizimi quyidagi olti bo'limni o'zida mujassamlashtirgan: birinchi bo'lim – umumiy qoidalar: ikkinchi bo'lim – mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: uchinchi bo'lim majburiyat huquq: to'rtinchi bo'lim – intellektual mulk: beshinchi bo'lim – vorislik huquqi: oltinchi bo'lim – xalqaro

xususiy huquq normalarini fuqarolik- huquqi munosabatlarga nisbatan tadbiq qilish.

Huquq sohalari tizimida fuqarolik huquqi

Huquq sohalari huquqiy tartibga solish metodi va predmetiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ularni huquq tamoyillari va davlat tuzilishi, apparatga oid tushunchalar va asosiy rahbariy kriteriyalar birlashtiradi¹. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar huquq sohalari uchta asosiy guruhga ajratadi².

1) Davlat – huquqiy sohasi. Bu o'ziga davlat, konstitutsion, ma'muriy, moliya huquqini qamrab oladi.

2) Fuqarolik – huquqiy. Bu guruhga fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi, mehnat huquqi, oila huquqi va boshqalar kiradi.

3) Jinoiy – huquqiy soha. Bu guruhga jinoyat huquqi, jinoyat protsessi, kriminalistika, kriminalologiya va x.k.

Burjuaziya huquq fanida uning huquq tizimi umumiy va xususiy huquqqa bo'linadi. Huquqning bunday bo'linishiga qadimgi Rimlik huquqshunos Ulpian asos solgan. Bu nazariya hozircha burjuaziya davlatlarida saqlanib, burjuaziya olimlarining fikricha huquqning bunday bo'linishi tabiiy bo'lib, shaxs bilan davlat o'rtasidagi va xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqqan. Umumiy huquq davlatga taaluqli bo'lib, unga konstitutsiyaviy (davlat) huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq sohalari kiradi. Hususiy huquq-alohida shaxslarga taalluqli bo'lib, unga fuqarolik huquqi, oila huquqi, savdo huquqi va boshqa huquq sohalari kiradi³.

Lekin shunga ahamiyat berish kerakki, huquq tizimi qanday guruhlarga ajratilishidan qat'iy nazar, huquq sohalari o'zining predmeti va usullarini saqlab qoladi. Jumladan: fuqarolik huquqi sohasi ham. Ma'lumki fuqarolik huquqi bilan bir qatorda ma'muriy huquq ham mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Lekin ular quyidagi belgilari bilan farq qiladi.

1. Fuqarolik huquqida munosabatlar texnika asosida o'rnatiladi. Ma'muriy huquqda ishtirokchi sifatida qatnashayotgan davlat organi xokimiyat funksiyasini amalga oshiradi.

2. Fuqarolik huquqida javobgarlik – kompensatsion xarakterga ega. Ma'muriy huquqda - jarima xarakteriga ega. Bu ikki sohaning birgalikdagi faoliyatini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ma'muriy organlar tamonidan qabul qilingan hujjatlar fuqarolik huquqiy munosablarni yuzaga keltirishi, o'zgartirishi va bekor qilishi mumkin.

Fuqarolik huquqi fani

Fuqarolik huquqi fanining predmeti – huquq sohasi sifatida fuqarolik huquqi, fuqarolik qonunchilik, fuqarolik huquq normalarini o'zida muassamlashtirgan hujjatlar, fuqarolik huquqining boshqa manbalari, huquqni qo'llash amaliyot hisoblanadi.

Fuqarolik huquqining ilk rivojlanish ildizlari qadimgi Rimga borib taqaladi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqini fan sifatida rivojlanishida huquqshunos olimlar o'z hissalarini qo'shdilar. Jumladan, akademik H.A.Rahmonqulov, professorlar SH.SH.Shorahmetov, I.B.Zokirov, B.I. Ibratov va boshqalarning xizmati tahsinga sazovordir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquq mazmuni mohiyatiga ko'ra avvalgilardan keskin farqlanadi. Bunday farqliklarni qiyosiy huquqshunoslik usuli orqali o'rganish lozim.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar?

1. Mulkiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda tenglik tamoyilini qanday tushunasiz?
3. Fuqarolik huquqida kichik huquq sohalari deganda nimani tushunasiz?
4. Dinamik va statik munosabatlarga baho bering?

4-Mavzu: ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH ASOSLARI

Reja:

1. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tushunchasi
2. Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar
3. Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash

Tayanch iboralar: iste'molchi; ishlab chiqaruvchi; ijrochi; sotuvchi; shartnoma; tovar; normativ hujjatlar; tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi; muvofiqlik sertifikati; tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni; tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni; kafolat muddati; xizmat muddati; yaroqlilik (saqlash) muddati; kassa cheki; tovar cheki; tovarni (ishni, xizmatni) muomaladan chiqarish;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
3. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
4. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
6. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. Rasmiy nashr. 2003.
8. O'zbekiston respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun. 1996 yil.
9. Rahmonqulov X. O'zbekiston Respublikasining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997.
10. Zokirov I. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat. 1996.
11. Zokirov I. Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat. 2006.
12. Shodmanov F., G'ulomov A. Fuqarolik huquqi (umumiy qoidalar). SamDU. 2003.

1. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tushunchasi

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu mavzuni o'rganishda quyidagi tushunchalarga e'tibor qaratish lozim:

iste'molchi-foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs);

Ishlab chiqaruvchi-iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

Ijrochi-maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta'mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko'rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo'yicha iste'molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar, tashkilot, muassasa

yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

Sotuvchi-oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

Shartnoma-tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv;

Tovar-ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti;

Normativ hujjatlar-standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o'z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi-tovarni iste'mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga va atrof muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq xavf-xatarning yo'qligi;

muvofiqlik sertifikat-sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

Tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni-tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofiqligi;

Tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni-tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko'p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

Kafolat muddati-tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta

ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), bosharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

Jizmat muddati-tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'i nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

Yaroqlilik (saqlash) muddati - muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin;

Kassa cheki-tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat;

Tovar cheki-tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat;

Tovarni (ishni, xizmatni) iste'molchidan qaytarib olish - agar tovar (ish, xizmat) iste'molchi mulkiga aylangan yoki unga taklif etilgan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo'lmagan tovarni (ishni, xizmatni) qaytarib olishga qaratilgan har qanday chora;

Tovarni (ishni, xizmatni) muomaladan chiqarish - ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo'lmagan tovarga (ishga, xizmatga) ofertani tugatish va bunga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan har qanday chora.

Iste'molchilarning asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

Tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

Tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi; hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi;

Buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

Iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlari uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Tovar (ish, xizmat)lar to'g'risidagi ma'lumot

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

Tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;

Tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;

Bahosi (tarifi) va sotib olish shartlari;

Ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;

Tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;

Tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;

Tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;

Teatr-konsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalanilishi to'g'risidagi axborot.

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchining huquqlari

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi:

zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

Sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

Iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Iste'molchining savdo va boshqa xizmat ko'rsatish turlari sohasida shartnoma tuzish hamda sotib olinayotgan tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

Narxnoma bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e'tiboriga havola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o'lchov asboblarini, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

2. Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar

Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadi. Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Tovarlarini kreditga sotish O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan tovarlarini kreditga sotish qoidalari bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi. Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste'molchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tovar sotilgan kuni aniqlashning imkoni bo'lmasa, bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati mobaynida tovar (xizmat)ning, shu jumladan butlovchi buyumlarning normal ishlashini (qo'llanilishini, ulardan foydalanilishini) ta'minlashi shart. Butlovchi buyumlarning kafolat muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, asosiy buyumning kafolat muddatidan kam bo'lmasligi lozim. Kafolat muddati tovar (xizmat)ning pasportida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko'rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan boshqa hujjatda ko'rsatiladi. Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, tovarning ta'mirlanishini va unga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etishi, tovarni ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovarning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo'lmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishdan olib tashlangan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yetarli hajmda va turda ehtiyot qismlari ishlab chiqarishi hamda savdo va ta'mirlash tashkilotlariga yetkazib berishi shart.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ular ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Sotuvchilarning yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan yoki bu muddati o'tib ketgan tovarlarini qabul qilishi va realizatsiya qilishi man etiladi.

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo'lishiga talab qo'yish huquqi

Iste'molchi o'zi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo'lishiga va uning hayoti, sog'lig'i, atrof muhit uchun xavfsiz bo'lishiga, shuningdek uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar (ish, xizmat)ning iste'molchilar hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof muhit uchun xavfsiz bo'lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar iste'molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e'tiboran o'n yil mobaynida uning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi shart.

Iste'molchilarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavf tug'diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko'rsatganlik) uchun qonun hujjatlariga muvofiq:

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi);

Normativ hujjatlarni tasdiqlagan organ;

Muvofiqlik sertifikatini bergan organ;

sog'liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan boshqa organlar javobgar bo'ladi.

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi ta'minlanmaganligi oqibatida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar ushbu Qonunning 20-moddasiga muvofiq qoplanishi lozim.

Agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni iste'molchilar e'tiboriga yetkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste'molchining hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga yoki atrof

muhitga zarar yetkazayotganligi yoxud zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to'xtatishi, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish choralarini ko'rishi shart.

Zarar yetkazilishining sabablarini bartaraf etish mumkin bo'lmagan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashi, ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni tugatishi shart, bunda davolashga, oziq-ovqatga mo'ljallangan tovarlar va maishiy kimyo tovarlari sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan utilizatsiya qilinishi shart. Bu majburiyatlar sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda, tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni to'xtatish, ularni muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish tovarning (ishning, xizmatning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi. Iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhit uchun xavfli bo'lgan tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko'rsatishni taqiqlab qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni taqiqlab qo'yish munosabati bilan iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Agar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) xavfli xossalarga ega bo'lgan tovarni qaytarib olish yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rgan bo'lsa, u iste'molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari

Nuqsonli tovar sotilgan iste'molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'lsa, o'z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish; tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish; tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash; xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish; shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Agar nuqsonlar:

tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida; kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo'yicha olti oy mobaynida; ko'chmas mulk iste'molchiga o'tkazilgan kundan e'tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo'lsa; mavsumiy tovarlar uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo'lsa, iste'molchi mazkur huquqlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Iste'molchi o'ziga sotilgan, to'plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning mustaqil tarkibiy qismi bo'lgan va mustaqil narxga ega bo'lgan buyumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to'plam, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Ushbu birinchi qismida bayon etilgan talablarni iste'molchi sotuvchiga qo'yadi.

Iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'rib chiqiladi.

Iste'molchi texnik pasportni yo'qotib qo'ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o'zaro munosabatlari shartnoma bilan

tartibga solinadi.

Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart. (O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni tahriridagi qism)

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi

Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o'n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga haqli. Bunday talab, basharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo'lsa, belgilangan xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati

belgilanmagan bo'lsa, o'n yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchining hisobidan uning o'zi yoki vakili eltib beradi). Buning uchun ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnoma asosida tovarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish xususida talab qo'yilgan taqdirda, undan foydalanishning kafolat muddati iste'molchining tovardan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat iste'molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e'tiboran hisoblana boshlaydi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek nuqsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste'molchiga neustoyka (penya) to'laydi.

Agar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining tovarni almashtirib berish yoki undagi nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmagan bo'lsa, iste'molchi tovarning xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni ushbu Qonunning 20 va 22-moddalariga muvofiq qoplashni talab qilishga haqli.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-kitob qilish

Nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'zgargan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narxlardagi farqni qo'shimcha ravishda to'lashi lozim, almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga

berilayotgan tovar narxidan yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'llaniladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Tovar iste'molchilarga kreditga sotilgan bo'lsa, shartnoma bekor qilingan taqdirda, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdorida qaytarib beriladi, shuningdek kredit berganlik haqi to'lanadi.

Hajmi katta yoki vazni besh kilogrammdan ziyod tovarni ta'mirlash, narxini tushirish, almashtirish uchun eltish va iste'molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvchining) kuchi bilan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib kelish iste'molchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchining tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xarajatlarini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) qoplashi shart.

Iste'molchining maqbul sifatli tovarni almashtirib olish huquqi

Iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli.

Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

Ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi

shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste'molchining huquqlari

Ijrochi ayrim turdagi ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi (xizmat ko'rsatishi) shart.

Ishni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddati ish bajarilishi (xizmat ko'rsatilishi) lozim bo'lgan sanaga (davrga), shuningdek ijrochi ishni bajarishga (xizmat ko'rsatishga) kirishishi lozim bo'lgan sanaga (davrga) qarab belgilanishi mumkin. Agar ish bajarish, xizmat ko'rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo'lib-bo'lib ado etiladigan bo'lsa (vaqtli matbuotni yetkazib berish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrlari) nazarda tutilishi kerak.

Agar ijrochi shartnomani ijro etishga o'z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lib qolsa, iste'molchi ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan voz kechishga va yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijrochi shartnoma shartlarini ish (xizmat)ni yomonlashtirgan darajada jiddiy buzgan bo'lsa, yoxud ishda (xizmatda) boshqa jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'ygan bo'lsa, iste'molchi o'z xohishiga ko'ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xuddi shunday sifatli shu xildagi materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yoxud ishning takroran bajarilishini yoki shartnoma bekor qilinib, ko'rilgan zarar to'liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste'molchi ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan huquqlarni:

ishni (xizmatni) qabul qilib olish vaqtida yoki uning bajarilishi jarayonida nuqsonlar aniqlangan taqdirda;

kafolat muddati davomida, kafolat muddati bo'lmagan taqdirda esa, ish (xizmat) qabul qilib olingan kundan e'tiboran olti oy davomida;

imorat yoki boshqa ko'chmas mulkda nuqsonlar aniqlangan kundan e'tiboran ikki yil davomida ro'yobga chiqarishi mumkin.

Ish bajarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada belgilab qo'yiladi. Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)dagi nuqsonlar, agar shartnomada bir muncha qisqaroq muddat belgilanmagan bo'lsa, iste'molchi talab qilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bartaraf

etilmagan, shuningdek ish bajarishni (xizmat ko'rsatishni) boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste'molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat (agar muddat soatlarda belgilangan bo'lsa) uchun ish (xizmat) qiymatining yoki buyurtma qiymatining (agar uning qiymati alohida belgilanmagan bo'lsa) bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchi undirib olgan neustoyka (penya) summasi ish bajarish (xizmat ko'rsatish)ning alohida turi bahosidan yoki buyurtmaning umumiy bahosidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to'lagan neustoyka (penya) qoplanishi lozim bo'lgan zarar hisobiga kirmaydi.

Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (penya) to'lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holda bajarishdan ozod etmaydi.

Iste'molchidan qabul qilib olingan ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda yoki iste'molchining materialidan foydalanib bajarilgan ishda jiddiy nuqsonlar bo'lsa yoki u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi iste'molchiga aynan o'xshash sifatli ashyoni qaytarishi (o'zining aynan o'xshash sifatli materialidan ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishi), buning imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, ashyoning (materialning) talab qo'yilgan paytdagi qiymatini ikki baravar qilib to'lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo (material) qiymati shartnoma tuzish paytida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ishda (xizmatda) jiddiy nuqsonlar mavjud bo'lganida yoki shartnoma talablari jiddiy buzilganida, shuningdek ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur yetgan taqdirda iste'molchi bilan hisob-kitob ishning (xizmatning) yoki materialning shartnomani bekor qilish paytidagi oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sifatsiz bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun ijrochi ushbu Qonunning 20, 22, 27, 29-moddalariga muvofiq javobgar

bo'ladi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnomalar bo'yicha iste'molchilar bilan ijrochi o'rtasidagi munosabatlarning o'z mohiyatiga ko'ra ushbu moddaga mos kelmaydigan xususiyatlari, shuningdek shartnomalarning umuman yoki lozim darajada ijro etilmaganligi tufayli kelib chiqadigan oqibatlar bunday shartnomalarning alohida turlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan qoidalar bilan aniqlanadi.

Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik

Tovar (ish,xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulking xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar,har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

3. Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash

Davlat iste'molchilarning tovar(ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda "O'zstandart" agentligi deb yuritiladi); O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari. (O'zR 19.12.2005 y. O'RQ-14-son Qonuni tahriridagi qism), (Oldingi tahririga qarang)

Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishi uchun mahalliy hokimiyat organlari:

iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar; iste'molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar; iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etadilar; o'z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida:

iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari

yuzasidan rasmiy tushuntirishlar beradilar; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish alomatlari aniqlangan taqdirda, ishlab chiqaruvchidan (ijrochidan, sotuvchidan) zarur hujjatlar, tushuntirishlarni va boshqa axborotni so'rab oladilar; iste'molchilarning huquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga (ijrochiga, sotuvchiga) ko'rsatma yuboradilar;

iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etishga haqlidirlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishini va ularning sifatini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishini va ularning sifatini ta'minlash maqsadida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida:

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishiga va ularning sifatiga doir majburiy talablarni belgilaydilar hamda bu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishiga va ularning sifatiga doir talablar buzilishini bartaraf etish, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, chiqarish va realizatsiya qilishni to'xtatish (ishlar bajarilishini, xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatish), ularni iste'molchilardan qaytarib olish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko'rsatmalar yo'llaydilar, shuningdek bu haqda iste'molchilarni xabardor qiladilar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifatiga doir talablarni buzganlari taqdirda ularning ustidan sudlarda da'vo qo'zg'atadilar.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni

amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati muvofiqlashtirib boradi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish

to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari ishlab chiqaruvchiga (ijrochiga, sotuvchiga):

qonun hujjatlarida yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shart ekanligi belgilanganligiga qaramay yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan tovarlarni realizatsiya qilish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tegishli davlat boshqaruvi organlarining ushbu tovarlarning iste'mol (foydalanish) uchun yaroqliligi to'g'risidagi xulosasi olingan taqdirda, realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining besh foizi va ushbu tovarlarning iste'mol (foydalanish) uchun yaroqsizligi to'g'risidagi xulosasi olingan taqdirda, realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni realizatsiya qilish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun - realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining uch yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

iste'molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun:

yuridik shaxslarga - eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda;

jismoniy shaxslarga - eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solish huquqiga ega.

"O'zstandart" agentligi va ushbu Qonun 26-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan davlat boshqaruvining boshqa organlari:

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) majburiy sertifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

o'zlarining ko'rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo'yin tovlasa, o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima solish sud tomonidan, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybiga iqror bo'lgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda esa, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining jami yigirma foizidan ortiq miqdorda jarima undirish unga undiriladigan summani undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida oyma-oy bo'lib to'lash imkoni berilgan holda amalga oshiriladi

Jarima solish ishlab chiqaruvchini (ijrochini, sotuvchini) yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

Ariza berish, agar sud ko'rsatmalarning ijro etilishini to'xtatib turish to'g'risida ajrim chiqarmagan bo'lsa, uni sudda ko'rib chiqish davrida bu hujjatlarning bajarilishini to'xtatib qo'ymaydi.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da'volar, agar qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, iste'molchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Iste'molchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha, shuningdek tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarning jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar?

1. Iste'molchi deganda nimani tushunasiz?
2. Iste'molchining asosiy huquqlari nimadan iborat?
3. Iste'molchi huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishi tushuntiring?

5 - Mavzu: Mehnat huquqi asoslari.

Reja:

1. Mehnat huquqi tushunchasi, subyektlari, manbalari.
2. Mehnat shartnomasi va kontrakti tushunchpsi.
3. Mehnat muxofazasi va moddiy javobgarlik .
4. Ayrim toifadagi xodimlar mehnati.

Tayanch iboralar: mehnat huquqi tushunchasi, subyektlari, manbalari; mehnat shartnomasi va kontrakti tushunchasi; mehnat muxofazasi va moddiy javobgarlik; ayrim toifadagi xodimlar mehnati.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
4. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
5. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim

- ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
 7. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
 9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 10. Tajixonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari . O'quv qullanma T, 1999.
 11. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T. Adolat. 1996.

1. Mehnat huquqi tushunchasi, subyektlari, manbalari.

Mulkchilikning har qanday shakllariga asoslanadigan korxonalarda xodimlarning ish beruvchi ishlash uchun yollanishga asoslanuvchi mehnat munosabatlari mehnat huquqining predmeti hisoblanadi .

Mehnat huquqining predmetiga qo'yidagi munosabatlari kiradi:

1. Ish beruvchi va xodimlar vakillik organlari o'rtasida mehnat shartnomasini belgilash, o'zgartirish korxonani boshqarishga oid munosabatlar:
2. Ishga joylashtirish bo'yicha davlat organlari bilan ish beruvchilar, ularning vakillari, xodimlar vakillik organlari o'rtasida Yangi ish joylarini barpo etish, aholini ishga joylashtirish, mehnat resurslaridan unumli va oqilona foydalanishga doir munosabatlar:
3. Xodimlar malakasini oshirish, bevosita ishlab chiqarishning o'zida ishchi kadrlar tayyorlashga oid munosabatlar:
4. Mehnat qonunlariga rioya etilishi, mehnat muxofazasi qoidalarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga doir munosabatlar:
5. Protsessul munosabatlar:

Mehnat munosabatlarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995 y 21 dekabrda qabul qilingan va 1996y apreldan amalga kiritilgan Mehnat kodeksi yetakchi o'rin tutadi. U umumiy va maxsus qism, 16-bob 294 moddadan iborat. 1996 y 10-dekabrda „Bolali oilalarni davlat yo'li bilan ijtimoiy qo'llab-quvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida”gi farmoni. 1997y 11 martdagi 133- sonli „Amaldagi qonunlarni mehnat kodeksi talablariga muvofiqlashtirish to'g'risida”gi. Vazirlar Mahkamasini qarorlari. Mehnat vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy ikki mehnat tartibi qoidalari, „Xotin – qizlar mehnati qo'llanilishi ta'qiqlangan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxati. Oliy sud Plenumining 1998y 17 apreldagi 12-sonli „Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi haqida”gi qarori va boshqa normativ hujjatlar bevosita mehnat qilish bilan bog'liq jarayonlarini tartibga soladi..

Mehnat huquqining subyektlari sifatida: Fuqarolar, ish beruvchilar, xodimlarning vakillik organlari, ish beruvchilarning vakillik organlari davlat ishi bilan ta'minlash organlari mehnat huquqining subyektlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 77- moddasiga ko'ra 16 yoshga yetgan jismoniy va aqliy mehnat qilishga layoqati bo'lgan fuqarolar bilan mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin. Istisno tariqasida ota-onalaridan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning yozma roziligi bilan 15 yoshga to'lgan shaxslar ham mehnat huquqining subyekti bo'la oladilar. Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari, bilim yurtlari, maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari 14 yoshga to'lganlarida o'qishdan bo'sh vaqitlarida ishga qabul qilinishlari mumkin.

2. Mehnat shartnomasi va kontrakt tushunchasi.

Mehnat kodeksining 72-moddasiga ko'ra mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'lib, uning maqsadi muayyan mutaxassislik, malaka, bo'yicha ishni xodim tomonidan haq evaziga ichki mehnat tartibi qoyidalariga bo'ysungan holda bajarishdan iborat bo'ladi.

Mehnat shartnomasining shartlari 1) Asosiy 2) Fakul'tetiv (dastlabki sinov).

Mehnat funksiyalarini belgilash paytida „mansab“ „Mutaxassislik“ tushunchalari farqlanmog'i lozim. Mansab xodim vakolatlarining huquklari va majburiyatlarini belgilovchi tushuncha bo'lsa, mutaxassislik xodim bajaradigan ish xususiyatlarini ,uning bilimi, malakasini ifodalaydi. Mehnat shartnomasi va uning barcha asosiy shartlari to'g'risida kelishib olingan va uni belgilangan tartibda rasmiylashtirish tirilgandan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Mehnat shartnomasi dastlabki sinov shartlari bilan tuzilganligi hamda bu haqda xodimga ma'lum qilinadi va yozma mehnat shartnomasida ko'rsatib qo'yiladi. Mehnat kodeksining 84-moddasiga ko'ra mehnat shartnomasi qo'yidagi maqsadga dastlabki sinov sharti bilan tuzilishi mumkin:

- Xodimning topshirilayotgan ishga layoqatligini tekshirib ko'rish.
- Xodim mehnat shartnomasida shartlashilgan ishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi haqida bir qarorga kelishi.

Dastlabki sinov muddati 3oy.

Qo'yidagi hollarda dastlabki sinov qo'llanilishi mumkin emas:

- Homilador va 3 yoshga to'lmagan bolalari bo'lgan ayollarga :
- Korxonada uchun belgilangan kvota hisobidan ishga xodimning bir marta bo'lsada o'z xizmat vazifalarini qo'pol tarzda buzganligi.
- O'rindoshlik asosida ishlayotgan boshqa doimiy xodimning ishga qabul qilinishi yoki o'rindoshlik bo'yicha ishlashni cheklanishi munosabati bilan o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan xodimlar.
- Mulkdor, almashishi sababli korxonada rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishi.
- Attestatsiya natijasiga ko'ra.

3. Mehnat muxofazasi va moddiy javobgarlik

Mehnat muxofazasi - tagishli qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida amal qiluvchi, insoning, mehnat jarayonida xavsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishi ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy,

texnikaviy, sanitoriya-gegina va davlat profilaktika tadbirlari hamda vositalari tuzishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mehnatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonun 1993y 6-may (O'zb Yangi qonunlari, 8-son T. Adolat. 1994 y).

Mehnat shartnomasi taraflarning moddiy javobgarligi.

Moddiy javobgarlik tushunchasi va asoslari mehnat shartnomasining muhim qismi bo'lib, tomonlarning bir-birlari oldidagi moddiy javobgarliklari hisoblanadi. MKning 86- moddasiga ko'ra: Mehnat shartnomasining bir tarafi o'zining g'ayriqonuniy aybli xulq- atvori (harakat yoki harakatsizligi) natijasida boshqa tarafga yetkazilgan zarari uchun, mehnat kodeksida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, moddiy javobgar bo'linadi:

Moddiy javobgarlik yuz berishi uchun qo'yidagi shartlari mavjud bo'lishi kerak:

- ayibli-hulqatvor.
- g'ayri qonuniy harakat yoki haraktsizlik.
- kelib chiqqan zarar.
- ayibli hulq atvor bilan zararli oqibat o'rtasida sababli bog'lanish bo'lishi lozim.

Xodimning ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgarliklari.

MKning 198- moddasida aytilishicha: xodim ish beruvchiga yetkazilgan bevosita haqiqiy zararni to'lash shart: Bevosita yetkazilgan haqiqiy zarar deganda ish beruvchining mavjud mol-mulki (shu jumladan ish beruvchi uchunchi shaxslardan) ishga qabul qilinganida :

- olti oygacha muddatga ishga qabul qilinayotgan xodimlarga ishga qabul qilinishidagi xujjatlar.

Mehnat shartnomasining o'zgartirilishi.

Mehnat shartnomasi o'zgartirilishiga mehnat shartlarining o'zgarilishi sabab bo'ladi. MKning 89-moddasiga ko'ra qo'yidagi hollar yuz berganda mehnat shartnomalarini ish beruvchi tomonidan bir tomonlama tarzda o'zgartirilishiga yo'l qo'yilishi mumkin:

A) Korxonadagi texnologik jarayonlarni o'zgartirilishi yuz bergan, yangi texnologiyalar joriy etilgan hollarda;

B) Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, korxonada tarkibiy tuzilishda, boshqaruv sxemalarida yuz bergan o'zgarishlar tufayli;

V) Ishlar (xizmatlar) hajmi qisqarishi yuz berganda, bosharti bunday o'zgarishi ishlar (xizmatlar) xususiyatini o'zgarishiga: xodimlar soning qisqarishiga olib kelsa.

Mehnat shartlari o'zgarganda xodim 2 oy oldin ogohlantirish lozim xodim yangi ishga o'tmagan taqdirda ish beruvchi kamida 1 oylik o'rtacha ish haqi miqdorida ishdan bo'shatish nafaqasi bergan holda ishdan bo'shatish kerak.

Mehnat shartnomasini bekor qilishi.

MKning 97- moddasida mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'yidagi asoslari nazarda tutilgan.

1. Taraflarning kelishuviga ko'ra
2. Taraflardan birining tashabbusi bilan
3. Muddatning tugashi bilan
4. Taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra:
5. Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra.
6. Saylov yoki tanlovdan o'tmaganligi yoxud saylov yoki tanlovda ishtirok etishni istamaganligiga tufayli.

MKning 100-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi ish beruvchi tomonidan qo'yidagi hollarda bekor qilinadi:

1. Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdan o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelganligini ishlar hajmining qisqarganligi yoxud qorxonaning tugatilganligi.
2. Xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiq bo'lib qolishi.
3. Xodimning o'z xizmat vazifalarini muntazam ravishda buzishi.

Xodim mehnat burchlarini bajarishi tufayli vafot etganida uning qaromog'ida bo'lib kelgan mehnatga yaroqsiz oila a'zolari o'z daromadlaridan mahrum bo'lishlari tufayli ko'rilgan zarar.

- Xodimni ishlash imkoniyatidan g'ayri qonuniy mahrum qilish (noqonuniy ishdan

bo'shatish, boshqa o'tkazish yoki ishdan chetlatish) natijasida majburiy progul vaqti tufayli ko'rilgan zarar.

- Xodimning mol-mulkiga ish beruvchi tomonidan g'ayriqonuniy ziyon yetkazilishi tufayli (xodim mulkining nobud bo'lishi, yo'qolishi, kamayishi, shikastlanishi) yetkazilgan zarar.

- xodimga ish beruvchi tomonidan yetkazilgan ma'naviy (jismoniy yoki ruhiy ozob chekish zararga olgan mol-mulki) amalda kamaytirilganligi yoki yomon holatga qilganligi, shunengdek ish beruvchining ortiqcha to'lovlar qilinishi tushuniladi. Agar xodim tomonidan ish beruvchiga zarar uni, bartaraf etish mumkin bo'lmagan kuchlar (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari 3-chi shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari va h.k) normal xo'jalik tavakkalchiligi oqibatida, oxirgi zarurati yoki zaruriy mudofa natijasida kelib chiqqan bo'lsa, xodimning moddiy javobgarligi istisno etiladi.

Moddiy javobgarlik ikki xil bo'ladi: Cheklangan va to'liq.

Xodim mehnat burchlarini bajarishi jarayonida ish beruvchiga yetkazgan zarar uchun cheklangan moddiy javobgarlikka tortilishi, ya'ni u o'zining o'rtacha oylik ish haqi miqdorida oshmaydigan hajimda moddiy javobgar bo'lishi, ehtiyotsizlik natijasida yetkazilgan zararlar uchun u qonunda maxsus ko'rsatib qo'yilgan hollardagina to'la moddiy javobgar qilinishi mumkinligi aytilgan.

MKning 202-moddasida xodimning to'liq moddiy javobgarligi holatlari ko'rsatilgan.

1. Maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishi ta'minlanmaganlik uchun .
2. Birgalik hujjat asosida olingan qimmatliklarning saqlanishi ta'minlanmaganlik uchun.
3. Qasddan zarar yetkazganda.
4. Alkogolik ichimliklardan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganida .
5. Xodimning sud hukmi bilan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda.

6. Tijorat sirlarini oshkor etganda

7. Qonunda , O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Ish beruvchi xodimga yetkazilgan zararlar uchun moddiy-javobgarlik obyektlari qatoriga MKning 187-moddasiga muvofiq qo'yidagilar kiradi.

- O'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida xodimga, boquvchisi ish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa, - uning oila a'zolariga yetkazilgan har qanday zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) ish beruvchi, to'liq hajmda to'laydi. Ma'naviy zarar (jismoniy yoki ruhiy azoblar) pul shaklida yoki boshqa moddiy shaklda hamda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda, xodim mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa, - ish beruvchi va vafot etgan xodimning oila a'zolari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda belgilangan miqdorda qoplanadi. Ma'naviy zararni qoplash yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, bu masala sudda ko'rib chiqiladi.

MKning 188-moddasiga ko'ra, ish beruvchining xodimga mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida yetkazilgan zararni to'lash majburiyati quyidagicha: Xodim mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan barcha hollarda ololmay qolgan ish haqini ish beruvchi unga to'lashi shart. Bunday majburiyat, agar ish haqi ishga qabul qilish g'ayriqonuniy ravishda rad etilganligi, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinganligi yoki xodim g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilganligi va mehnat nizolarini ko'ruvchi organning bunday ishlar yuzasidan chiqarilgan qarori o'z vaqtida bajarilmaganligi, mehnat daftarchasini berish kechiktirilganligi, har qanday yo'llar bilan xodimning sha'niga dog' tushiruvchi ma'lumotlar tarqatilganligi natijasida, basharti bu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmasa, shuningdek boshqa hollarda olinmay qolgan bo'lsa, kelib chiqadi.

MKning 189-moddasiga ko'ra, ish beruvchining xodim sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati:

Xodimning sog'lig'iga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki u o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yetkazilgan zararni ish beruvchi to'liq hajmda to'lashi shart.

Xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham mehnatda mayib bo'lishi, shuningdek ish beruvchi tomonidan ajratilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda shikastlanishi natijasida yetkazilgan zarar uchun ish beruvchi moddiy javobgar bo'ladi.

Mehnatda mayib bo'lish oqibatida yoki o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli xodimga yetkazilgan zararni ish beruvchi, basharti zarar uning aybi bilan kelib chiqmaganligini isbotlab berolmasa, to'lashi shart.

O'z mehnat vazifalarini bajarayotgan vaqtida yuqori xavf manbai natijasida xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararni ish beruvchi, basharti zarar uni bartaraf qilish mumkin bo'lmagan kuchlar tufayli yoki jabrlanuvchi qasddan qilganligi oqibatida kelib chiqqanligini isbotlab berolmasa, to'lashi shart.

MKning 190-moddasiga ko'ra, xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdori:

To'lanishi lozim bo'lgan zarar jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovdan, sog'lig'iga shikast yetishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning kompensatsiyasidan, shuningdek belgilangan hollarda esa, - bir yo'la beriladigan nafaqa to'lashdan iboratdir.

Kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi va jabrlanuvchining qo'shimcha yordam turlariga muhtojligi tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Zarar o'rnini qoplash uchun to'lovlarni tayinlashda jabrlanuvchi olayotgan ish haqi, stipendiya, pensiya va boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Bunda mehnatda mayib bo'lgan jabrlanuvchilar - nogironlarga zararni qoplash uchun

to'lanadigan summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizidan oz bo'lishi mumkin emas.

MKning 191-moddasiga ko'ra, xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganda mehnat shartnomasi taraflarining aralash javobgarligi:

Agar jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligi zararning kelib chiqishi yoki ko'payishiga sabab bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdori jabrlanuvchining aybi darajasiga qarab, muvofiq ravishda kamaytiriladi.

Jabrlanuvchi tomonidan qo'pol ehtiyotsizlik qilingan va ish beruvchining aybi bo'lmagan hollarda, uning aybidan qat'i nazar javobgarlik kelib chiqadigan bo'lsa (189-moddaning to'rtinchi qismi), to'lanadigan zarar miqdori ham shunga muvofiq ravishda kamaytiriladi. Bunday vaqtda zararni to'lashni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Aralash javobgarlik to'lanishi lozim bo'lgan zararning qo'shimcha turlariga, bir yo'la beriladigan nafaqaga, shuningdek boquvchining vafoti munosabati bilan zararni to'lash hollariga tadbiriq etilmaydi.

MKning 192-moddasiga ko'ra, boquvchining vafot etganligi munosabati bilan zararni ish beruvchi tomonidan to'lash majburiyati:

Xodim mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetishi sababli vafot etgan hollarda, ish beruvchi marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga, shuningdek o'n olti yoshga to'lmagan yoki u vafot etgan kunga qadar undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandiga, shuningdek ota-onasidan biriga, umr yo'ldoshiga yoki oilaning boshqa a'zosiga, agar u ishlamasdan marhumning uch yoshga yetmagan bolalari (ukalari, singillari) yoki nevaralarining parvarishi bilan band bo'lsa, zararni to'lashi shart.

Qaramoqda bo'lish farazan olinadi va buning uchun dalil talab etilmaydi.

Quyidagilar mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblanadi:

o'n olti yoshdan katta shaxslar, agar ular shu yoshga to'lgunga qadar nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar;

oltmish yoshga to'lgan erkaklar va ellik besh yoshga to'lgan ayollar;
belgilangan tartibda nogiron deb topilgan shaxslar.

Oila a'zosining mehnatga qobiliyatsizligi boshlangan vaqt (boquvchining vafotiga qadar yoki undan keyin) uning zararni undirishga bo'lgan huquqiga ta'sir etmaydi.

O'n olti yoshdagi va undan katta o'quvchilar, o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida o'qishni tugatgunlarigacha, lekin o'n sakkiz yoshga qadar bo'lgan davrda, zararni undirish huquqiga egadirlar.

MKning 193-moddasiga ko'ra, boquvchining vafot etganligi munosabati bilan to'lanadigan zarar miqdori:

Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'lanadigan zarar miqdori marhumning o'rtacha oylik ish haqi miqdorida, uning o'ziga va uning qaramog'ida bo'lgan, lekin zararni undirishga haqli bo'lmagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarning ulushini chegirib tashlagan holda belgilanadi.

Zarar to'lovini olishga haqli bo'lgan shaxslarning har biriga tegishli bo'lgan zarar miqdorini aniqlash uchun boquvchi ish haqining mazkur shaxslarning hammasiga to'g'ri keladigan qismi ular soniga taqsimlanadi.

Vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lmagan, ammo zarar to'lovini olish huquqiga ega bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar uchun zarar to'lovi miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

agar ta'minot mablag'i sud tartibida undirilgan bo'lsa, u holda zarar to'lovlari sud tomonidan tayinlangan summa miqdorida belgilanadi;

agar ta'minot mablag'i sud tartibida undirilmagan bo'lsa, u holda zarar to'lovlari ularning moddiy ahvoli hamda vafot etgan shaxsning hayotlik vaqtida ularga yordam ko'rsatish imkoniyatini hisobga olib belgilanadi.

Agar vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan shaxslar ham, uning qaramog'ida bo'lmagan shaxslar ham ayni bir vaqtda zarar to'lovini olishga haqli bo'lsalar, bunday holda zarar to'lovlari miqdori avvalo marhumning qaramog'ida bo'lmagan shaxslar uchun belgilanadi. Ular uchun belgilangan zarar to'lovi

summasi boquvchining ish haqidan chegirib tashlanadi, so'ngra ish haqining qolgan miqdoridan kelib chiqib ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda marhumning qaramog'ida bo'lgan shaxslar uchun qoplanadigan zarar miqdori belgilanadi.

Boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan zarar to'lovini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, xuddi shuningdek boshqa pensiya, ish haqi, stipendiya va boshqa daromadlar qoplanadigan zarar to'lovi hisobiga kiritilmaydi. Bunda qaramoqdagi har bir shaxsga tegishli bo'lgan zararni qoplash summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizidan oz bo'lishi mumkin emas.

MKning 188-moddasiga ko'ra, xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori:

Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa, - ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Bunda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jabrlanuvchining yillik ish haqidan, xodimning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori esa, marhumning olti yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lishi mumkin emas.

MKning 195-moddasiga ko'ra, xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan zararni to'lash tartibi va muddatlari:

Mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan zararni to'lash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

MKning 196-moddasiga ko'ra, xodimning mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi: Mehnat shartnomasida belgilangan

vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida xodimning shaxsiy buyumlari yoki boshqa mol-mulkiga zarar yetkazgan ish beruvchi bu zararni natura holida qoplamog'i lozim. Zararni natura holida qoplashning iloji bo'lmagan taqdirda yoki xodimning roziligi bilan mol-mulkning qiymati shu joyda amalda bo'lgan baho bo'yicha to'la hajmda qoplanadi.

MKning 197-moddasiga ko'ra, xodimga yetkazilgan zararni undirishga doir ishlarni ko'rish tartibi: Zararni undirish haqidagi arizani ish beruvchiga jabrlanuvchi xodim, xodim vafot etgan taqdirda esa, - zarar to'lovini olishga haqli bo'lgan manfaatdor shaxslar beradi.

Ish beruvchi arizani ko'rib chiqishi va ariza tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida tegishli qaror qabul qilishi shart.

Ish beruvchining xodimga zararni to'lash haqidagi buyrug'ining nusxasi yoki rad etish haqidagi dalil - asosli yozma javobi u qabul qilingan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida xodim yoki manfaatdor shaxslarga topshiriladi.

Xodim yoki manfaatdor shaxslar ish beruvchining qaroriga rozi bo'lmagan yoki belgilangan muddatda javob olmagan taqdirda, ular mazkur nizoni hal qilib berish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin.

4. Ayrim toifadagi xodimlar mehnati.

1. Ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar (224-238 moddalar)
2. Yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar (239-249 moddalar)
3. Ishni ta'lim bilan birga qo'shib olib borayotgan shaxslar uchun imtiyozlar (248-258 moddalar)

MKning 224-moddasiga ko'ra, homilador ayollarni va bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar belgilangan. Unga ko'ra, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Homilador ayolni yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayolni ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi rad etishning sabablarini ularga yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Mazkur shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda, shuningdek yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo'llanish taqiqlanadi, yer ostidagi ba'zi ishlar (jismoniy bo'lmagan ishlar yoki sanitariya va maishiy xizmat ko'rsatish ishlari) bundan mustasnodir.

Ayollarning ular uchun mumkin bo'lgan normadan ortiq yukni ko'tarishlari va tashishlari man etiladi. Ayollar mehnatini qo'llanish taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay ishlarning ro'yxati hamda ular ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan yuk normalarining chegarasini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va ish beruvchilarning vakillari maslahatini olgan holda tasdiqlaydi.

Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko'rsatish normalari kamaytiriladi yoki ular avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi.

Homilador ayolga yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilgunga qadar, u ana shu sababdan ishga chiqmagan barcha ish kunlari uchun o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.

Ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar avvalgi ishini bajarishi mumkin bo'lmagan taqdirda, bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar avvalgi ishidagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi.

Homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Uch yoshga to'lmagan bolalari bor, budget hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati chog'ida ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ayollar mehnatiga haq har kungi to'liq ish muddati chog'ida tegishli toifadagi xodimlar uchun belgilangan miqdorda to'lanadi.

Homilador ayolning, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayolning, shu jumladan homiyligida shunday bolasi bor ayolning yoki oilaning betob a'zosini parvarish qilish bilan band bo'lgan shaxsning iltimosiga ko'ra, ish beruvchi tibbiy xulosaga muvofiq ularga to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi (119-modda) belgilashga majburdir.

Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra, tegishlicha homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tilidan keyin beriladi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan bitta va undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolg'iz onaga (beva erkaklar, beva ayollar, nikohdan ajrashganlar, yolg'iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra yoz vaqtida yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtda beriladi (144-modda).

O'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga har yili uch ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

O'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga ularning xohishiga ko'ra, har yili o'n to'rt kalendar kundan kam bo'lmagan muddat bilan ish haqi saqlanmagan holda ta'til

beriladi. Bunday ta'til yillik ta'tilga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda undan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib) foydalanilishi mumkin.

Ayollarga tuqqunga qadar yetmish kalendar kun va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda - yetmish kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug'ishga qadar amalda bunday ta'tilning necha kunidan foydalanilganidan qat'i nazar ayolga to'liq beriladi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ta'til berilib, bu davrda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi.

Ayolga, uning xohishiga ko'ra, bolasi uch yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo'shimcha ta'til ham beriladi.

Bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to'liq yoki uni qismlarga bo'lib foydalanishlari mumkin.

Ayol yoki ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar o'z xohishlariga ko'ra, bolani parvarishlash ta'tili davrida to'liq bo'lmagan ish vaqti rejimida yoki ish beruvchi bilan kelishib, uyda ishlashlari mumkin. Bunda ularning nafaqa olish huquqlari (ushbu moddaning birinchi qismi) saqlanib qoladi.

Bolani parvarishlash ta'tillari davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'tillar mehnat stajiga, shu jumladan mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shiladi.

Bolani parvarishlash ta'tillarining vaqti, basharti jamoa shartnomasida, korxonaning boshqa loqal hujjatida yoxud mehnat shartnomasida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, keyingi haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqini beradigan ish stajiga qo'shilmaydi.

Yangi tug'ilgan bolalarni bevosita tug'ruqxonadan farzandlikka olgan yoki bolalarga vasiy qilib belgilangan shaxslarga bola farzandlikka olingan (vasiylik belgilangan) kundan boshlab, bola tug'ilgan kundan e'tiboran ellik olti kalendar kun (ikki yoki undan ortiq bola asrab olingan (vasiylik belgilangan) taqdirda esa yetmish kalendar kun) o'tgunga qadar bo'lgan davrda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lagan holda ta'til beriladi va ularning xohishiga ko'ra, bola uch yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun qo'shimcha ta'tillar beriladi (234-modda).

Ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga, dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari, bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar ham beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda bir marta har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan muddat bilan beriladi. Ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi bo'lgan taqdirda, tanaffusning muddati kamida bir soat qilib belgilanadi.

Bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o'rtacha oylik ish haqi hisobi bo'yicha haq to'lanadi.

Bolasi bor ayolning xohishiga ko'ra, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun belgilangan tanaffusga qo'shib berilishi yoki umumlashtirilib, ish kunining (ish smenasining) boshiga yoki oxiriga ko'chirilib, ish kuni (ish smenasi) shunga yarasha qisqartirilishi mumkin.

Bu tanaffuslarning aniq muddati va ularni berish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, - ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilab qo'yiladi.

Homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, korxonaning butunlay tugatilish hollari bundan mustasno, bunday hollarda mehnat shartnomasi ularni albatta ishga joylashtirish sharti bilan bekor qilinadi. Mazkur ayollarni ishga joylashtirishni mahalliy mehnat organi ularni ishga joylashtirish davrida qonun hujjatlarida belgilangan tegishli ijtimoiy to'lovlar

bilan ta'minlagan holda amalga oshiradi. (O'zR 15.04.1999 y. 772-1-son Qonuni tahriridagi qism)

Muddati tugaganligi sababli mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham ish beruvchi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan ayollarni ishga joylashtirishi shart. Ishga joylashtirish davrida bu ayollarning ish haqi saqlanib qoladi, biroq bu muhlat muddatli mehnat shartnomasi tugagan kundan boshlab uch oydan oshmasligi kerak.

Ayollarga onalik bilan bog'liq holda beriladigan kafolatlar va imtiyozlar (tungi ishlarga va ish vaqtdan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etishni va xizmat safarlariga yuborishni cheklash, shuningdek qo'shimcha ta'tillar berish, imtiyozli ish rejimlarini o'rnatish hamda mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan boshqa kafolatlar va imtiyozlar), onasiz bolalarni (ona vafot etgan, onalik huquqlaridan mahrum etilgan, uzoq vaqt davolash muassasalarida bo'lgan va bolalari to'g'risida ona sifatida g'amxo'rlik qilmagan boshqa hollarda) tarbiyalayotgan otalarga, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning vasiylariga (homiylariga) ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan kafolatlar va imtiyozlar, shuningdek ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni amalda tarbiya qilayotgan buviga, buvaga yoki boshqa qarindoshlarga ham beriladi.

Yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar

Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mahalliy mehnat organi va boshqa organlar tomonidan yuborilgan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni ish beruvchi ishga qabul qilishi shart. (O'zR 29.08.1998 y. 681-I-son Qonuni tahriridagi qism)

Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga qabul qilishni rad etish taqiqlanadi va bunday rad etish ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. (O'zR 29.08.1998 y. 681-I-son Qonuni tahriridagi qism)

O'n sakkiz yoshga to'lmagan barcha shaxslar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina ishga qabul qilinadilar va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lgunlariga qadar har yili majburiy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi kerak.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'ladilar, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan mehnat sharoiti noqulay ishlarda, yer osti ishlarida va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu birinchi qismda ko'rsatilgan ishlar ro'yxati va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va ish beruvchilarning vakillari maslahatini olgan holda belgilaydi.

Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar (ta'til davrida ishlayotgan o'n to'rt dan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

O'qishdan bo'sh vaqtlarida ishlayotgan o'quvchilarning o'quv yili davomidagi ish vaqti muddati ushbu moddaning birinchi qismida tegishli yoshdagi shaxslar uchun nazarda tutilgan ish vaqti eng ko'p muddatining yarmidan ortib ketishi mumkin emas.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarning kundalik ish vaqti qisqartirilgan hollardagi mehnatiga haq kundalik ish vaqti to'liq bo'lgan chog'da tegishli toifadagi xodimlarga beriladigan miqdorda to'lanadi.

Korxonalarda o'qishdan bo'sh vaqtida ishlayotgan o'quvchilarning mehnatiga ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda yoki ishlab chiqargan mahsulotiga qarab haq to'lanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik ta'til beriladi va ular bu ta'tildan yoz vaqtida yoki yilning o'zlari uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtida foydalanishlari mumkin.

Basharti ta'til berilayotgan yil xodim o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar va to'lgandan keyingi davrlarni o'z ichiga olsa, ta'tilning muddati o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan ish staji uchun - o'ttiz kalendar kun hisobidan, o'n sakkiz yoshga to'lgandan keyingi ish staji uchun esa, - umumiy tartibda hisoblab chiqariladi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy tartibiga rioya qilishdan tashqari, mahalliy mehnat organining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ota-onalar va vasiylar (homiylar), shuningdek mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlar hamda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, agar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar bajarayotgan ishni davom ettirish ular sog'lig'iga ziyon qiladigan yoki ularga boshqacha tarzda zarar yetkazadigan bo'lsa, bunday shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqlidirlar.

Ishni ta'lim bilan birga qo'shib olib borayotgan shaxslar uchun imtiyozlar

Ishlab chiqarishda kasbga doir ta'lim olayotgan, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malakasini oshirayotgan yoki ta'lim muassasalarida o'qiyotgan xodimlarga ishni ta'lim bilan birga qo'shib olib borishlari uchun ish beruvchi zarur sharoitlar yaratib berishi shart.

Ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlar mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ

hujjatlarda belgilangan tartibda ish joyidan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'tilga chiqish, qisqartirilgan ish haftasi sharoitida ishlash va boshqa imtiyozlar olish huquqiga egadirlar.

Ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotganlarga yillik ta'tillarni ish beruvchi ularning xohishiga ko'ra imtihonlar va laboratoriya-imtihon sessiyalari vaqtiga to'g'rilab berishi shart.

Umumta'lim maktablarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda muvaffaqiyatli o'qiyotgan xodimlar uchun o'quv yili davrida bir ish kuniga qisqartirilgan ish haftasi yoki shunga muvofiq keladigan miqdorda qisqartirilgan ish soati (hafta davomida ish kuni qisqartirilgan bo'lsa) belgilab qo'yiladi, qishloq joylardagi umumta'lim maktablarida o'qiyotganlar uchun esa, ikki ish kuniga qisqartirilgan ish haftasi yoki shunga muvofiq keladigan miqdorda qisqartirilgan ish soati (hafta davomida ish kuni qisqartirilgan bo'lsa) belgilab qo'yiladi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilari olti kunlik ish haftasida ishlayotgan bo'lsalar, o'quv yili mobaynida kamida o'ttiz olti ish kuni yoki shunga muvofiq keladigan miqdorda ish soati davomida ishdan ozod qilinadilar. Besh kunlik ish haftasida ishlangan taqdirda, ishdan ozod qilinadigan ish soatlarining umumiy miqdori saqlab qolinadi, ishdan ozod qilinadigan ish kunlarining miqdori esa, ish smenasining muddatiga qarab o'zgaradi.

Ishdan ozod qilingan vaqt uchun o'quvchilarga asosiy ish joyida oladigan o'rtacha oylik ish haqining kamida ellik foizi to'lanadi, lekin bu belgilangan eng kam mehnat haqi miqdoridan oz bo'lmasligi kerak.

Umumta'lim maktablarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotgan xodimlarga ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlangan holda XI (XII) sinfda bitiruv imtihonlari topshirish davrida yigirma ish kunidan kam bo'lmagan, IX sinfda esa sakkiz ish kunidan kam bo'lmagan ta'til beriladi.

Mazkur maktablarning V, VI, VII, VIII, X va XI sinflarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotganlar uchun qonun hujjatlarida sinfdan sinfga o'tish imtihonlarini topshirish vaqtida ushbu Kodeksning 251-moddasiga muvofiq beriladigan kunlarning umumiy miqdorini qisqartirish (sakkiz - o'n ikki

kunga) hisobiga ularning asosiy ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlangan holda to'rt kundan olti kungacha ishdan ozod qilish belgilab qo'yilishi mumkin.

Hunar-texnika bilim yurtlarida ta'lim olishning kechki shaklida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan xodimlar imtihonlarga tayyorlanish va ularni topshirish uchun asosiy ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlangan holda yil mobaynida kamida o'ttiz ish kuniga ishdan ozod qilinadilar.

Kirish imtihonlari topshirishga ruxsat etilgan xodimlarga oliy o'quv yurtlariga kirish uchun kamida o'n besh kalendar kun, o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirish uchun esa, kamida o'n kalendar kun muddat bilan ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi, o'quv yurtlari joylashgan yerga borish va qaytib kelish vaqti bu hisobga kirmaydi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan xodimlar diplom loyihasini (ishini) bajarish yoki bitiruv imtihonlari topshirishdan oldingi o'n o'quv oyi davomida mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun olti kunlik ish haftasi bo'lganda haftada bir kun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etiladilar. Ish haftasi besh kunlik bo'lsa, ishdan ozod etiladigan kunlar miqdori ish smenasining muddatiga qarab o'zgaradi, ishdan ozod etiladigan soatlar miqdori esa saqlanib qoladi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyasida qatnashish davrida quyidagi tartibda: birinchi va ikkinchi kursda ta'limning kechki shaklida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida yigirma kalendar kun, o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida o'n kalendar kun, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sirdan ta'lim olayotganlarga esa, har yili kamida o'ttiz kalendar kun, uchinchi va undan keyingi kursda ta'limning kechki shaklida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida o'ttiz kalendar kun, o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida yigirma kalendar kun, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sirdan ta'lim olayotganlarga esa, har yili kamida qirq kalendar kun, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida bitiruv imtihonlarini topshirish davrida kamida o'ttiz kalendar kun, diplom loyihasini (ishini) tayyorlash va

yoqlash davrida oliy o'quv yurti talabalariga to'rt oy, o'rta maxsus o'quv yurti talabalariga esa ikki oy muddat bilan o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda qo'shimcha ta'tillar beriladi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining oxirgi kurslarida o'qiyotgan xodimlarga diplom loyihasiga materiallar to'plash uchun o'ttiz kalendar kun muddat bilan ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi. Mazkur ta'til davrida talabalar va o'quvchilarga umumiy asoslarda stipendiya tayinlanadi.

Ish beruvchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sirtidan ta'lim olayotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyasida qatnashish maqsadida o'quv yurti joylashgan yerga borishi va u yerdan qaytib kelishi uchun yiliga bir marta yo'l kiraning ellik foizdan kam bo'lmagan qiymatini to'laydi.

Diplom loyihasi (ishi) tayyorlash va uni yoqlash yoki bitiruv imtihonlarini topshirish uchun borib kelinganda ham shunday miqdorda yo'l kira to'lanadi.

Ishlab chiqarish yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga qo'shib olib borayotgan shaxslarga nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarini yakunlash, shuningdek darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozish uchun asosiy ish joyida o'rtacha oylik ish haqi va lavozimi saqlangan holda ijodiy ta'tillar beriladi.

Ijodiy ta'tillarni berish tartibi va ularning muddatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar?

1. Mehnat huquqining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat munosabatlari bo'yicha yoshlarga qanday imtiyozlar berilgan?
3. Qanday ishlarda ayollar mehnatidan foydalanish ta'qiqlanadi?
4. Xodimga yetkazilgan zarar miqdori qanday aniqlanadi?

6-Mavzu: EKOLOGIYA HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, TAMOYILLARI VA TIZIMI

Reja:

1. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o`rni
2. Ekologiya huquqi fanining rivojlanish tarixi
3. Ekologiya huquqining asosiy yo`nalishlari va predmeti
4. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi

Tayanch iboralar: ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o`rni; ekologiya huquqi fanining rivojlanish tarixi; ekologiya huquqining asosiy yo`nalishlari va predmeti; ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
 1. 4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
 2. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
 3. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
 4. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

6. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

5. Ekologiya huquqi. Darslik. T.: TDYI. 2006y.

1. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o'rni

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turli yo'nalish va shakllarda uzoq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda.

Asrlar davomida insoniyat tabiat qonuniyatlariga moslashib, o'zining turli ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanib, unga ta'sir o'tkazmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat a'zolari ongining tobora takomillashishi, yangi mehnat qurollarining ixtiro etilishi o'z navbatida, insonning turli ehtiyojlarining rivojlanishiga olib keldi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanib salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Jamiyat a'zolarining tabiatdan foydalanish bo'yicha ehtiyojlarining oshishi, tabiiy resurslardan foydalanish qurollari, ya'ni texnikaviy vositalarning takomillashishiga olib keldi. Ushbu holat o'z navbatida tabiatga jamiyat tomonidan bo'ladigan ta'sirlarning bir necha barobar ko'payishiga sabab bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda inson tafakkurining rivojlanishi ilm-fanning taraqqiy etishi o'z navbatida insonning turli ehtiyojlarini qondirishga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qildi. Albatta, yangi texnologik jarayon ish unumdorligi, iqtisodiy daromadni ko'paytirishi bilan bir qatorda tabiiy resurslarning holatiga salbiy ta'sirlarni oshirishga,

shuningdek tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi o`zaro muvozanatni buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat o`rtasidagi munosabatning shunday yo`lga qo`yilishi kerakki o`zaro ta'sirlar natijasida tabiiy resurs, ekologik tizimlar holati va aholining sog`ligi, hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining darajasiga bo`ladigan salbiy oqibatlarni iloji boricha kamayishiga olib kelinishi zarurdir.

Muhim tabiiy resurslar hisoblangan yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralarning inson, jamiyat hayotida tutgan o`rni beqiyosdir.

Shuning uchun har qanday jamiyatda tabiatdan foydalanish, uni muhofaza qilish, tabiat zahiralarni kelajak avlodga meros qilib qoldirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tarixga nazar solib, fikr qiladigan bo`lsak tabiat-jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar jamiyat hayotining turli bosqichlarida turlicha shakllarda olib borilgan, har bir tarixiy rivojlanish bosqichida turli foydalanish va ularni muhofaza qilishning qoida-talablari joriy etilib kelingan.

Demak, jamiyatda yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik, hayvonot dunyosi va atmosfera havosidan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan ijtimoiy munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solinib, tabiat-jamiyat tizimida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog`liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar tizimi va ularning ta'sir doirasi har bir tarixiy bosqichda mavjud ilm, fan va texnika rivojlanishi hamda atrof tabiiy muhit holatining darajasiga bog`liq bo`ladi.

Shuning uchun ham XX asrda amalga oshirilgan fan-texnika revolutsiyasi natijasida yaratilgan yangi texnika vositalari, ishlab chiqarish obyektlari o`z navbatida tabiatga bo`lgan ta'sirini oshishi misli kutilmagan ekologik salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshladi.

Ushub holat ekologik huquqiy munosabatlarning doirasi va darajasini o'rganuvchi ekologiya huquqi fanining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zaruriyat yaratdi.

Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi fandır.

Ekologiya huquqi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lgan alohida yo'nalish va xususiyatlarga ega bo'lgan huquq sohasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki har bir huquq sohasining mohiyati tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning doirasi va darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning kengligi, murakkabligi, xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa huquq sohalaridan ajralib turadi.

Hammamizga ma'lumki, davlat va huquq nazariyasiga asosan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rnini va ishtiroki darajasi doirasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (majmualashgan yoki keng qamrovli, keng tarmoqli) huquq sohaslariga bo'linishi mumkin. Mustaqil huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni asosan o'zining kuchi, imkoniyatlari darajasida tartibga soladi. Masalan, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi va boshqalar.

Keng qamrovli (kompleks) ahamiyatga ega bo'lgan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqa huquq sohaslarining huquqiy qoida-talablari va tamoyillardan foydalanadi.

Ekologiya huquqi ham tabiat-jamiyat tizimidagi global ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda birinchi navbatda ekologik umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyil, usul va qoida-talablardan foydalanadi, ikkinchidan, ushbu murakkab ekologik muammolarni hal qilish, ularning huquqiy tartibotini ta'minlashda o'zaro bog'liq bo'lgan huquqning boshqa sohaslarining kuch va imkoniyatlaridan foydalanadi. Chunki, ekologiya

huquqi hal qilishga qaratilgan ekologik muammo va vazifalarning ko'lamligi, murakkab va ahamiyatliligi sababli faqatgina jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy jabhalarida mavjud bo'lgan barcha vosita chora-tadbirlarni safarbar qilish orqali ekologik munosabatlarni tartibga solishi mumkin.

Shuning uchun ham ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik tamoyil, qoida va talablar bilan bir qatorda boshqa huquq sohalari ya'ni ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, mehnat va xo'jalik-huquqiy vosita va qoida-talablaridan foydalanadi.

Demak, ekologiya huquqi - tabiat va jamiyat tizimida paydo bo'ladigan ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng qamrovli va ko'p tarmoqli huquq sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, har bir fan yoki huquq sohasi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rnini va tartibga solinayotgan munosabatlarning ko'lamiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi.

Shu jumladan ekologiya huquqi ham birinchi navbatda huquq tizimining alohida sohasi sifatida boshqa huquq sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, huquqning umum e'tirof etilgan tamoyil, shakl va qoidalardan foydalanib, rivojlanib bormoqda.

Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlar tabiat qonuniyatlari, tabiiy resurslar, ekologik tizim va komponentlarga ta'sir etish, ya'ni holatining yomonlashishi, miqdorining kamayishi, muvozanatning buzilishi, turlarning yo'qolib ketishi va hokazolar kabi jarayonlarda paydo bo'ladi. Hammamizga ma'lumki, inson tabiat mahsuli, uning bir qismi, tabiat qonuniyatlari doirasida shakllangan, rivojlanayapti va taraqqiy etib boradi. Bir so'z bilan aytganda "Tabiat-jamiyat" tizimida tabiat beqiyos darajada ustun huquqqa, ko'lamga va salohiyatga egadir. Shuning uchun ham jamiyat o'z taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, albatta tabiatning muqaddas, ustuvor qonuniyatlarini anglashi, e'tirof etishi, o'z hatti-harakatlarini moslashtirishi va eng muhimi o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq harakat

yo`nalishlari tabiatning holatiga bog`lab rivojlantirishi lozim bo`ladi. Ko`rib turibmizki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda tabiiy qonuniyatlarning ustuvorligi o`z navbatida ekologiya huquqining boshqa huquq sohalaridan farq qiluvchi, ajralib turuvchi xususiyatlari mavjudligini taqozo etadi. Ushbu xususiyatlar birinchidan, ekologik munosabatlarni tartibga solishda tabiat qonuniyatlarini ustunligini ta'minlash; ikkinchidan, jamiyat hayotida shakllangan ekologik umummajburiy tamoyil, qoida-talablarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo`llash; uchinchidan, ekologik munosabatlarni tartibga solish mexanizmida konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, jinoiy, fuqarolik, xo`jalik-huquqiy chora-tadbirlaridan foydalanish va to`rtinchidan, ekologik muammolarni hal qilishda jamiyat hayotida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarini chora-tadbirlarini keng safarbar qilish bilan belgilanadi.

Ekologiya huquqi murakkab ta'limot tizimiga ega bo`lib, tabiat qonuniyatlari va jamiyat qonunlarining o`zaro moslashishi, muvofiqlashishi natijasida shakllanadi, rivojlanyapti va taraqqiy etadi. Shuning uchun ham tabiatda bo`ladigan o`zgarishlar, voqea-xodisalar bilan bog`liq nazariy ta'limot va bilimlar o`z navbatida jamiyatning tabiat sir-asrorlari, ilmini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Chunki, tabiiy bilimlarni o`rganish o`z navbatida jamiyatning tabiat bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarni uyg`unlashtiradi, har bir davlat ekologik siyosatini yo`nalishlarini oqilona belgilashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tabiat qonunlarini o`rganish tabiiy resurslarning rivojlanishi, o`zaro bog`liqligini darajasi ekologik tizimdagi muayyan tabiiy resurs, tur va komponentlar sifat va miqdoriy o`zgarishlari, ularga bo`ladigan ta'sir doiralarini aniqlash yoki bir so`z bilan aytganda tabiat ilmini o`rganishda tabiiy fanlar tizimida o`z yo`nalishi, xususiyatlariga ega bo`lgan ekologiya fani tobora rivojlanib bormoqda.

Biz ekologiya huquqi fanini chuqurroq o`rganmoqchi bo`lsak, avvalambor "Ekologiya fani" haqidagi umumiy tushuncha va yo`nalishlarini yetarli anglashimiz kerak bo`ladi.

Ekologiya – murakkab tizimga ega boʻlgan, tirik organizmlarning yashash sharoiti va shu organizmlarning oʻzlari yashab turgan muhit bilan oʻzaro murakkab munosabatlarini oʻrganuvchi fandir.

1866 yilda nemis biologi oʻz ilmiy asarida birinchi boʻlib “Ekologiya” atamasini fanga kiritib, uning ma'nosini tirik organizmlarning oʻzaro va ularning yashash muhiti bilan bogʻliqligini oʻrganuvchi ta'limot sifatida ifodalaydi.

Ekologiya atamasi yunoncha “oikos” – turar joy, yashash muhiti, uy, - “logos” – ta'limot, degan ma'noni bildiradi. Bir soʻz bilan aytganda, ekologiya biz yashab turgan muhit, uy, vatanimiz haqidagi fandir.

Ilm, fan-texnikaning rivojlanishi tabiat haqidagi bilimlarning kengayishi va oʻz navbatida tabiat-jamiyat tizimidagi oʻzaro ta'sirlarning keskinlashishi ekologiya fanining biologiya fanining kichik bir qismidan ajralib, alohida fan sifatida rivojlanishiga olib keldi. Ekologiya – tabiat fanlarining barcha soha va tarmoqlariga kirib borib, jamiyat hayotining muhim jabhalari hisoblangan iqtisodiyot, siyosat, ma'naviyat-madaniyat, ijtimoiy majmualarni qamrab oldi. Tabiat va jamiyat hayotining barcha soha va yoʻnalishlarini qamrab olgan ushbu jarayon, ya'ni “Ekologiyalizatsiyalashtirish” asosida bugungi kunda murakkab tizimga ega boʻlgan, global ahamiyatdagi ekologiya fani shakllandi. Ekologiya fani hozirgi kunda 70 ga yaqin “Tabiat-jamiyat tizimida” gi ta'limot va gʻoyalar majmuasini oʻz ichiga oladi, ya'ni, odam ekologiyasi, iqtisodiyot ekologiyasi, muhandislik ekologiyasi, agro ekologiya, kimyoviy ekologiya, huquqiy ekologiya va boshqalar. Demak, ekologiya huquqi fani global ahamiyatdagi ekologiya fanining tarkibiy qismlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi fanini oldida “Tabiat-jamiyat tizimi” da turli shakl va yoʻnalishlarda paydo boʻladigan oʻzaro ta'sirlarni barqarorlashtirish, harakat yoʻnalishlarini aniqlash, jamiyat a'zolarining tabiatdan foydalanish bilan bogʻliq ehtiyojlarini qondirish me'yorlarini oʻrnatish, tabiat qonunlari darajasida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablarini belgilash kabi ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

2. Ekologiya huquqi fanining rivojlanish tarixi

Hamamizga ma'lumki, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuzatish, tadqiq etish uzoq tarixiy jarayonga egadir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ekologiya atamasi 1866 yilda fanga kirib keldi va ekologiya fani biologiya fani tarkibidan ajralib chiqdi va o'z yo'nalishlari bo'yicha rivojlanib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonning tabiat ilmiga bo'lgan qiziqishi, tabiiy resurslarning holatini kuzatish, o'rganish, tabiat boyliklarini asrab-avaylash, muhofaza qilish bilan bog'liq ta'limotlarni jamiyat rivojlanish tarixining barcha bosqichlarida kuzatishimiz mumkin.

Insonning tabiat bilan bog'liqligi nafaqat maxsus tadqiqotlarda balki jamiyat a'zolarining turmush tarzi, diniy va ijtimoiy urf-odatlarini bilan bog'lanib ketganligini kuzatishimiz mumkin.

Jamiyatning tabiatga bo'ladigan o'zaro ta'sir doirasi va darajasini inson ongi, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari takomillashuvi bilan bog'lab kuzatishimiz mumkin.

Yangi mehnat qurollari, fan-texnika kashfiyotlari o'z navbatida tabiiy resurslardan ko'proq foydalanish, turli ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydi va o'z navbatida tabiiy resurslar holatiga bo'ladigan salbiy ta'sirlar darajasini oshirib bordi. Tabiatga bo'ladigan zararli va xavfli ta'sirlarni kamaytirish, ularning oldini olish, tabiat boyliklarining holatini yaxshilash bilan bog'liq izlanish, tadqiqot, ta'limotlar rivojlanib boraveradi. Ushbu jarayon o'z navbatida tabiat-jamiyat tizimidagi munosabatlarni takomillashtiradi, ekologik bilimlarning rivojlanishiga olib keladi.

Tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish, ularning holatini tadqiq etishda xorijiy olimlar qatorida bizning yurtimiz olim va allomalari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurazzoq Samarkandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Balxiy, Maxsud ibn Vali va boshqalar ulkan hissa qo'shganlar.

Shuni ta'kidlashni istardikki, XIX asrgacha tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashmagan, salbiy ta'sirlar doirasi kengaymaganligi, bir so'z

bilan aytganda tabiiy-ijtimoiy zaruriyatning mavjud emasligi tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq ta'limotlar alohida, maxsus olib borilmagan. XIX asrdan boshlab ilm-fanda yangi kashfiyotlar, yangi mehnat qurollari, texnika vositalari paydo bo`lishi tabiat-jamiyat o`rtasidagi munosabatlar tizimiga keskin burilish yasadi. Tabiatga bo`lgan jamiyatning ta'sirlari, ya'ni antropogen ta'sirlar ortib boraverdi. Bu esa o`z navbatida ekologiya fanining rivojlanishiga olib keldi.

Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o`rtasida o`zaro ta'sirlar natijasida paydo bo`ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni o`rganuvchi fan va huquq tizimining alohida sohasi sifatida o`z rivojlanish tarixiga egadir.

Biz tabiat-jamiyat tizimidagi qadimiy-tarixiy jarayonni o`rganishni oson bo`lishi maqsadida shartli ravishda uch bosqichga bo`lamiz:

1. Sotsialistik tuzumgacha bo`lgan boy tarixiy davr (1017-1924 yillargacha bo`lgan bosqich);
2. Sotsialistik tuzum (1924-1990 yilgacha);
3. Mustaqillik davri (1991 yildan hozirgacha).

Birinchi-boy tarixiy bosqich eramizdan avvalgi ming yilliklardan XX asrning 20 yillarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga olib, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish qoida-talablarining turli-tumanligi, o`ziga xos xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin.

Jamiyatning tabiat bilan bog`liq munosabatini tartibga solish odamlar qabila-qabila bo`lib birlashib, o`z hududlarida yer, o`rmon, hayvonot dunyosi va resurslaridan foydalanish qoida-talablari joriy qilinib kelingan.

Inson ongining rivojlanishi yangi mehnat qurollarining vujudga kelishi natijasida tabiat boyliklaridan foydalanish miqdori va o`z navbatida ta'sir ko`rsatish darajasi ortib bordi.

Yurtimizda davlatchilik shakllana boshlashi, rivojlanishi bilan jamiyatdagi huquqiy munosabatlar takomillasha bordi. Ushbu huquqiy munosabatlar tizimida yer, suv, o`rmon va hayvonot dunyosidan foydalanishning qoida-talablari ham takomillashib bordi. Tarixiy merosimiz xisoblangan “Avesto” va boshqa diniy

urf-odatlarda ham tabiatdan foydalanish bilan bog`liq qoidalarni uchratishimiz mumkin. Albatta, ushbu qoidalar mahsus qoida sifatida shakllanmagan bo`lsada jamiyat a'zolarining tabiatga bo`lgan munosabatini tartibga solib turishga xizmat qilgan.

Tabiatdan foydalanish qoida-talablari jamiyat a'zolarining diniy qoida-talablari, urf-odatlariga aholining turmush tarziga aylana borib, insonning tabiatdan foydalanish, uni avaylab asrash bilan bog`liq majburiyatlari, javobgarlik choralari belgilanib boriladi.

Ayniqsa, eramizning o`rta asrlarida davlatchilikning rivojlanishi va taraqqiy etishida tabiiy resurslarning ahamiyati cheksiz hisoblanib, yer-suvdan foydalanish qoida-talablari rivojlana bordi. Ayniqsa, musulmon huquqining manbalari va boshqa tarixiy-huquqiy ahamiyatdagi merosimizda yer-suv, o`simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish talablari, ularni muhofaza qilish majburiyatlari, javobgarlik choralari kabi qoidalar belgilangan bo`lib, ushbu sohada munosabatlarni tartibga solishga katta ahamiyat birilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, XX asrning 20-yillarigacha bosib o`tilgan boy tarixiy evolyutsion jarayonda tabiatdan foydalanish, uni asrab-avaylash bilan bog`liq umummajburiy ahamiyatga ega bo`lgan qoida-talablar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, birinchidan, ushbu qoida-talablar alohida maxsus tizimga ega bo`lmay, mulk bilan bog`liq qoidalar tizimida rivojlangan, ikkinchidan, tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni asrab-avaylash qoida-talablari aholining madaniyati va turmush tarziga singib ketganligi o`z navbatida huquqiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

XX asrning 20 yillaridan boshlab, zaminimizda sotsialistik tuzumning o`rnatilishi, O`zbekiston SSR ning ittifoqdosh respublikalar tarkibida agrar davlat sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish yangi huquqiy qoida-talablarning joriy etilishi bilan bog`liqdir.

1917 yilda Yer haqida Dekretning imzolanishi mavjud tuzum uchun muhim ahamiyatga ega bo`lib, yerga nisbatan xususiy mulk shaklining bekor qilinishi, pomesniklar, yer egalarining yerlari milliylashtirilishi, ya'ni davlat tasarrufiga

o`tishi, yerlarni ishchi, dehqonlarga berilishi kabi tamoyillar belgilangan. Ushbu dekretga asoslanib, yer kodeksi, yer osti boyliklari haqida, o`rmon va suv resurslari va tabiiy obyektlardan foydalanish haqidagi nizomlar qabul qilindi.

1939 yilda O`zbekiston SSR ning yer-suv kodeksi qabul qilinishi yer va suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish munosabatlarini tartibga soluvchi birinchi kodifikatsiyalashgan hujjat hisoblanadi.

1941 yilda O`zbekiston SSR ning “Qishloq xo`jaligida suvdan foydalanish to`g`risida” gi qonunning qabul qilinishi esa o`z navbatida qishloq xo`jaligida yer va suvdan foydalanish va ularni muhofaza qilishning rivojlanishini ko`rsatadi.

1957-1963 yillarda barcha ittifoqdosh respublikalarda, shu jumladan, O`zbekiston SSR da ham “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida” gi qonuni qabul qilinib, birinchidan, tabiatni muhofaza qilishning tamoyillari, asosiy qoida-talablari mustahkamlanadi, ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va o`rganishda alohida urg`u beriladi.

Xalq xo`jalik maqsadlarida tabiiy resurslardan keng foydalanish o`z navbatida tabiiy resurslar holatining yomonlashishiga, tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati paydo bo`la boshlaydi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, 1963 yilgacha yer, yer osti boyliklari, o`rmon, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy-nazariy asoslari "Yer huquqi" fani dasturida belgilangan edi, ya'ni bir so`z bilan aytganda, tabiatni muhofaza qilishning huquqiy holati “Yer huquqi” fani tizimida o`rganilib kelindi. Bu holat tabiatni huquqiy muhofaza qilish nazariy –amaliy jihatdan keng miqyosda o`rganishga imkon bermas edi.

1963 yildan Ittifoq miqyosida “Tabiatni huquqiy muhofaza qilish” o`quv dasturi tasdiqlanib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo`nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib beriladi.

Fan-texnikaning tobora rivojlanib borishi, xalq xo`jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligining o`sishi, qishloq xo`jaligida paxta “yakkaxokimligi” ning ilgari surilishi, mexanizatsiya va melioratsiya tizimlarining rivojlanishi o`z

navbatida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini talab qila boshladi.

1986 yilda “Yer huquqi” fani va “Tabiatni huquqiy muhofaza qilish” maxsus kursi o`rniga “Tabiiy resurslar huquqi va atrof-muhitni muhofaza qilish huquqi” o`quv dasturi tasdiqlanib, barcha “ittifoqdosh” respublikalarda shu jumladan, bizning respublikamiz oliy yuridik o`quv yurtlarida nazariy-huquqiy asoslari o`rganila boshlandi.

1986 yillarda “sovet” lar davlatining ko`plab mintaqalarida, ayniqsa O`zbekistonda 30-40 yil davomida olib borilgan noto`g`ri ekologik siyosat oqibatida ekologik muammo keskinlashib, Orol dengizi va orolbo`yi mintaqasida, Navoyi, Buxoro, Sariosiyo, Bekobod, Chirchik kabi viloyat va shaharlarda yerlarning sho`rlanish darajasi, suvlarning ifloslanishi, atmosfera havosi holatining yomonlashishi, aholining hayoti va sog`ligi darajasining pasayishi, turli kasalliklarning ko`payishi kabi salbiy holatlar paydo bo`lgan edi. Mana shunday sharoitda “Tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro munosabatlarni birinchi navbatda tabiatning ustuvorligini tan olish tamoyilining joriy etilishi asosida tabiiy resurslardan foydalanish huquqiy asoslarini o`rganishni taqozo etadi.

1987-1989 yillarda yurist-ekolog olimlar tomonidan “Ekologiya huquqi” o`quv dasturini joriy etish va ekologiyaning huquqiy asoslarini yaratish g`oyasi ilgari surilib keldi va ba'zi respublikalarda joriy etila boshladi.

O`zbekiston Respublikasida “Tabiat-jamiyat” tizimidagi o`zaro munosabatlarining ilmiy jihatdan asoslangan huquqiy asoslarini yaratish 1991 yilda respublikamiz mustaqilikka erishgandan so`ng amalga oshira boshlandi.

1991 yilda Toshkent Davlat yuridik institutining Ilmiy Kengashi qarori bilan “Ekologiya huquqi” fanining o`quv dasturi tasdiqlandi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Yer Kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”, “Davlat sanitariya nazorati to`g`risida”, “Suv va suvdan foydalanish to`g`risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida”, “Ekologiya ekspertizasi to`g`risida”,

“O`rmon to`g`risida”, “O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida”gi qonunlari va ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlari O`zbekiston Respublikasi “Ekologiya huquqi” fanining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

1999 yilda O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” asosida bakalavriat va magistratura tizimlari uchun “Ekologiya huquqi” o`quv Dasturi hamda ushbu dasturni yanada rivojlantirish maqsadida “Ekologik-huquqiy javobgarlik”, “Yer huquqi muammolari”, “O`rmon huquqi”, “Suv huquqi”, “Tog` huquqi” kabi maxsus o`quv kurslari dasturlari ishlanib chiqildi va tasdiqlandi.

Hozirgi kunda “Tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning ilmiy-amaliy asoslari “Ekologiya huquqi” fani asosida olib borilmoqda.

3. Ekologiya huquqining asosiy yo`nalishlari va predmeti

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro ta'sirlar natijasida turli ijtimoiy munosabatlar paydo bo`ladi. Ushbu sohada ijtimoiy munosabatlarni biz ijtimoiy-ekologik munosabatlar deb ataymiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-ekologik munosabatlar shakli, mazmuni jihatdan turli-tuman bo`lib, ushbu munosabatlarni tartibga solishda ham keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy-ekologik munosabatlarni yo`nalishlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda oqilona aniqlash o`z navbatida, ushbu munosabatlarni tartibga solish huquqiy mexanizmini ixchamlashtiradi va amalga oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar uchta quyidagi asosiy yo`nalishlarda paydo bo`ladi:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq ekologik - huquqiy munosabatlar;

2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog`liq ekologik-huquqiy munosabatlar;

3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik-huquqiy munosabatlar.

Ushbu ekologik-huquqiy munosabatlar yo`nalishlari o`z mazmun-mohiyatiga ko`ra bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, jamiyatning tabiat bilan o`zaro ta'sirlar tizimida tutgan o`rni muammolarni hal qilishda qo`llaniladigan chora-tadbirlari, uslublari va o`ziga xos xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish - yer, yer osti boyliklari, suv, o`rmon, hayvonot va o`simlik dunyosi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish, tabiiy hosilalar va ekologik komplekslarni saqlash, qayta tiklash, atrof muhitning biologik xilma-xilligini ta'minlash bilan bog`liq qoida-talab, chora-tadbirlarning yig`indisi hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrda tabiiy muhitni muhofaza qilish yo`nalishiga katta e'tibor berilib, har bir davlatda turli dastur, rejalar va qonunchilik hujjatlari qabul qilingandir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari, qoida-talablari muhofaza ahamiyatidagi ijtimoiy-ekologik munosabatlarini tartibga soladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish deganda, jamiyat a'zolarining o`z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatning foydali qismlarini o`zlashtirishi tushuniladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimi - jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer, yer osti boyliklari, suv resurslari, atmosfera havosi, o`simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishga qaratilgan ilmiy jihatdan asoslangan davlat dastur va rejalar, qonunchilik hujjatlari qoida-talablari asosida tartibga solinadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog`liq umummajburiy qonunchilik hujjatlari qoida-talablari foydalanish ahamiyatidagi, ijtimoiy - ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

Ekologik munosabatlar tizimida tabiiy resurslar, ya'ni yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish keng va muhim o`rinni egallaydi. Chunki, juda qadimdan inson tabiatdan foydalanib kelmoqda va tabiiy resurslardan foydalanishning miqdori, muddati va tartibi har bir davlatda qat'iy ravishda belgilanib, tobora rivojlanib bormoqda. Chunki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik oqibatida tabiatda turli ekologik muammolar paydo bo`lishi va ekologik inqirozning keskinlashishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, tabiiy resurslardan faqat ilmiy jihatdan asoslangan, ya'ni oqilona foydalanish chora-tadbirlar tizimi orqali amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash - antropogen ta'sirlar natijisida paydo bo`ladigan ekologiya vaziyati va ofati mintaqalarida barqaror tabiiy muhitni saqlash, aholining hayoti va sog`ligiga ta'sir ko`rsatuvchi ekologik xavfli va zararli ta'sirlarni oldini olish bilan bog`liq keng qamrovli chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ekologik xavfsizlik bilan bog`liq muammolar va ularni bartaraf etish bilan bog`liq chora-tadbirlar 1980-85 yillarda namoyon bo`lib, amalga oshirib kelinmoqda.

Ekologik xavfsizlik o`n yillar davomida respublikamiz hududida tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va tabiatni muhofaza qilish qoida-talablariga muntazam amal qilmaslik sharoitida xalq xo`jaligi sohalarida olib borilgan ishlab chiqarish jarayoni natijasida yuzaga keldi. Demak, yer, yer osti boyliklari, suv, o`rmon, hayvonot, o`simlik dunyosi va atmosfera havosini muhofaza qilish va foydalanish kabi davlat ekologik siyosatining ikki muhim yo`nalishlaridagi qoida-talablarini ta'minlamaslik o`z navbatida, tabiat-jamiyat tizimida yangi yo`nalishi hisoblangan aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog`liq huquqiy munosabatlarni paydo bo`lishga sabab bo`ladi.

Ekologik xavfsizlik - tabiat-jamiyat tizimining barqaror holati bo`lib, bunda atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslar holati, jamiyat hayoti va inson

sog`ligiga xavfli ta'silarni oldini olish va bartaraf etish tizimini ko`zda tutadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog`liq huquqiy munosabatlar tizimi - atrof tabiiy muhit barqarorligi, aholining sog`ligiga xavfli ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi quyidagi chora-tadbirlarni o`z ichiga oladi:

- ekologik xavfli hudud, ekologiya ofati mintaqalarini aniqlash; ekologiya ekspertizasini joriy etish; ekologik xavfli va zararli ishlab chiqarish obyektlarini pasportlashtirish; xavfli va zararli ishlab chiqarish turlari faoliyatiga ruxsatnomalar berish; tabiiy ofat, sel, toshqin va texnogen avariyalarni aniqlash, oldini olish; aholining ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish; aholining sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqalar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida tavsiflangan ekologik huquqiy munosabatlar davlat ekologik siyosatining asosiy yo`nalishlarni tashkil etadi.

Ekologiya huquqi bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan ekologik huquqiy munosabatlarning birligi va yaxlitligi asosida namoyon bo`ladi. Ma'lumki, har bir fan shu jumladan huquq sohasi o`ziga tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimini o`rganish va tartibga solish nazariy-amaliy qoida-talablar tizimiga ega bo`lib, ushbu fanning predmetini tashkil etadi. Ekologiya huquqi huquq tizimining alohida sohasi sifatida ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yo`nalishlarini o`rganish va tartibga solishni qamrab oluvchi o`z predmetiga egadir. Ekologiya huquqining predmeti - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash jarayonida paydo bo`ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishdan iboratdir.

4. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi

Har bir fan sohasi, shu jumladan ekologiya huquqi fani ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o`z yo`nalishlari, ya'ni tamoyillarga ega bo`lib, o`z navbatida har bir fan sohasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Ekologiya huquqining tamoyillari - tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro munosabatlar yo`nalishi, chegaralarini belgilab berishda ekologik-huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonunchilik qoida-talablarning ekologik munosabatlarini tartibga solish tartibini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Bizga ma'lumki, ekologiya huquqi tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Shu jumladan, tabiatning inkor etib bo`lmaydigan qonuniyatlari va ijtimoiy xatti-harakatlari tartibga soluvchi jamiyat-davlat qonunlari mavjud - ekologiya huquqi tamoyillarining asosiy vazifasi shundan iboratki, tabiiy qonuniyatlarning ustuvorligini tan olgan holda jamiyat a'zolarining tabiatga bo`lgan hatti-harakatlarini ilmiy asoslangan holda yo`naltirishdan iboratdir.

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar juda xilma-xil va murakkab bo`lganligi uchun ham ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bo`lishimiz mumkin.

1. Davlat va huquqning umumiy tamoyillari;
2. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillar;
3. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquqning quyidagi tamoyillaridan foydalanadi:

- Qonuniylik; Ijtimoiy adolat; Oshkoralik; Ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi;
- Shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.

Atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash va tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- Biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligi hozirgi va kelguchi avlodning genetik fondini saqlash;
- Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda tabiat qonuniyatlari ustuvorligini tan olish;
- Fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo`lish huquqini

ta'minlash;

- Jamiyatning ekologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;
- Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro uyg'unlashtirish;
- Tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlaridan ustuvorligini tan olish;
- Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirish;
- Tabiiy resurslar holatini tiklash majburiyligi;
- Ekologiya ekspertizasini o'tkazishning majburiyligi;
- Ekologik qonunchilik qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikning qo'llanilishi va boshqalar.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar quyidagi tamoyillar doirasida tartibga solinadi:

- Tabiiy resurslardan faqat ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanishning zarurligi;
- Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyatini rag'batlantirish;
- Yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosidan maxsus foydalanish uchun haq to'lash va umumiy asosda foydalanish uchun haq to'lamaslik;
- Yerlardan belgilangan toifalar doirasida maqsadli foydalanish;
- Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ustivorligi;
- Tabiiy resurslar kadastrini yuritish majburiyligi va boshqalar.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va ekologik funksiyasi ushbu tamoyillar asosida va doirasida amalga oshirilib, atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ekologiya huquqi o'z predmeti, yo'nalishlari, maqsad va vazifalariga ega bo'lgani kabi o'z usullariga ham ega, ushbu usullar tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar holatiga ta'sir etish orqali katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda ekologik munosabatlar qatnashayotgan jismoniy va yuridik shaxslar xatti-harakatlarini to'g'ri yo'nalshtirish uchun turli usullar qo'llanilib, ularning ko'lami ortib bormoqda.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimida quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1. Ekologizatsiyalashtirish**
- 2. Ma'muriy-huquqiy**
- 3. Fuqaroviy-huquqiy**

Ekologizatsiyalashtirish usuli bugungi kunda jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalariga tobora kirib borib, tabiat qonuniyatlarining ustivorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining ishlab chiqarish jarayoniga qo'llanilishi sog'lom ekologik muhitga erishish zaruriyatini oldimizga qo'ymoqda, ushbu usul orqali shaxs, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarining ekologik qoida-talablar asosida olib borishini taqozo etadi.

Ma'muriy-huquqiy usul - davlat va huquqning muhim usullaridan biri bo'lib, davlatning majburlov chora-tadbirlarining qo'llanilishda namoyon bo'ladi.

Ekologiya huquqida ma'muriy-huquqiy usul keng qo'llanilib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlovchi qoida-talablarning belgilanishi, barcha yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan qabul qilinishining majburiyligi, ekologik qoida-talablarni buzganlik uchun javobgarlik chora-tadbirlarining qo'llanilishida katta ahamiyatga egadir.

Fuqaroviy-huquqiy usul ekologiya huquqida tobora rivojlanib borayotgan usul sifatida bevosita ekologik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi, mulkning daxlsizligi, moddiy rag'batlantirish, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy

resurslardan foydalanishda iqtisodiy chora-tadbirlarning qo'llanilishda namoyon bo'ladi.

Ekologiya huquqi – tabiat-jamiyat tizimidagi murakkab munosabatlarni tartibga soladi, shuning uchun ham turli tushunchalar, institutlar, toifalar keng qo'llanib, ekologik-huquqiy qoida-talablarni qo'llanilishi va mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimini o'rganishni oson bo'lishi uchun o'ziga xos institut, toifa va nazariy qoidalar majmuini birlashtirgan holda ekologiya huquqi o'z tizimiga ega.

Ekologiya huquqining tizimi - ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va mazmuniga ko'ra asosiy institut, toifa va nazariy-huquqiy masalalarning ma'lum tartibda joylashishidir.

Biz murakkab ekologik huquqiy munosabatlar yo'nalishlarini tahlil qilish va o'rganishni yengillashtirish maqsadida ekologiya huquqi tizimini ikki qismi, ya'ni umumiy va maxsus qismga bo'lib o'rganamiz.

Ekologiya huquqining umumiy qismi

- tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi;
- ekologiya huquqining tushunchasi, predmeti va tizimi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi;
- ekologiya sohasida davlat boshqaruvi;
- ekologiya nazorati va ekologiya ekspertizasining huquqiy holati;
- ekologiya qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kabi mavzularni o'z ichiga olib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari, huquqiy asoslari, ekologik-huquqiy mexanizmi va uning elementlarining umumiy ekologik-huquqiy qoidalarni belgilaydi.

Maxsus qismi esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq quyidagi:

- yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;
- suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;
- yer osti boyliklarining huquqiy holati;

- o`simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy holati;
- hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy holati;
- atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy holati;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati;
- xalq xo`jaligi sohalari va aholi punktlarida atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish;
- atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish kabi har bir tabiat obyektining huquqiy holatini qamrab oluvchi maxsus ahamiyatdagi ekologik-huquqiy qoidalarni o`z ichiga oladi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Ekologiya huquqining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Ekologiya huquqi manbalarini ko'rsatib o'ting?
3. Ekologiya huquqining boshqa huquq sohalaridan farqi nimada?
4. Ekologik-huquqiy javobgarlik nima degani?

7- Mavzu: JINOYAT HUQUQI ASOSLARI

Reja:

1. Jinoyat huquqi tushunchasi, vazifasi usullari va prinsiplari.
2. Jinoyatlarni tasniflash. Jinoiy huquqbuzarlik va jinoiy jazo.
3. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchsi, uning turlari va shakllari
4. Qilmishning jinoyiligini istisno qiladigan holatlar.

Tayanch iboralar: jinoyat huquqi tushunchasi ,vazifasi usullari va prinsiplari: jinoyatlarni tasniflash: jinoiy huquqbuzarlik va jinoiy jazo: jinoyatda ishtirokchilik tushunchsi, uning turlari va shakllari: qilmishning jinoyiligini istisno qiladigan holatlar:

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
7. 4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
9. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
- 10.Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

12.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

5. O'zbekiston Respublikasi qonuni 02.09.1993 y. Sudlar to'g'risida (yangi tahriri) yangi

tahriri . 14.12.2000 y. 162-ii-son qonuni bilan tasdiqlangan

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 14.08.2000 y. pf-2682 O'zbekiston

Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida

7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat -T.:Adolat .2007.

1. Jinoyat huquqi tushunchasi, vazifasi usullari va prinsiplari.

Jinoyat huquqi davlat tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarning jinoyat ekanligi va jazo sazovorligini, jazo choralari tayinlash shartlari va tartibini hamda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilovchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

Jinoyat huquqiy normalar o'z mazmuniga ko'ra ikkita guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga jinoyat huquqining jinoyat va jazoga tegishli umumiy qoidalari, prinsiplari va institutlari kiradi. (Umumiy qism). Ikkinchi guruhga alohida jinoyatlar va bu jinoyatlarning belgilarini, jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo choralari belgilovchi normalar kiradi. (maxsus qism).

Vazifalari: O'zbekiston Respublikasi JKning 2- moddasida belgilanishiga

ko'ra jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfyaizligini jinoyiy tajovuzlardan qo'riqlash, shunengdek jinoyatlarni oldini olish, fuqarolarni respublika konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Jinoyat huquqining vazifasini keng ma'noda olganda jinoyat huquqiy vositalari orqali jinoyatchilikka qarshi kurashdir.

Jinoyat huquqiy tarbiyalash vazifasini ham bajaradi..Yangi jinoyat qonuning mavjudligi,uning amalda qo'llanilishi fuqarolarda qonunlarni hurmat qilish, o'z shaxsi, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilinganligiga hamda jinoyat sodir qilgan shaxsning muqarrar ravishda jazolanishiga ishonch ruhida tarbiyalashdan ham iboratdir..

Jinoyat huquqi jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradigan, fuqarolarni rag'barlantirish va ularga imtiyozlar berish funksiyasini ham bajaradi..M javobgarlikdan ozod qilish.

Prinsiplari: JKning 3-moddasida qonuniylik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, demokratizm, insonporvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari nazarda tutiladi.

2. Jinoyatlarni tasniflash. Jinoyiy huquqbuzarlik va jinoyiy jazo.

JKning 14-moddasida jinoyatning tushunchasi qo'yidagicha ifodalangan. „Ushbu kodeks bilan taqiqlangan, ayibli ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi”.

Jinoyatning belgilari:

1. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi:
2. Ayibning mavjudligi. Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilishi mumkin.

Qasddan sodir etilgan jinoyat

Jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblangan bo'lib, uni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik

xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

JKodeks moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan vaqt deb topilgan qilmishlar to'g'ri yoki egri qasddan sodir etilgan bo'lishi mumkin. Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deb topiladi. Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat

O'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat deb topiladi. Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi. Agar jinoyat sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi.

Murakkab aybli jinoyat

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Aybsiz holda zarar yetkazish

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga

ko'zi yetmagan va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan bo'lsa, bunday qilmish aybsiz holda sodir etilgan deb topiladi.

3. Qilmishning huquqqa xilofligi:
4. Qilmishning jazoga sazovorligi.
- 5.

Jinoyatlarni tasniflash

Jinoyatlarni u yoki bu belgilariga qarab turkumlarga ajratish jinoyatlarni tasniflash deb aytiladi. Jinoyat huquqida jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

- A) Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar:
- B) Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar:
- V) Og'ir jinoyatlar:
- G) O'ta og'ir jinoyatlar.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qonunda ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan yengilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. M qasddan badanga yengil shikast yetkazish. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib qonunda 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasda jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shunengdek ehtiyojsizlik orqasidan sodir etilib, qonunda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. M: jarima, axloq tuzatish ishlari..

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda og'ir jazo sifatida 5 yildan ortiq, lekin 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda 10 yildan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umurbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlarni obyektiga qarab tasniflash masalasi JKning maxsus qismidagi jinoyatlarni maxsus obyektiga qarab gruhlarga ajratish va maxsus obyektning ahamiyatiga qarab JKda joylashtirishdir. O'zbekiston Respublikasi JKning

maxsus qismining 1- bo'limida shaxsga qarshi jinoyatlar, 2-bo'limida tinchlik va xavsizlikka, qarshi jinoyatlar 3-bo'limida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, 4-bo'limida ekologiya sohasidagi jinoyatlar va h..k..joylashtirilgan.

Jinoiy jazo JKning 42-moddasida jazoga qo'yidagicha tushuncha berilgan: „Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazoning maqsadi Jkning 42-moddasi 2-qismida qayd qilingan „Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom etirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shunengdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi:

Jazo tizimi-jinoyat qonuni bilan o'rnatilgan va sudlar uchun majburiy hisoblangan va ma'lum tartib asosida ularning yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan jazolar ro'yxatidir. Jazo tizishda nazarda tutilgan maxkumlarning huquqlarini cheklash, moddiy va ma'naviy jazo keltirishi va ijro etish usuliga qarab shartli ravishda qo'yidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mahkumlarga nisbatan moddiy jazo keltiruvchi jazolar bularga jarima, axloq tuzatish ishlari, mol-mulklarni musodara qilish.
2. Mahkumlarga ma'naviy jazo yetkazuvchi jazolarga : Xizmat bo'yicha cheklash, xarbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilishi.
3. Mahkumlarning ayrim huquqlarini cheklovchi jazolarga muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi kiradi. M: Faoliyatini to'xtatish vrachlik faoliyati.
4. Mahkumlarning ozodligi cheklovchi jazolarga qamoq, intizomiy qisimga jo'natish ozodlikdan mahrum qilish .

3. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi.

JKning 27-moddasiga ko'ra „ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

Turlari:

1. Bajaruvchi

2. Tashkilotchi
3. Dalolatchi
4. Yordamchi

Jinoyatni bevosta to'la yoki qisman sodir etgan yoxud jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etishga qiziqturuvchi shaxs dalolatchi.

Jinoyat sodir etishga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shunengdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shunengdek bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi.

Ishtirokchilikning shakllari

Jinoyatda ishtirokchilik: oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma shaklida bo'ladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi. Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.

Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar. Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a'zolari tayyorgarlik ko'rilishi yoki sodir etilishida o'zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar. Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo'ladi. Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi.

Jinoyatga daxldorlik

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, J.Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi. Jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlik J.Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi. Oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi.

Retsidiv jinoyat

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi. Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi.

Besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldinkeyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsividiv jinoyat deb topiladi.

Sudning hukmi bilan shaxs o'ta xavfli retsividivist deb topilishi mumkin.

Shaxsni o'ta xavfli retsividivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning boshqa davlatlar sudlarining hukmlari bo'yicha sudlanganligi ham hisobga olinishi mumkin. Shaxsni o'ta xavfli retsividivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o'tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi.

Jinoyat Kodeks Maxsus qismining o'ta xavfli retsividivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi moddalari shaxs ushbu jinoyatni sodir etgunga qadar qonunda belgilangan tartibda o'ta xavfli retsividivist deb topilgan bo'lsagina qo'llaniladi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Jinoyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jinoyat tasnifini tushuntirib bering?
3. Jinoyat tarkibi nimalardan iborat?
4. Jazoning qanday turlari mavjud?

8-Mavzu: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI O'RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

- 1. Prezidentning 2001 yil 4 yanvardagi farmoyishi va uning ahamiyati.**
- 2. O'quv kursining tushunchasi, maqsadi, vazifalari.**
- 3. Huquq sohalarini o'rganuvchi boshqa fanlardan o'quv kursining farqi.**

Tayanch iboralar: 2001 yil 4 yanvardagi farmoyish; konstitutsiya tushunchasi; konstitutsiyani o'rganishning maqsad va vazifalari; huquqiy ong; boshqa huquq sohalari bilan o'zaro aloqadorligi; konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

- 13.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
- 14.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: 15.O'zbekiston,1996-249-b
- 16.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2009.
- 17.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
- 18.Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
- 19.Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
- 20.Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim

ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

21.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

22.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

1. PREZIDENTNING 2001 YIL 4 YANVARDAGI FARMOYISHI VA UNING AHAMIYATI.

2001 yil 4 yanvarda hayotimizning asosiy qonuni bo'lmish O'zbekiston konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirishi, shunengdek, konstitutsiyani bilish , uning mazmun-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganishni tashkil yetish to'g'risida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi e'lon qilindi.

Darhaqiqat, ko'p narsa mamlakatimizda konstitutsiyani ommaviy ravishda o'rganishga bog'liq.. Shuning uchun O'zbekiston konstitutsiyasini o'rganishni tashkil qilish bo'yicha Prezident farmoyishi qabul qilindi va unda qo'yidagi vazifalar belgilab qo'yildi:

(1)«O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganishi» maxsus o'quv kurslarini barcha ta'lim turlari uchun ishlab chiqishi.

(2)Barcha ta'lim turlari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning huquqiy ong va madaniyatini shakillantirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganishga oid darsliklar va maxsus adabiyotlarni tayyorlash va nashr yetish.

(3)O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kurslari bo'yicha maktabgacha ta'lim turidagi tarbiyachi va metodistlar, umumiy urta ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar, o'rta, maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim turlarida

dars beruvchi professor-o'qituvchilarni tayyorlash:

(4) 2001-2002 o'quv yilidan boshlab maktabgacha va umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- hunar va oliy ta'lim muassasalarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» kurslarini o'qitishga kiritish:

(5) Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakilllashtirish maqsadida aholi o'rtasida konstitutsiyaning o'rni va ahamiyatini targ'ib va tashviq etish bo'yicha ishlarni faol amalga oshirish:

(6) Matbuot, televideniya, radio hamda tasviriy san'at vositalari orqali konstitutsiyaviy ma'rifiy targ'ibot ishlarini keng yo'lga qo'yish.

Konstitutsiyaning ustunligi jamiyatdagi huquqiy ong bilan ishonchli mustahkamlanadi. Bu – muayyan vaziyatda foydali yoki foydai yemasligidan qat'iy nazar, konstitutsiyaning normalarini tushunish va ularga amal qilishdir. Yetarlicha umumiy va huquqiy madaniyatga yega bo'lgan odam konstitutsiya uning hotirjamligini himoya qilishni tushunadi, u qonun yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan chegaralarni biladi.

O'zining huquqlarini bilmaydigan fuqaro byurokratlar oldida va kundalik hayotda yuzaga keladigan iqtisodiy-maishiy vaziyatlarda kupincha ojiz bo'lib qoladi.

Konstitutsiyaviy- huquqiy madaniyatni shakillantirishi inson huquqlaridan ajralmasdir, shuning uchun konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquqlar, yerkinliklar va majburiyatlarni tushuntirishga juda katta e'tibor berishi lozim. Hatto eng yaxshi qonun ham o'z-o'ziga qonuniylikning dastlabki shart-sharoiti, xolos. Konstitutsiyaning normalarini nima harakatga keltiradi? Qonunga itoatkorlik. U, avvalombor, mansabdor shaxslarning ham, fuqarolarning ham konstitutsiyani bilishlarini nazarda tutadi. Aynan shu tub axloqiy va amaliy va amaliy sabab tufayli I.A.Karimov tomonidan hammaning – Prezidentning ham, fuqaroning ham qonunga itoatkorligi ta'kidlab o'tildi. (Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston, 1996-249-b)

Davlat tuzilmalari va mansabdor shaxslardan tortib hammaning

konstitutsiyaga amal qilishi fuqarolarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalaydi, hech narsa oddiy odamlarga nisbatan adolatsizlik kabi qonun va davlatning obro'sini tushirmaydi, degan yedi Sohibqiron Amir Temur.

II. O'QUV KURSINING TUSHUNCHASI, MAQSADI, VAZIFALARI.

O'zbekiston konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi bevosita Konstitutsiyaviy huquq fanini shakilantiradi. Uning asosiy vazifasi bevosita Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquq munosabatlarini o'rganshdan iborat. Konstitutsiyaviy huquq Fani huquqning shu tarmog'iga xos rivojlanish qonuniyatlarini, uning xususiyatlari, belgilari normalari va institutlarni, ularning amal qilish mexanizmi, huquqning boshqa tarmoqlaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini o'rganadi.

Fanning vazifalariga, shunengdek konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai konstitutsiyani, konstitutsiya to'g'risidagi ta'limotlarni, O'zbekistonda konstitutsiyaviy rivojlanishning asosiy bosqichlarini, ularning asosiy mazmuni va xususiyatlarini o'rganish kiradi.

Har bir Fan o'zining tizimiga yega bo'lib, o'zi o'rganadigan predmetning mazmuni va uning tizimi tartibini qamrab oladi. Konstitutsiyaviy huquq fanining tizimi, asosan qo'yidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

(1) Fanning umumiy masalalari. Ularga huquq tarmog'i sifatida konstitutsiyaviy huquqning tushunchasi, predmeti, bu huquqiy tarmoq normalarining mohiyati va xususiyatlari: Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar va ularning turlari: konstitutsiyaviy huquqning respublikamiz huquqiy tizimidagi o'rni kabi masalalar kiradi.

(2) O'zbekiston respublikasida konstitutsiyaviy rivojlanishning asosiy bosqichlari. Bu bo'lim konstitutsiyaviy huquqning bosh manbai va davlatning asosiy qonuni bo'lgan O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va xususiyatlarini, konstitutsiyaviy huquq normalarini amalga oshirish mexanizmi va shakllarini, O'zbekistonda konstitutsiyaviy rivojlanishning asosiy

bosqichlarini o'z ichiga oladi.

(3) O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsplari bo'limida respublikamizning davlat mustaqilligi, halq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsplari, O'zbekiston tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari o'rganiladi.

(4) Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, yerkinliklari va burchlari. Bu bo'limda shaxs huquqiy holatining asoslari, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, yerkinliklari va burchlari, ularni amalga oshirish kafolatlari o'rganiladi.

(5) Jamiyat va shaxs munosabatlarining asoslari. Bu bo'limda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumning iqtisodiy negizlari, jamiyatdagi mulkiy munosabatlar, fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari jamoat birlashmalari, oilaning jamiyatdagi roli, ommaviy axborot vositalarining jamiyat siyosiy tizimida tutgan o'rnini o'rganiladi.

(6) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy – hududiy va davlat tuzilishi. Bu bo'limda O'zbekistonning milliy davlat tuzilishi, ma'muriy – hududiy bo'linishi, Qoraqalpog'iston respublikasining konstitutsiyaviy maqomi o'rganiladi.

(7) O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining tizimi. Bu bo'limda davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi, davlat hokimiyati organlarining tizimi va turlari, ular faoliyatini tashkil yetish prinsiplari va shakllari: O'zbekiston respublikasining Oliy Majlisi, uning vakolati va faoliyatining shakllari: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy ma'muriy vakolatlari, davlat va xo'jalikni boshqarish organlari, mahalliy hokimiyat organlarining tizimi, sud hokimiyati va prokuratura organlari tizimi o'rganiladi.

III. HUQUQ SOHALARINI O'RGANUVCHI BOSHQA FANLARDAN O'QUV KURSINING FARQI.

Huquq tizimi ma'lum tarmoqlarga bo'linadi. Huquqning ushbu tarmoqlari bir-biridan xuquqiy tartibga solish predmeti va metodi bilan farqlanadi. Konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining predmeti-O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyaviy asosiy prinsiplari , inson va fuqarolarning asosiy huquqlari yerkinliklari va burchlarini, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi aloqalarni ,davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'laklarni tashkil qilishni, ularning huquqiy holatini, davlat hokimiyati organlarining tizimi,vakolati va ish faoliyati belgilovchi huquqiy normalar hamda ularning ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishdan kelib chiqqan huquqiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Shuni takidlash kerakki, konstitutsiyaviy huquq predmetiga konstitutsiyaviy huquq normalarigina yemas,balki shu huquqiy normalarning amalga oshirilishi,ya'ni ularning muayyan ijtimoiy munosabatni tartibga solishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar ham kiradi.

Konstitutsiyaviy huquq predmetini ta'riflashda yuridik adabiyotda boshqa fikrlar ham bo'lgan.M: Leningrad Unevirsitetining yurist olimlari konstitutsiyaviy huquq predmetiga «Davlatning amaldagi konstitutsiyasi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning yig'indisi»ni kiritadilar (Konstitutionnoye pravo Pod.red.S I.Rusenova L.:1975 g)

Konstitutsiyaviy huquq predmetiga amaldagi konstitutsiya normalari va bu normalvrning amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan ,hokimyatni amalga oshirishga qaratilgan huquqiy munosabatlar kiradi, deydilar boshqa gruh olimlar. Ularning fikricha, konstitutsiyaviy huquq predmetiga « sinflar, milatlar, halq va davlatning hokimiyat, mustaqillik va shaxsning yerkinligi yuzasidan kelib chiqadigan o'zaro amaldagi huquqiy konstitutsiyaviy munosabatlari kiradi.(Gosudarstvennoye pravo- sarotov.1979 38- b: Farber I.YE.Rjevskiy V.A.Teoriya konstitutionnogo pravo- sarotov.1967-5-6).

Shuning uchun ikkala qarash vakillari davlat huquqini «konstitutsiyaviy huquq» deb nomlashni taklif qilgan yedilar.

Konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq tarmoqlaridan o'zining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish uslubi bilan ham farq qiladi .Huquqning bu tarmog'ida halq hokimiyatini amalga oshirishning bir qancha uslublari,xususan huquq normalarini yaratishi huquq subektlariga ba'zi bir harakatlarni qilishga ruxsat berishi yoki mann yetish,ba'zi bir harakatlarning oldini olish kabi uslublar

ishlatiladi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari davlat organlari tizimini, ularning tuzilishini, vakolatlarini, faoliyat ko'rsatish shakillarini belgilaydi. Ular ma'muriy huquq, jiroyat huquqi, jiroyat-prosessual huquqi, fuqarolik huquqi va boshqa huquq tarmoqlari uchu nasos sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimiga kiruvchi qaysi bir huquq tarmog'ini olmaylik, ular konstitutsiyaviy huquq tarmog'i o'rnatadigan umumiy prinsiplardan kelib chiqadi. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy huquq tarmog'i huquqiy tizimiga kiruvchi yetakchi huquq tarmog'i hisoblanadi. (Osnovin V.S. Mesto i rol' gosudarstvennogo pravo v sistema prava // Pravovedeniye 1972. № 5 -5-14- b.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari tushunchasi va tizimi

(1) Konstitutsiya- davlatning barcha huquqiy normalari konstitutsiya asosida yaratiladi. Konstitutsiya yuridik kuch bo'yicha davlatning hamma huquqiy normalaridan yuqori turadi. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy normalar davlat va jamiyatning bosh mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi va butun respublika huquqiy tizimining negizi va manbayi bo'lib hisoblanadi.

(2) Qonunlar. a) konstitutsiyaviy qonunlar. b) joriy qonunlar.

(3). konstitutsiyaviy huquq manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va senatlarning ish tartibi haqidagi qonunlar (reglament) hisoblanadi. Mazkur aktlar kodifikatsiya tartibida tuzilgan bo'lib qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat tartibida tuzilgan bo'lib qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat organlarining faoliyatini tartibga solib turadi. Unda Oliy Majlis kengashi, oliy majlis raisi, qo'mita va komissiyaning huquq va burchlari, qonunlarni tayyorlash va qabul qilish shakllari, tartiblari hamda ma'ruzachilar va notiqar chiqishlarining muddati kabi masalalar qonuniy tartibda belgilab qo'yildi.

(4) Oliy vakolatli organlar tomonidan qabul qilinadigan nizomlar ham konstitutsiyaviy huquqning manbai bo'lib hisoblanadi. M: 1995y 5 mayda qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasi oliy majlisi qo'mita va komissiyalari to'g'risidagi nizom” shular jumlasidandir.

(5) Oliy majlis va senat qarorlari ham konstitutsiyaviy huquq manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

(6) Prezident farmonlari.

(7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan, tartibda konstitutsiyaviy – huquqiy normalar bo'lgan qarorlar ham konstitutsiyaviy huquq manbai bo'lib hisoblanadi.

(8) Mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham konstitutsiyaviy huquqning manbai bo'lishi mumkin. Bunday qarorlarga halq deputatlarining kengashlari tomonidan tasdiqlangan, kengashlarning qo'mita va komissiyalari, deputatlar guruhlariga to'g'risidagi nizomlar, ularning ish tartibini tasdiqlovchi qarorlar misol bo'ladi.

(9) O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan halqaro bitim va shartnomalari ham konstitutsiyaviy huquqning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonning 1992 yilgi konstitutsiyasining yaratilishi.

A) O'zbekistonning mustaqillikacha bo'lgan konstitutsiyaviy rivojlanish bosqichlari.

B) O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilinishi.

V) 1992 yilgi O'zbekiston konstitutsiyasi loyihasini tayyorlanishi, umumhalq muxokamasidan o'tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishi.

A.O'zbekistonning mustaqillikacha bo'lgan konstitutsiyaviy rivojlanish bosqichlari.

O'zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishi tarixi uni uzoq vaqt davomida (70-yildan ortiq) mustamlaka qilib turgan sovet ittifoqining konstitutsiyaviy rivojlanishi bilan bog'liq va o'sha konstitutsiyaviy rivojlanishga mos keladi. So'ngi Turkiston avtonom respublikasi 1917 yilgi oktabr' inqilobi natijasida Rossiya Federatsiyasi tuzilishi bilan uning tarkibiga kirgan yedi.

O'zbekiston respublikasi yurist olimlari O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy rivojlanishning tarixiy bosqichlarini qo'yidagicha ko'rsatadilar.

Birinchi bosqich hisoblangan kapitalizmdan sosalizimga o'tish deb nomlangan

va 1917yildan 30-yillarning o'rtalarigacha davom yetgan davirga RSFSRning 1918 yilgi konstitutsiyasi va boshqa respublikalar, shu jumladan o'sha davrda RSFSR tarkibiga kiruvchi Turkiston avtonom respublikasining 1918 yilgi konstitutsiyasi, Buxoro XDSR, Xorazim XDSRning shu davirda qabul qilingan konstitutsiyalari kiradi. Bu davr konstitutsiyalariga, shuningdek O'zbekiston SSRning sobiq Sovet ittifoqining 1924 yilgi konstitutsiyasi asosida qabul qilingan 1927yilgi konstitutsiyasi kiradi.

Ikkinchi bosqich – sosializimni qurish va uning g'alabasini mustahkamlash deb nomlangan va 30-yillarning o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalarigacha davom yetgan davr konstitutsiyalariga-sobiq sovet ittifoqining 1936yilgi konstitutsiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston SSRning 1937yilgi konstitutsiyasi, O'zbekiston tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston ASSRning 1937 yilda qabul qilingan konstitutsiyasi kiradi.

Uchinchi bosqich – bu sosializimning uzil-kesil g'alabasi va uni qayta qurish deb nomlangan va 80-yillarning o'rtalaridan sobiq ittifoqning parchalanishigacha bo'lgan davr konstitutsiyalariga – sobiq sovet ittifoqining 1977 yilgi konstitutsiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston SSRning 1978 yilgi konstitutsiyasi Qoraqalpog'iston ASSRning o'sha yilgi konstitutsiyasi kiradi.

Bu konstitutsiyalarga 1988-1990 yillardagi qayta qurush davrining ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarini xisobga olib, ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

Turkiston ASSRning birinchi konstitutsiyasi o'lka sovetlarining 6-qurultoyida 1918yil 15-oktabrda qabul qilingan yedi. Turkiston ASSRning yangi konstitutsiyasi 1920 yil 24-sentabrda TASSRning sovetlarning 9sezdidida qabul qilingan bo'lib, bu konstitutsiya batomom butun Rossiya MIKtomonidan qabul qilingan.

Bu konstitutsiya 20 bob, 109moddani o'z ichiga oluvchi 6-bo'limdan iborat yedi. Uning ikki bo'limi (1).yeksploatsiya qilinuvchi mexnatkash xalqlarning huquqlari deklarasiyasi va (2).RSFSR konstitutsiyasining asosiy qoidalari ko'chirib olingan yedi. Qolgan 4 bo'lim Turkistonning ijtimoiy va davlat tuzilishiga, Turkiston avtonom respublikasi RSFSRning o'zaro munosabatlariga (3 bo'lim),

oliy va mahalliy hokimiyat hamda ijroiya organlari (4 bo'lim 9-bob)bag'ishlangan yedi. Bu bo'limda butun Turkiston sovetlari qurultoyi, MIK va uning rayosati ,xalq komissarlari soveti va xalq komisariyatining tuzilishi va ularni tashkil yetish tartibi va vakolati ko'rsatilgan. Shu bo'limda mahalliy sovetlar va ularning ijroiya kometitlarining vakolatlari ham ko'rsatilgan.

Yakunlovchi (6) bo'limda moliya va budjet masalalari o'z ifodasini topgan. Turkiston Respublikasining 1920 yilgi konstitutsiyasi mahalliy sharoitni , respublikaning milliy, yetnografik, jo'g'rofiy va boshqa xususiyatlarini inobatga olmagan holda asosan RSFSRning 1918 yilgi konstitutsiyasi asosida tuzilgan.

Xorazm halq sovet respublikasining Konstitutsiyasi.

1920 yil fevral oyidagi revolyusiya natijasida Xiva xonligi ag'darilib, uning o'rniga xalq demokratik davlati-Xorazm xalq sovet respublikasi tuzildi. 1920 yil 30 aprelda butun Xorazim sovetlarining tashkiliy sezdidada 20 asrning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu konstitutsiya 13 bob, 37 moddadan iborat bo'lib,unda davlat va ijtimoiy tuzum asoslari ,fuqarolarning huquq va yerkinliklari ,saylov sistemasi hamda oliy va mahaliy hokimiyat organlarining saylash tartibi ko'rsatilgan.(4 istoriya Xorezmskoy narodnoy sovetskoy Respubliki. Sbornik dokumentov –t 1967 41-46-b) Xorazm sovet socialistik Respublikasining ikkinchi Konstitutsiyasi 1923 yil 20oktabrda butun xorazm sovetlari 4- quriltoyida qabul qilindi. Yangi konstitutsiyada Xorazimda socialistik jamiyatning poydevori qo'yilgan yedi. Bu konstitutsiya 44-moddani o'z ichga oluvchi 12-bobdan va 5 bo'limdan tashkil topgan. Konstitutsiyada fuqarolarning, yerkaklar bilan ayollarning teng huquqliligi belgilanadi.

Buxoro xalq Sovet respublikasining Konstitutsiyasi.

1921yil 23 sentabrda butun Buxoro sovetlari 2 qurultoyi Buxoro xalq sovet respublikasi konstitutsiyasini qabul qildi. Ushbu konstitutsiya79-moddadan iborat bo'lib 5-bo'lim va 16 bobni o'z ichga oladi.Kirish qismida revalyusiyadan oldingi Buxoroning ichki va tashqi ahvoli ,1920 yil sentabr' oyidagi revalyusiyaning mohiyati, uning asosiy ishtirokchilari, uning dehqonlar revalyusiyasi yekanligi kursatilgan yedi. Chunki Buxoroda ishchilar sinfi juda kam sonli yedi.

Konstitutsiyaning qolgan moddalarida davlatni idora yetishi shakllari oliy va mahalliy hokimiyat idoralarining tizimi va faoliyati, saylov sestimasi, fuqarolarning huquq va yerkinliklari ko'rsatilgan yedi.

O'zbekiston SSRning 1927 yilgi Konstitutsiyasi.

1927 yil 17 fevralida Butun O'zbek Sovetlarining 1-qurultoyida «O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasini tashkil qilish to'g'risida»gi deklarasiya qabul qilindi. Bunda avvalgi Turkiston, Buxoro va Xorazm hududidagi respublikalar asosida milliy- davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganligi ye'lon qilindi. Bu respublika Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm oblastlaridan va Tojikiston Avtonom Respublikasidan tashkil topdi.

1925 yil 13 mayda butun ittifoq sovetlarining 3-sezdi bo'lib, unda O'zbekiston va Turkiston respublikalarining SSR tarkibiga qabul qilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. O'zbekiston SSR o'z konstitutsiyasini qabul qilish kerak yedi. Shu maqsaddan kelib chiqib, 1925 oktyabr' oyida O'zbekiston MIK konstitutsiyasini tayyorlash uchun 26 kishidan iborat komissiya tuzdi. O'zbekiston SSR sovetlarining 1927 yil 30 martdan 2- qurultoyida konstitutsiya loyihasi tasdiqlandi. Konstitutsiya O'zbekiston SSRning tashkil yetilganligini O'zbekiston hududida proletariat diktoturasi o'rnatilganligi, milliy davlat tuzulganligini ,xususiy mulk bekor qilinganligini qonunlashtirdi va davlat organlari tuzish, xo'jalikni boshqarish, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash uchun huquqiy asos bo'lib qoldi.

O'zbekiston SSRning 1937 yilgi konstitutsiyasi.

Sovet ittifoqining 1936 yilgi konstitutsiyasiga mos ravishda, uning tartibiga kiruvchi ittifoqdosh va avtonom respublikalar 1937 yilda o'z konstitutsiyalarini qabul qildilar. Jumladan, O'zbekiston SSR ham.

Butun O'zbek sovetlarining favqulotdagi 6-qurultoyi 1937 yil 14 fevralda O'zbekiston SSRning yangi konstitutsiyasini qabul qildi. Bu yangi konstitutsiya o'sha davrning maqsadiga muvofiq ravishda «sosializm qurush» sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarini qonunlashtirdi.

O'zbekiston SSRning 1978 yilgi konstitutsiyasi.

SSSRning 1977 yilgi konstitutsiyasi asosida O'zbekiston respublikasida ham yangi konstitutsiya qabul qilindi. 1977 yil 22 iyunda respublika oliy soveti O'zbekiston SSRning konstitutsiyasini tayyorlash uchun komissiya tuzdi. Komissiya tarkibida oliy sovet deputatlari, mutaxassislar, olimlar, davlat va jamoat birlashmalarining vakillari bo'lib, ular 1978 yil mart oyigacha respublika konstitutsiyasining loyihasini ishlab chiqdilar. Bu loyiha 1978 yil 19 martda respublika matbuotida umumhalq muhokamasi uchun ye'lon qilindi. Loyiha muxokamasida 5.557 ming kishi ishtirok yetdi. muxokama yuzasidan o'tkazilgan majlislarda 236 ming kishi so'zga chiqdi. Konstitutsiyaviy komissiyaga 1480dan ortiq taklif va mulohazalar tushdi. Komissiya bu takliflarni o'rganib chiqib, konstitutsiya loyihasini 17-moddasiga o'zgartirish kiritdi.

O'zbekiston SSRning konstitutsiyasi respublika oliy soveti sessiyasida 1978 yil 19 aprelda qabul qilindi. Unda O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimi, fuqarolarning huquq va yerkinliklari, davlat organlarining tuzilishi prinsiplari, ularning tizimi va vakolatlari davr talabiga moslashtirib mustahkamlangan.

Konstitutsiya kirish, 11 bo'lim 21 bob, 183-moddadan iborat.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Konstitutsiyani o'rganishning maqsad va vazifalariga to'xtaling?
2. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinish jarayonini tushuntirib bering?
3. 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiya qanday tuzilishga ega?

9- Mavzu: O'ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI.

Reja:

- 1. O'zbekistonda shaxsning huquqiy holati tushunchasi.**
- 2. Fuqarolik tushunchasi va o'zbekiston respublikasida fuqarolik.**
- 3. Inson va fuqarolarning konstitutsion huquqlari, erkinliklari, burchlari.**

Tayanch iboralar: shaxsning muayyan davlatdagi huquqiy holati tushunchasi; inson va fuqaro huquqlari; shaxs huquqiy holatining tarkibiy qisimlari; shaxs huquqiy holatining prinsiplari; fuqarolik tushunchasi; inson va fuqarolarning konstitutsion huquqlari va burchlari.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: 1996
3. O'zbekiston,1996-249-b
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2009.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
7. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
8. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

10. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

I. O'ZBEKISTONDA SHAXSNING HUQUQIY HOLATI TUSHUNCHASI.

Fanning asosiy muommolaridan biri shaxsning muayyan davlatdagi huquqiy holati masalasidir. Insonning ijtimoiy mavjudot u, muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi, oilaning mehnat jamoasining a'zosi ma'lum ijtimoiy guruh, millatning vakili hisoblanadi. erkinlik shaxsga xos xususiyatdir. Jamiyat qanchalik yuqori darajada rivojlangan balsa, shaaxsning erkinligi shunchalik to'liq, keng bo'ladi. ma'lumki har bir shaxs doimo jamiyat va davlat bilan muayyan munosabatda bo'ladi. U jamiyatga nisbatan shu jamiyatning a'zosi sifatida, davlatga nisbatan yesa uning fuqarosi yoki chet davlatning fuqarosi sifatida munosabatda bo'ladi. Uning jamiyatdagi va davlatdagi holati shu jamiyatda u bilan jamiyat yoki u bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning holatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu aloqalarning va munosabatlarning mohiyati, Yangi kishilarning jamiyatdagi holati, shu jamiyatda o'rnatilgan iqtisodiy negizlar, ishlab chiqarishi munosabatlarining nisbati bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida kishining ijtimoiy ahvoli shu jamiyatning iqtisodiy negizida, ishlab chiqarish munosabatlariga va mulkchilikning turiga qarab belgilanadi.

Jamiyatnint davlatning shaxslar bilan bo'ladigan va huquqiy normalar bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlari shaxsning huquqiy holati deb ataladi.

Shaxsning jamiyatdagi holati uning jamiyatdagi huquq va burchlarini belgilaydigan butun ijtimoiy normalar (urf- odat, odob, an'analar, jamoat normalari, huquqiy normalar) bilan belgilanadi.

Shaxs bilan davlat o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, qonunlar va boshqa hug'ug'iy normalar bilan belgilanadi.

Shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy holati kishining O'zbekiston Respublikasi huquq normalari bilan belgilangan holati, uning jamiyatdagi, davlatdagi o'rnidir.

Fuqarolarning huquqlari deganda, asosan, har bir davlatning qonunlarida o'z aksini topgan fuqarolar huquqlariturushuniladi. Bu huquqlar konstitutsiyada mustahkamlangan bo'ladi. Inson huquqlari to'g'risidagi normalar, birinchi navbatda halqaro huquq normalarida o'z aksini topadi.

Insonning asosiy huquqlariga ishonchini mustahkamlash maqsadida BMT 1948 yilda inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini qabul qildi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasidan keyin Yana uch hujjat (1). Iqtisodiy –ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi halqaro Pakt (1996 yil 19 dekabr'): (2). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi halqaro Pakt (1996 y 18 dekabr') : (3). fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi halqaro paktga fakul'tativ protokol (1996 y 19 dekabr') qabul qilindi. Bu hujjatlar 1976 yildan amal qila boshladi hamda halqaro huquqiy munosabatlarda inson huquqlari to'g'risidagi bill' (qonun) deb atala boshoadi.

O'zbekiston Respublikasi 1991 y 30 sentyabirda inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini ratifikasiya qildi.

Shaxs huquqiy holatining tarkibiy qisimlari.

(1). Davlat bilan alohida shaxsning huquqiy aloqasi shaxsning shu davlatga mansubligi bilan, ya'ni shu davlatning fuqarosi bo'lishi yoki shu davlat hududidagi chet yel fuqarosi bo'lib yoxud fuqaro bo'lmagan holda yashashi bilan belgilanadi.

(2). Shaxsning umumiy huquqiy layoqatidir.

(3). Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab qo'yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlaridir ..

(4). Fuqarolar huquqiy holatining prinsiplari .

(5). Shaxslarning konstitutsiyada ko'rsatilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirishi mexanizmini mavjudligi .

Kafolatlash bu davlatning fuqarolar huquq erkinliklarini amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar yaratishi va kerakli vositalar bilan ta'minlanishidir.

Kafolatlarning turlari:

Iqtisodiy – moddiy kafolatga O'zbekistonda tashkil topgan iqtisodiy negizlar, ya'ni barcha mulk turlarining teng huquqliligi va ularning davlat tomonidan bir xilda muxofaza qilishi kiradi.

Siyosiy kafolatga – O'zbekistondagi siyosiy tuzum, yangi respublika halqi davlat hokimiyatining birdan-bir manbai yekanligi, hokimiyatni halqning o'zi amalga oshirishi, jamoat uyushmalari ,siyosiy partiyalar va harakatlarning jamiyat siyosatini amalga oshirishda, davlat hokimiyatini shakillantirishda ishtirok yetishlari kiradi.

Yuridik kafolatlariga – Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshirishi yo'l-yo'riqlari ko'rsatilganligi , davlat tomonidan butun davlattashkilotlariga , mansabdor shaxslarning zimmasiga ushbu huquq va majburiyatlarni ta'minlash yuklatilganligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mavjudligi kiradi.

O'zbekiston Respublikasida shaxs huquqiy holatining prinsiplari.

(1)Insonparvarlik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari ,erkinliklari va burchlari to'g'risidagi bobning mustahkamlanganligi va bajarilishi kafolatlanganligi O'zbekistonda insonparvarlik prinsipi amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Respublika Prezidenti I.Karimov ta'biri bilan aytganda, biz qurayotgan davlat: „Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan , millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy ye'tiqodlaridan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.(Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol,iqtisod, siyosat,mafkura .-T: 1993.-43- b).

(2)Jamiyat manfaati bilan shaxs manfaatlarining mosligidan iborat bo'lib ,ular o'zida huquq va majburiyatlarning birligini mujassamlashtiradi.

Fuqarolarning qonuniy manfaati – bu uning moddiy va ma'naviy talabi bo'lib, u shaxsning qobilyatini va uning butun jamiyatdagi faoliyatini rivojlantirish bilan

belgilanadi. Jamiyat manfati yesa- jamiyatning maqsadi va vazifasi bo'lib, uning rivojlanishi uchun xizmat kiladi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov 1995. 23 fevralda Oliy majlisning sessiyasida qilgan ma'ruzasida inson va davlat qrtasidagi munosabatlarda inson manfaatlarining ustun bo'lishi kerakligi to'g'risida gapirib:davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishga safarbar qilgandagina o'z vazifalarini to'g'ri ado yetgan hisoblanadi. Bu qoyidani hamma tan olishi, bu qoyidaga hamma itoat qilishi shart"- degan yedi.(Karimov I.A.O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari –T: 1995. -23- b).

(3)Huquq va burchning umumiyliigi. Bu prinsip shuni bildiradiki, har bir fuqaro qonunda ko'rsatilgan yoshga kirishi bilan barcha huquqlardan, erkinliklardan foydalanishi imkoniyati va qonunga ko'rsatilgan burchlarni bajarishi majburiyatiga yega bo'ladi .

(4)Huquq va burchning tengligi . har bir jamiyat a'zosiga davlat boshqa jamiyat a'zolari bilan bir xilda teng yuridik imkoniyatlar yaratadi. Konstitutsiyaning 18- moddasida bu to'g'risida shunday deyiladi: . „O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga yega bo'lib, jinsi, irqi, millati,dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ye'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqiyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar”, Teng huquqlilik faqat huquqlarga nisbatan yemas, balki burchlarga nisbatan ham tadbiiq yetiladi.Ana shundagina u haqiiyqiy teng huquqlikni anglatadi.(Kurs gosudarstvennogo prava / Pod. Red. V. O. shetininya 1971. 89-90- b).

II. FUQAROLIK TUSHUNCHASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK.

Asosiy huquqlar va burchlarni amalga oshirishninghuquqiy shakli yoki asosi fuqarolik hisoblanadi. Fuqarolik-shaxsning muayyan davlatga mansubligi bo'lib, davlat unga nisbatan o'z hukmini o'tkazadi va uni konstitutsiyada ko'rsatilgan fuqarolik huquqlari va burchlari bilan ta'minlaydi, ularning huquqlarini Ushbu

davlat ichida hamda tashqarisida muhofaza qiladi. Fuqarolik shaxsning muayyan davlat bilan barqaror ,doimiy siyosiy-huquqiy aloqasidir. Bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi.

Shaxsning fuqarolik holati davlat tomonidan alohida yuridik hujjat(pasport yoki guvohnoma) bilan belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lishi huquqiga yega.Hyech Kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilishi mumkin yemas. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining butun hhududida yagona fuqarolik o'rnatadi.

O'zbekiston Oliy Kengashi 1992 yil 2 iyulda „O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida” qonun qabul qildi. Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik, fuqarolikka olish, uchun to'xtatishi , ota-analarning fuqaroligi qzgarganda bolalarning fuqaroligini aniqlash kabiO'zbekiston fuqaroligiga doir masalalar ko'rsatilgan M: Ushbu qonunga asosan, qo'yidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar:.

(a) Ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarosi bo'lmagan holda O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar.

(b) O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan tug'ilganlar.

(v) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan shaxslar.

(g) O'zbekistonning halqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha fuqarolikni olganlar :

(d) davlat yo'lanmasi bilan O'zbekistondan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar agar ular O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashayotgannini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlat fuqarosi bo'lmasalar va Ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan 1 yil ichida O'zbekiston fuqarosi bo'lishi istagini bildirganlar.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish.

Chet yel fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. O'zbekiston

Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan amalga oshiradi. Hujjatlarni ichki ishlar va tashqi ishlar vazirligi rasmiylashtiradi.

Fuqarolikka kirish uchun qonunda ayrim shartlar belgilangan:

(1)Chet yel fuqaroligidan voz kechish .

(2) So'ngi 5 yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashagan bo'lishi (Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug'ilgan va hych bo'lmasa ota-onasidan biri , buvasi yoki buvisi O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi yemasligini isbotlasalar, taalluqli bo'lmaydi.)

(3)Qonuniy tirikchilik manbalariga yega bo'lish:

(4)O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining tan olinishi va ularning talablarini bajarishi shart.

Respublikadagi osoyishtalikni, tinchlikni ta'minlash maqsadida chet yellik shaxslarni o'zbekiston fuqaroligiga qabul qilishda bir necha to'siqlar qo'yilgan .Jumladan, fuqarolikka da'vogar shaxslar:

-O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzimini zo'rlik ishlatib o'zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

- Faoliyati O'zbekiston Respublkasining konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlar a'zo bo'lsa;

- O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan hatti-harakatlar uchun ozodlikdan mahrum yetilgan va jazoni o'tayotgan bo'lsa, bunday shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishi to'g'risida iltimosi rad yetiladi.

O'zbekiston fuqaroligining to'xtatilishi .

Fuqarolik to'g'risidagi qonunda shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida ,fuqaroligini yo'qotishi oqibatida va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga va fuqarolik to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan to'xtatiladi.

O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishga qo'yidagilar sabab bo'ladi.

(1) Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, palisiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvning boshqa idoralariga ishga kirilganligi aniqlansa:

(2) Agar chet yelda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sababsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa:

(3) Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz bo'lsa ma'lumotlar yoki soxta hujatlarni taqdim yetish natijasida olingan bo'lsa.

Prezident farmoniga asosan fuqarolik yo'qotiladi.

Ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda balalarning fuqaroligi.

(1) 14 yoshgacha bo'lsa o'zgaradi.

(2) 14 yoshdan 18 yoshgacha ularning roziligi bilan.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi xorijiy shaxslarga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ularning shaxsini va yashash huquqlarini bildiradigan maxsus hujjatlar, guvohnomalar beriladi. Bunday hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1994 yil 23 dekabrda tasdiqlagan, „Xorijiy shaxslarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan O'zbekiston Respublikasida yashash uchun guvohnoma va fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasi to'g'risidagi nizom“ asosida beriladi.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunlarni amalga oshiruvchi davlat organlari:

(1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

(2) Ichki ishlar vazirligi.

(3) Tashqi ishlar vazirligi.

(4) O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalari.

(5) Prezident huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha komissiya.

III. INSON VA FUQAROLARNING KONSTITTUSION HUQUQLARI ERKINLIKLARI VA BURCHLARI.

Huquq shaxsga nisbatan va davlat tomonidan berilgan o'z yehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlari hamda uning turmush jarayonida o'ziga berilgan

huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini belgilovchi huquqiy normalardir. Burchlar esa shu jamiyatdagi shaxslar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan yoki biror-bir harakat qilishdan voz kechishni belgilaydigan huquqiy normalardir.

O'zbekistonda inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlarini qo'yidagicha tasniflash mumkin:

- (1) Shaxsiy huquq va erkinliklar (7 bob).
- (2) Fuqarolarning siyosiy sohadagi kuchlari (8 bob).
- (3) Inson va fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari.
- (4) Fuqarolarning burchlari (11 bob).

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb nomlanadi. bu bo'lim quyidagi tuzilishga ega.

V - bob. Umumiy qoidalar

VI - bob. Fuqarolik

VII - bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar

VIII - bob. Siyosiy huquqlar

IX - bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

X - bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

XI - bob. Fuqarolarning burchlari

V BOB. UMUMIY QOIDALAR

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bogliqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

20-modda. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

VI BOB. FUQAROLIK

21-modda. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

22-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

VII BOB. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

24-modda. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng ogir jinoyatdir.

25-modda. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hyech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

26-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoiya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hyech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hyech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

27-modda. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hyech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

28-modda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdiridagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

30-modda. O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

VIII BOB. SIYOSIY HUQUQLAR

32-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

33-modda. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yigilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

34-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

35-modda. Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonundabelgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

IX BOB. IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR

36-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

37-modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

38-modda. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

39-modda. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga gamxo'rlik qiladi.

X BOB. INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

43-modda. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44-modda. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining gayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

45-modda. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolgiz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

46-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

XI BOB. FUQAROLARNING BURCHLARI

47-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

48-modda. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

51-modda. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yigimlarni to'lashga majburdirlar.

52-modda. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosinining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

**10-Mavzu: O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS
MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.**

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzimining iqtisodiy negizlari.**
- 2. Mulk tushunchasi va uning shakllari.**
- 3. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari.**

Tayanch iboralar: jamiyatning iqtisodiy negislari, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mul huquqi va mulk shakllari, fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
4. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
7. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
8. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

11.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzimining iqtisodiy negizlari.

Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanishi xo'jalikni boshqarishda bozor iqtisodi prinsiplariga asoslanganlik tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 19 noyabrda „Davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida” qonun qabul qildi. Bu qonunga asosan, davlat tasarufidan chiqarish deganda, davlat korxonalar va tashkilotlarni jamoa ijara korxonalar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarga, davlatga qarashli bo'lmagan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish tushuniladi.

Xususiylashtirish jismoniy shaxslarning va davlatga talluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obektlarini yoki davlat xo'jalik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishlaridir.

2. Mulk tushunchasi va uning shakllari.

Mulkn yuzaga kelishining asosi bu o'zlashtirishdir. Mulk ustida o'rnatiladigan iqtisodiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi va shu orqali mulk huquqi formasiga ega bo'ladi “Mulk huquqi ” termini ikki ma'noda qo'llaniladi.

A) Obyektiv ma'noda mulk huquqi - bu fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolarni o'zlashtirish, egallash, foydalanish va tasarruf qilishiga oid shaxslar harakatlari imkoniyatlarining huquq normalari orqali ifodalanishi hisoblanadi. Bu harakatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi mulk huquqi institutini shakllantiradi. Mulk huquqi institutining huquqiy asosini konstitutsion normalar tashkil etadi. O'z navbatida mulk huquqi instituti xususiy huquqning markaziy instituti hisoblanadi. Uning normalari oila huquqi, meros huquqi, majburiyat huquqi sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik huquqida mulk huquqi instituti majburiyat huquqi normalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan.

Mulkni egallash, foydalanish huquqi statik(turg'un) huquqiy munosabatlarni shakllantirsa, ulardan farqli mulkni tasarruf qilish huquqi majburiyatga oid munosabatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Masalan: mulkni sotish, hadya qilish va boshqa usulda topshirish. Shu sababli taassarruf qilish huquqini amalga oshirish dinamik(harakat) munosabat sifatida qaraladi. Ko'p hollarda u mulkka nisbatan mulkdorni o'zgartirib boradi.

B) Subyektiv ma'noda mulk huquqi - bu shaxslar uchun qonun orqali ularning o'z hohishi bo'yicha mulkni egallash, foydalanish va tasarruf qilish imkoniyatining huquqiy ta'minlaganligi hisoblanadi. Fuqarolar qonunda nazarda tutilgan tartibda o'z imkoniyatlariga qarab mol-mulklarni o'zlashtiradi, egallaydi, foydalanadi va tasarruf qiladi.

Mulki egallash, foydalanish, tasarruf qilish huquqining boshqa ashyoviy huquq egalaridan farqi, qonunda belgilangan tartibda, yuridik faktlar asosida bir vaqtning o'zida mulkdorda uchala huquq vujudga keladi. Masalan: xususiylashtirish, oldi-sotdi shartnomasi, Yangi ashyolarni yaratish va boshqalar.

Subyektiv mulk huquqini xarakterlaydigan uch elementdan tashqari, qonunchilik yana quyidagilarni: bunda shaxslarga tanilgan mulk huquqini amalga oshirmasligi, ya'ni ularning harakatsizligi natijasida ularga tegishli bo'lgan mulk huquqini bekor qilish to'g'risida bir qator sanksiyalarni ko'zda tutadi: bunday sanksiyalarga masalan, qarovsiz hayvonga nisbatan u yo'qolgandan boshlab 6 oy

o'tsa va egasi izlamagan bo'lsa mulk huquqi bekor bo'ladi: da'vo qilish muddatining o'tishi bilan mulk huquqi bekor bo'ladi.

Obyektiv ma'nodagi mulk huquqini subyektiv ma'nodagi mulk huquqidan farqi, subyektiv ma'nodagi mulk huquqi aniq shaxsda vujudga keladi. Faqat bu huquq shaxslar tomonidan xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarni egallash orqali qozoniladi. Subyektiv ma'nodagi mulk huquqini vujudga keltiruvchi yuridik faktlar sifatida turli ko'rinishdagi bitimlar (masalan:oldi-sotdi, merosni qabul qilish)ni, yangi ashyoni yaratish, mulkni egallash muddatlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Subyektiv ma'nodagi mulk huquqini aniq ashyolarga tegishli subyektiv huquqlardan farqi, bunday huquq bevosita qonun hujjatlariga asoslanganligi va avvalo muddat bilan cheklanmaganligiga(muddatsiz) tayaniladi. Mulkka nisbatan boshqa huquqlar, masalan, ijara, garov shartnomalaridan kelib chiqadigan huquqlar mulkdorning irodasiga bog'liq holda vujudga kelib ma'lum bir muddatning belgilanishi bilan xarakterlanadi. Mulk huquqining davlat tomonidan himoya qilinishi mutloq xarakter kasb etadi. Hyech kim mulkdorning rozilgisiz unga tegishli mulkka nisbatan noqonuniy xarakatlarni amalga oshirishi qonun tomonidan ta'qiqlanadi. Agar bunday harakatlar sodir etilgan taqdirda mulkka yetkazilgan zarar to'liq qoplanadi (FK 14-m; 228- 231-moddalar). Jumladan; FKning 14-moddasi, 1-qismida «...huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkin» degan qoidalar belgilangan. Ushbu huquq normalari mulk huquqini himoya qilishda ham to'g'ridan-to'g'ri tadbiiq etiladi.

MULK SHAKLLARI

Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk mulk huquqining obyektlari sanaladi. Ushbu obyektlarga nisbatan ularni egallash, foydalanish va tasarruf qilish subyektiv ma'nodagi mulk huquqi mazmunini tashkil qiladi. Ushbu

huquq hajm jihatidan fuqarolik huquqi subyektlariga turlicha tanilgan va u mulk shakliga bog'liq holda tasniflangan. O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy va ommaviy mulk shakllarida bo'lishi e'tirof etilgan. FKning 168-moddasiga ko'ra, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar.

O'z navbatida xususiy mulk fuqarolarning va yuridik shaxslarning mulkidan tashkil topadi. Yuridik shaxslarning mulk huquqi institutini quyidagicha ajratish mumkin: xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining mulk huquqi; jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning mulk huquqi; ishlab chiqarish kooperativlarining mulk huquqi va x.k.

Mulkning bir vaqtda ikki va undan ortiq shaxslarga tegishli bo'lishi nuqtai nazaridan mulk huquqining yana bir turi yuzaga keladi. Bunday mulk huquqi umumiy mulk huquqi deb nomlanadi. Mulkka nisbatan huquq qanday bo'lishidan qat'iy nazar mulk yo xususiy yoki ommaviy mulk shakligi taalluqli bo'ladi. Umumiy mulk huquqida ham mulkdolar bitta mulk (meros orqali aka-ukalarga o'tgan uy-joy, ikki va undan ortiq shaxslarning birgalikda xazina topishi) yoki turli mulk shakllari (ikkita xususiy tadbirkorga tegishli mulklar; birgalikda faoliyat olib borish uchun ikkita davlat unitar korxonasiga tegishli mol-mulklar)ning subyektlari bo'la oladilar. Shu bilan birgalikda bir qancha shaxslarga tegishli umumiy mulk birgalikdagi va ulushli umumiy mulkka ajraladi.

Mulk huquqi mol-mulkning xususiyatlarini e'tiborga olib, ko'char va ko'chmas mulklarga nisbatan bo'lgan mulk huquqi sifatida ham tasniflanadi.

1. Mulk shaklining ikkinchi shakli bu ommaviy mulk hisoblanadi. U o'z navbatida respublika mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi.

MULK HUQUQINING MAZMUNI

Mulk huquqi- bu mulkni egallash, foydalanish va uni tassaruf qilish huquqini qamrab oladi. Bularning har biri mulk huquqining zaruriy elementi hisoblanadi. Ushbu uchala huquqdan birining mavjud bo'lmasligi, mulkka nisbatan mulk huquqini belgilamaydi. Masalan, bu yerda ijra huquqi, garov huquqlarini ko'rishimiz mumkin.

Mulkni egallash – bu ashyolar ustidan jismoniy hukumronlik bo'lib, u o'zida ashyolarning but-butun saqlanishni ta'minlash, boshqarish va ushlab turishiga yo'naltirilgan shaxslar harakati majmuini ifodalaydi. Ko'char mulkka nisbatan egalik uni topshirgan paytdan boshlab vujudga keladi. Ko'chmas mulklarga nisbatdan esa ma'lum harakatlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Masalan; uyga ko'chib kirish; yer uchastkalariga ma'lum belgilar qo'yish. Aytaylik, yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilayotgan yer uchastkasiga uni berayotgan vakolatli shaxs tomonidan qoziqlar qoqish orqali ma'lum belgilar qo'yiladi. Bu esa ushbu yer uchastkasi kimningdir egaligiga o'tganligida darak beradi.

Mulkni egallash bo'yicha mulkdorning faoliyati mulkni yaroqli holda tutishi, uning to'satdan nobud bo'lishining yoki zararlanishining oldini olish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Biroq, har qanday «egallash» huquqi ham qonun bilan qo'riqlanmaydi. Jumladan, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolarning mulki bo'lishi ham, ularni egallashi ham mumkin emas. Masalan, tabiat boyliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari, radioaktiv materiallar, harbiy texnikalar va qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilgan boshqa fuqarolik huquqining obyektlariga nisbatan egalik qilish man etilgan.

Agar qandaydir sabablar bilan bunday ashyolar fuqarolarning qo'lga tushib qolgan taqdirda, ular FKning 228-moddasiga muvofiq davlatga topshiriladi. Bu qoida qonun tomonidan ruxsat etilgan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Biroq, FKning 190-moddasiga ko'ra, agar mulkdor o'ziga qarashli tarix va madaniyat yodgorligiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, zimmasida yodgorliklarni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organlari mulkdorni yodgorlikka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishni to'xtatish haqida ogohlantiradilar. Mabodo, mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud yodgorlikni olib qo'yish haqida qaror chiqarishi mumkin, bu yodgorlik davlat mulkiga o'tadi. Shu bilan birga bu mulkka nisbatan dastlab egalik qilgan shaxsning huquqlari barham topadi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida ashyolarni egallashning qonuniy va noqonuniy ko'rinishlari uchraydi. Qonuniy egallash – bu qonun hujjatlarida belgilangan

tartibga ko'ra mulkni egallash bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Qonuniy egallash huquqiy asosga tayanadi. Qonuniy egallashda ashyo ijarachida, saqlovchi va boshqalarda shartnomaga ko'ra yoki qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra turadi. Bunda mulkni egallashdan maqsad – mulkni but-butun saqlanishini ta'minlash hisoblanadi. Mulkni egallash bo'yicha huquqlar hajmidagi farqlar, huquqning subyektiga bog'liq holda qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Masalan, Davlat - fuqarolik huquqining subyekt sifatida, mulkka musodara, rekvizitsiya qilish orqali egalik qilishi mumkin. Bunday huquq fuqarolik huquqining boshqa subyektlariga tanilmagan.

Qonun normalariga xilof ravishda ashyolarni egallash, noqonuniy egallash deb tan olish uchun yetarli asos hisoblanadi. Noqonuniy egallashning insofli va insofsiz egallash turlari uchraydi. Ashyoni noqonuniy egallab turgan shaxs uning noqonuniy ekanligini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan bo'lsa – insofli egallovchi hisoblanadi (FK 229-m). Masalan: sotib oluvchi bozorda o'g'irlangan ashyoning o'g'irlanganligini bilmay turib xarid qilganda. Ashyoga nisbatan o'z egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan shaxs-insofsiz egallovchi hisoblanadi(FK 230-m). Masalan, agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan sotib olingan bo'lsa; FKning 212-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi. O'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Chunki bunda imoratni egallab turgan shaxs insofsiz egallovchi hisoblanadi.



ҚОНУНИЙ
ЭГАЛЛАШ

ИНСОФЛИ
ЭГАЛЛАШ

ИНСОФСИЗ
ЭГАЛЛАШ

MULKDAN FOYDALANISH

Mulkdan foydalanish – ashyolarning foydali xususiyatlarini jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan faoliyat hisoblanadi. Mulkdan foydalanishni amalga oshirish usullari ashyoning xususiyati bilan bog'liq. Agar ashyo iste'mol qilinmaydigan ashyo hisoblansa, undan ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatda foydalanish mumkinligi tushunmoq lozim. Chunki iste'mol qilinmaydigan ashyolar, qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari) hisoblanadi. Agar ashyo iste'mol qilinadigan bo'lgan taqdirda, bunda ular bir karra foydalanish natijasida yo'qolib ketadigan yoki dastlabki holatida mavjud bo'lmaydi. Masalan, xom ashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar.

Mulkdan foydalanishning bir qator usullari amaldagi qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, fuqarolik-huquqiy usullardan biri bu bitimlar tuzish orqali mulkdan foydalanish hisoblanadi. Masalan, mulkni ijaraga berish, tekin foydalanishga berish. Ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqining mavjud bo'lishi, u joylashgan yer uchastkasidan foydalanish huquqini ham vujudga keltirish uchu nasos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga qonunchilik mulkdan foydalanishda undan qanday maqsadda foydalanish nazarda tutilgan bo'lsa, shundan kelib chiqib, ba'zi bir cheklovlarni belgilaydi. Chunonchi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun foydalaniladi. Boshqa maqsadlarda bu yerlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Uy-joy, kvartiralar fuqarolarning yashashi uchun mo'ljallangani

holda, boshqa maqsadda foydalanish (sexlar qurish, tadbirkorlikda foydalanish)ga ruxsat etilmaydi.

Mulkni egallash kabi undan foydalanish ham huquqiy va huquqqa xilof (nohuquqiy) bo'lishi mumkin. Agar ashyo mulkning haqiqiy egasidan olingan bo'lsa, undan foydalanish ham huquqiy sanaladi. Mabodo, mulk amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanuvchining qo'liga o'tgan bo'lsa yoki mulkdan foydalanishda boshqa shaxslarning manfaatlariga ziyon yetkazilsa, mulkdan bunday foydalanish nohuquqiy hisoblanadi va yetkazilgan zarar qoplanadi.

Mulkdan foydalanish uni tasarruf etishdan farq qiladi. Mulkdan foydalanishda mulkdor o'zining kuchi, harakati bilan mulkning foydali xususiyatlaridan foydalanadi. Bu esa mulkdan foydalanish huquqi doirasida amalga oshirilgan faoliyat deb qaraladi. Daromad olish maqsadida mulkni vaqtincha begonalashtirishga qaratilgan bitimlar tuzish tasarruf etish deb qaraladi.

Mulkdan foydalanishni unda ko'zlangan maqsadiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi: mulkdan uni iste'mol qilish maqsadida qo'llash. Masalan; oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va shu kabilar. Ikkinchisi: mulkdan bevosita foydalanish. Masalan: muzlatgich, transport vositalari, kiyim-kechaklar va boshqalar.

MULKNI TASARRUF ETISH HUQUQI

Mulkni tasarruf etish – bu mulkdor tomonidan unga tegishli ashyoning yuridik taqdirini belgilashga qaratilgan aniq harakatlari hisoblanadi. Tasarruf etish orqali ashyo mulkdorning egaligidan vaqtincha (shartnomada nazarda tutilgan shartlarda) yoki butunlay begonalashtirilishi oqibatida chiqib ketadi. Vaqtincha mulkni tasarruf etish mulk ijarasi, omonat saqlash, mol-mulkni ishnoqli boshqarish shartnomalari asoslariga tayanib amalga oshiriladi. Jumladan; Fuqarolik Kodeksining 535-moddasiga ko'ra, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Shartnomada

nazarda tutilgan muddatlar tugagandan keyin mol-mulk egasiga qaytariladi va mulkni vaqtincha tasarruf qilish jarayoni poyoniga yetadi.

Tasarruf etish huquqini amalga oshirilishi mulkka nisbatan mulkdorning mulk huquqining bekor qilishi uchun asos bo'lgani holda, boshqa shaxsda ushbu mulkka nisbatan mulk huquqini vujudga keltiradi. Mulkdor quyidagi harakatlarni sodir etishi orqali o'z mulkini boshqa shaxsga mulk qilib topshirishi mumkin. Masalan: oldi-sotdi shartnomasini tuzish. Fkning 386-moddasi 1-qismiga ko'ra, «oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini oladi...»



MULK HUQUQINING VUJUDGA KELISHI VA BEKOR BO'LISHI

Mulk huquqining vujudga kelishi Fuqarolik kodeksida aniq belgilab qo'yilgan (FK.182-modda) FKning 182-moddasida, mulk huquqini vujudga keltiruvchi turli yuridik faktlar qayd etiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari yuridik faktlar hisoblanadi. Bunday yuridik faktlar sifatida harakatlar va hodisalar o'rtaga chiqadi. Birinchi guruhga: masalan, fuqarolar va yuridik shaxslarning mulkni begonalashtirishga qaratilgan turli bitimlar tuzishi. Harakatlar insonlarning irodasiga bog'liq holda ongli ravishda sodir etiladi. Jumladan, mulk ustida mulk huquqini vujudga keltirishda tuziladigan bitimlar ham bevosita harakat mahsuli hisoblanadi.

Yuridik faktlarning ikkinchi guruhi sifatida hodisalar e'tirof etiladi. Hodisalar shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keladi. M: meros huquqiy munosabatlarini yuzaga keltiruvchi fuqaroning o'limi hodisasi. Hodisalar inson

irodasiga bog'liq holda ham kelib chiqishi mumkinligini inkor etmaslik kerak. Insonlarning harakatlari natijasida ham yuridik hodislar vujudga kelishi mumkin. Hodisaning inson irodasiga bog'liq holda vujudga kelganmi yoki yo'qmi sharti nuqtai nazaridan ikkiga ajratish mumkin: mutlaq va nisbiy hodisalar. Mutlaq hodisalar shunday hodisalarki, ularning vujudga kelishi va davom etishi, rivojlanishi inson faoliyatiga bog'liq emas. Masalan, fuqaroning o'limi.

Fuqarolik huquqida muddatlar hodisalarning nisbiy ko'rinishi sifatida ham baholanadi. Aslida muddatlar obyektiv kategoriya bo'lib, fuqarolik huquqiy munosabat subyektlarining irodasi va faoliyatiga bog'liq emas. Biroq, muddatga nisbatan, insonlar faoliyatining ta'sirini ham inkor etmaslik kerak. Muddatlar kelib chiqishi yuzasidan irodaviy hisoblanadi: muddatlar va ularning chegaralari qonunchilik normalari bilan, taraflar kelishuvi bilan va sud tomonidan belgilanishi mumkin. FKning 187-moddasiga muvofiq, mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat). Bu yerda o'n besh yil yoki besh yil kabi belgilangan muddatlar qonun normalarida belgilab o'tilmoqda.

Mol-mulkka nisbatan egalik huquqining vujudga kelishini ikki guruhga: dastlabki va hosila usullarga ajratish mumkin.

Mulk huquqi ko'pincha yangi narsani yaratish jarayoni bilan vujudga keladi. Qonunga va boshqa huquqiy aktlarga rioya qilingan holda shaxs tomonidan o'zi uchun yaratilgan, ishlangan narsaga nisbatan uning o'zida huquq paydo bo'ladi. Agar biron-bir shaxs o'z mulkiga nisbatan egalik huquqini yo'qotgan bo'lsa yoki u o'z mol - mulkini tashlab yuborgan yoxud o'z ixtiyoridan chiqarib yuborgan bo'lsa, qonuniy asoslarga muvofiq, uni olgan shaxsda bunday mol - mulkka nisbatan egalik huquqi paydo bo'lishi mumkin. Bunday hollarda mol-mulkka shaxs egalik huquqning vujudga kelishi boshqa shaxsning ushbu mol-mulkka nisbatan egalik huquqi bilan bog'liq emas. Mol – mulkka egalik huquqining bunday yo'l bilan

fujudga kelishiga **dastlabki usul** deyiladi. Bu usulda ashyoga nisbatan dastlab biron-bir kishining mulk huquqi tanilmagan bo'ladi.

Mol- mulk odatda mulk huquqining obyektida qonun qoidalarga rioya qilingan holda bir shaxs egalik huquqidan ikkinchi shaxsga o'tadi. Bunday holarda mol- mulk o'zining dastlabki sifatini yo'qotmaydi, faqat unga egalik qiluvchi subyektlari o'zgaradi. Huquq va burchlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishiga **huquq vorisligi** deyiladi. Huquq vorisligi asosan oldi-sotdi, ayirboshlash shartnomalari, hadya va boshqa bitimlar bilan bog'liq. Huquq vorisligi meros qoldirish, yuridik shaxsni qayta tashkil etishi hollarida ham yuz beradi. Mulk huquqining vorislik bo'yicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi hosila usul deyiladi. Hosila usulda ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi dastlabki mulkdorning huquqlariga asoslanadi.

Mol – mulkka dastlabki usulda egalik huquqining vujudga kelishi, mulk egasi huquq va burchlarning doirasi qonun bilan belgilanadi. Hosila usulda mulk egasining erki, xohishi, uning huquq va burchlari, taraflarning kelishuvi va davlat boshqaruv organlarning aktlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Fuqarolar va tashkilotlarning xo'jalik va mehnat faoliyati natijasida qo'lga kiritilgan, yangi olingan sanoat va qishloq xujalik maxsulotlarga egalik huquqining vujudga kelishi dastlabki usulining asoslaridan hisoblanadi. Xulosa qilganda ashyoga nisbatan mulk huquqini egallashning dastlabki usuliga quyidagilarni kiritish mumkin: Yangi mol-mulkni yaratish; mol-mulkdan xo'jalik usulida va o'zgacha usulda foydalanish natijalari, shu jumladan, olingan mahsulot, hosil va boshqa daromadlar; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish va boshqalar.

Mulk huquqini dastlabki usulda egallashning asoslaridan biri bu bu yangi mol-mulkni yaratish va ko'paytirish hisoblanadi. Yangi yaratilgan ko'char yoki ko'chmas ashyolarga nisbatan mulk huquqi uni yaratgan shaxsga qonun normalarining talablariga muvofiq belgilanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, yangi yaratilgan ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqi materialning egasi kim bo'lsa ushanga tegishli bo'ladi. Agar materialni qayta ishlovchi shaxs uni yo'qotgan yoki

nobud qilgan bo'lsa, mulkdor u shaxsdan ashyoni qaytarishni va yetkazilgan zararni undirishni talab qilish huquqiga ega.

Egasiz ashyolarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish mulk huquqini vujudga kelishining dastlabki usullariga tegishlidir. Egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ashyolar guruhiga quyidagilar kiradi: mulkdor tomomnidan tashlab ketilgan ashyolar; topilma; qarovsiz hayvonlar; xazina.

Tashlab ketilgan ashyolar bu mulkdor tomomnidan to'g'ridan-to'g'ri mulk huquqi rad qilingan va saqlanmagan ashyo hisoblanadi. Bu ashyolar boshqa shaxslarning mulkiga egasiz ashyolar to'g'risidagi belgilangan qoidalarga muvofiq o'tadi. Tashlab ketilgan ashyolar boshqa shaxslarning egaligiga o'tgunga qadar, dastlabki mulkdorning mulk huquqi saqlanib turadi. Bu ashyoni dastlabki mulkdorga qaytarish imkoniyati mavjud ekanligidan darak beradi.

Fuqarolik huquqida egasiz ko'char va ko'chmas ashyolarning huquqiy holati belgilab berilgan. Egasiz ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqi qonun normalarida belgilangan shartlarga ko'ra (topilma, xazina, qarovsiz hayvonlar) yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Boshqa ko'chmas ashyolar kabi egasiz ko'chmas ashyolar ko'chmas ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko'chmas ashyo hisobga olinganidan keyin uch yil muddat o'tgach hech kim tomonidan bu ko'chmas mullka nisbatan ma'lum bir huquq ilgari surilmasa, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bu ashyoni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin. Fuqarolik protsessual Kodeksining 298-moddasiga ko'ra, mol-mulkni egasiz deb topish haqidagi ariza moliya organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk turgan joydagi sudga beriladi. Arizada qaysi mol-mulkni egasiz deb topish lozimligi ko'rsatilishi,

shuningdek mol-mulk egasini belgilashning imkoni yo'qligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak. Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlashda mol-mulk kimga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumot berishi mumkin bo'lgan shaxslarni (mol-mulkning mulkdorlari, unga amalda egalik qilib turganlar, qo'shnilar va boshqalarni) aniqlaydi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan mol-mulkka doir mavjud ma'lumotlarni so'raydi. Sud mol-mulkning mulkdori yo'q yoki noma'lum deb topsa, mol-mulkni egasiz deb topish va uni davlat mulkiga o'tkazish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi.

Sudning o'zining hal qiluv qarori bilan egasiz ko'chmas mulkni davlat mulkiga o'tkazishni rad qilgan taqdirda esa, bu ashyo uni tashlab ketgan mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Topilmaning huquqiy holati FKning 192-194-moddalari bilan belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs avtomatik ravishda uning mulkdori bo'la olmaydi. Yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda (1) uni yo'qotgan shaxsni yoki (2) ashyo egasini yoxud (3) uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart. Agarda, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo'lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo'lmish shaxsga topshirilmog'i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo'lga kiritadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs noma'lum bo'lsa yoki uning manzili ma'lum bo'lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to'g'risida militsiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishi shart.

Ashyoni topib olgan shaxs uni o'zida saqlab turishga haqli. Bundan tashqari ashyoni saqlash uchun ashyoni topib olgan shaxs militsiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoxud ular ko'rsatgan shaxsga topshirishga haqli hisoblanadi.

Topilma to'g'risida militsiyaga yoki tegishli davlat organiga xabar qilingan paytdan e'tiboran **olti oy mobaynida** yo'qolgan ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxs aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsga yoxud militsiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ana shu ashyoga bo'lgan o'z huquqi to'g'risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi. Mabodo, ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o'tadi.

Ashyoni topib olgan hamda uni olishga haqli bo'lgan shaxsga qaytarib bergan shaxs ana shu shaxsdan, ashyo davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tgan hollarda esa - tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan ashyoni saqlash, topshirish yoki sotish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxsni topish uchun ketgan xarajatlarni undirish huquqiga ega. Ashyoni topib olgan shaxs uni olishga haqli bo'lgan shaxsdan topilma uchun ashyo qiymatining **yigirma foiziga** qadar miqdorida mukofot talab qilishga haqlidir. Basharti, topib olingan hujjatlar yoki o'zga ashyolar ularni olishga haqli bo'lgan shaxsning o'zi uchungina qimmatga ega bo'lsa, mukofot miqdori shu shaxs bilan kelishuv asosida, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa - sud orqali belgilanadi. Topilgan ashyoni qaytarib berishni talab qilishga haqli bo'lgan shaxs topilma uchun ko'pchilik o'rtasida mukofot va'da qilgan bo'lsa, u ko'pchilik o'rtasida va'da qilingan mukofotni o'sha shartlarga muvofiq to'laydi. Agarda, ashyoni topib olgan shaxs topilma haqida xabar qilmagan bo'lsa yoki uni yashirishga uringan bo'lsa, mukofot olish huquqi vujudga kelmaydi.

Mulk huquqini dastlabki asosda vujudga kelishida egasiz ashyolar qatorida **qarovsiz hayvonlar** ham e'tirof etiladi. Qarovsiz hayvonlar sifatida qarovsiz qolgan yoki adashgan chorva mollari (otlar, eshaklar, mollar, tuyalar, qo'ylar va x.z.) yoki uy hayvonlari (mushuklar, itlar, maymunlar va boshqalar)ni ta'kidlash mumkin. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxs ularni egasiga qaytarishi shart. Agar hayvonlarning egasi yoki uning qayerdaligi noma'lum bo'lsa, uni tutib olgan shaxs tutib olgan paytdan boshlab **uch kundan kechiktirmay** topilgan hayvonlar

to'g'risida militsiyaga, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga xabar qilmog'i lozim. Bu shaxslar esa, hayvonlarning egasini qidirish choralari ko'radilar.

Hayvonlarning egasi qidirilayotgan vaqtda ularni saqlash hamda ulardan foydalanish uchun tutib olgan shaxsda qoldirilishi yoxud zarur sharoiti bo'lgan boshqa shaxsga saqlash va foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxsning iltimosiga ko'ra hayvonlarni boqishi uchun zarur sharoiti bo'lgan shaxsni topish hamda hayvonlarni unga topshirishni militsiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi amalga oshiradi. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxs hamda bu hayvonlar saqlash va foydalanish uchun berib turilgan shaxs ularni lozim darajada saqlashlari shart va hayvonlar nobud bo'lishi yoki shikastlanishi uchun aybdor bo'lsalar, hayvonlarning narxi doirasida javobgar bo'ladilar.

Bundan tashqari, qarovsiz hayvonlarning huquqiy holatini aniqlashda topilmaga tegishli bo'lgan huquq normalari analogik tarzda qo'llaniladi.

Egasiz ashyolar sifatida qonun xazinani alohida ko'rsatib o'tadi. Egasi aniqlanishi mumkin bo'lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo'qotgan xazina, ya'ni yerga ko'milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoxud qimmatbaho buyumlar Xazina sifatida talqin qilinadi. Bu xazina yashirib qo'yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va shu kabilar) mulkdori bo'lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, teng ulushlarda o'tadi. Agar ma'lum bir shartnoma tuzilgan bo'lsa, ulush kelishuvga ko'ra aniqlanadi.

Xazina u yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining rozilgisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi kerak. Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat mulkiga topshirilishi kerak. Bunda xazina yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulkning egasi va xazinani topgan shaxs birgalikda xazina qiymatining ellik

foizi miqdorida mukofot olish huquqiga egadirlar. Agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mukofot bu shaxslar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Bunday xazinani u yashirib qo'yilgan mol-mulk egasining rozilgisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs topib olsa, bu shaxsga mukofot to'lanmaydi va xazina batamom mulkdorning ixtiyoriga o'tadi.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslarga nisbatan esa ushbu qoidalari qo'llanilmaydi.

Mol-mulkka egalik huquqining **hosila usulda** vujudga kelishida ushbu egalik huquqi odatda, mol-mulkni oluvchiga topshirish paytida o'tadi. Mulk huquqi topshirishi payti haqidagi umumiy qoida qonun yoki shartnoma bilan o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. Agar mol-mulkning boshqa shaxsga berish haqidagi shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo'lsa, mol-mulkni oluvchiga mulk huquqi shartnoma ro'yxatdan o'tgandan yoki tasdiqlangan paytdan boshlab, agar shartnomani ham notarial tasdiqlash ham davlat ro'yxatidan o'tkazish zarur bo'lsa – ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Xulosa qilganda mol-mulkka hosila usulda egalik qilish huquqi quyidagi asoslarga ko'ra vujudga keladi: mol-mulk olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, ko'chmas mulkni sotish, ayirboshlash, renta, hadya qilish shartnomalari hamda qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa bitimlar asosida olinganda. Bundan tashqari hosila usullarga mol-mulkni xususiylashtirish, natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodara qilish ham tegishlidir.

Mulk huquqini vujudga keltiruvchi usullardan yana qo'ydagilarni ko'rish mumkin:

1. Umumfuqarolik usullar. Bu usul fuqarolik huquqining har qanday subyekti tomonidan mol-mulkni qo'lga kirtishda foydalanilishi mumkin.
2. Maxsus usullar (natsionalizatsiya, konfiskatsiya, rekvizitsiya). Bu usul qat'iy chegaralangan subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Natsionalizatsiya - fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat. Mazkur mol-mulk keyinchalik denatsionalizatsiya qilingan taqdirda, agar qonunlarda o'zgacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, sobiq mulkdorlar ushbu mol-mulkning qaytarib berilishini talab qilishga haqlidirlar. Masalan, mulkdorga taalluqli bo'lgan san'at asari fuqarolarning umum manfaatini ko'zlab uni qiymati tegishli mutaxassislar tomonidan baholanib, natsionalizatsiya qilinishi mumkin.

Tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tushadigan boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin (rekvizitsiya). Rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin (musodara). Masalan, fuqaro tegishli bojxona qoidalarini buzib mamlakat ichkarisiga tovarlar olib kirayotgan taqdirda, uning tovarlari olib qo'yilishi va davlat hisobiga musodara qilinishi mumkin.

Mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mulk huquqining bekor qilishining ko'pchilik usullari bir vaqtda bir shaxsda mulkka nisbatan mulk huquqini bekor qilishga va ayni vaqtda ikkinchi shaxsda bu mulk ustida mulk huquqini vujudga keltirishga qaratilgan yuridik faktlar. Jumladan; mulkdor tomondan o'z mulkini boshqa shaxsga begonalashtirilishi (turli xil bitimlarni tuzish orqali); mulkdorning mulk huquqidan voz kechishi; majburiyat bo'yicha yetkazilgan zararni undirishni mol-mulkka qaratilishi; xo'jasizlarcha munosabatda bo'linayotgan madaniyat yodgorliklarining,

uy hayvonlarining olib qo'yilishi; rekvizitsiya, musodara; natsionalizatsiya; xususiy lashtirish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

2. Bu guruhda mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan yuridik faktlar soni ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Bularga (a) mulkdan foydalanish natijasida mulkning yo'q bo'lishi va (b) mulkning nobud bo'lishi bilan bog'liq holatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, iste'mol qilinadiga mol-mulklar (ozuq-ovqat mahsulotlari), ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan xom-ashyolar, materiallar, asbob-uskunalar foydalanish natijasida ularga nisbatan mulk huquqi bekor bo'ladi. Mol-mulk fors–major holatlar(zilzila, tabiiy ofatlar)da nobud bo'lishi mumkin. Bunday holatda hych kim mol-mulkning nobud bo'lgani uchun javob bermaydi. Ushbu guruhga kiruvchi yuridik faktlar boshqa shaxslarda mulkka nisbatan mulk huquqini vujudga keltirmaydi.

3.O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari.

Fuqarolik jamiyati – bu shunday jamiyatki, unda kishilar o'zaro bog'liqdirlar hamda bir-birlari bilan va davlat bilan mustaqil ravishda munosabatda bo'ladilar. Bunday jamiyatda ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotni ta'minlash, uni rivojlantirib, avloddan- avlodga yetkazish davlat bilan jamoat birlashmalarining shaxs bilan jamoaning munosabatlarini ma'lum darajada mustaqil ravishda olib borish orqali amalga oshiriladi .

Fuqarolarning jamiyatning asosiy belgilariga kuppartiyaviylik, siyosiy hayotning va siyosiy institutlarning mavkura va fklarning xilma-xilligi, o'zini-o'zi boshqarish organlari mavqeyeyining balandligi , jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining kattaligi kiradi.

Demak, fuqarolik jamiyati- bu teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga kumaklashadigan jamoat institutlarining tuzimidir. Shuni ham takidlash lozimki fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidangina iborat bo'lmay,balki ular faoliyatining natijasida paydo bo'ladigan munosbatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatining milliy va diniy an'analarsiz, odatlarsiz, odob-axloq

normalarisiz va milliy qadriyatlarsiz tassavur yetib bo'lmaydi. Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy madaniy, diniy va boshqa manfaatlarni shakillantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham qamrab oladi.

Jamoat birlashmalari va ularning tizimi.

Jamoat birlashmalari umumiy manfaatdorlik negizida birlashgan, fuqarolarning erkin istaklari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmalardir. Bu jamoat birlashmalariga: Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, fondlar assosiasiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

1991 y 15 fevralda „O'zbekistonda jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Jamoat birlashmalarini tuzishdan maqsad:

(1) Fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarishi va himoya qilish.

(2) Fuqarolarning faoligi va tashabuskorligini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok yetishini rivojlantirish.

(3) Kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarni qondirish:

(4) Ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish.

(5) Aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish.

(6) Madaniy-ma'rifiy, fizkul'tura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish.

(7) Tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini mug'ofaza qilish.

(8) Vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi:

(9) Halqaro aloqalarni kengaytirish, halqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash va boshqalar.

Jamoat birlashmalari o'z faoliyat darajalariga kura qo'yidagilarga bo'linadi:

Respublika jamoat birlashmalari. Ularga o'z nizomida belgilangan faoliyatni butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan, kamida 3. ming a'zosi bo'lgan jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar yoki kasaba uyushmalari

kiradi.

Mahaliy jamoat birlashmalariga –viloyat, tuman, shahar , pasyolka va qishloq jamoat birlashmalari kiradi.

Halqaro jamoat birlashmalari- O'zbekiston Respublikasi va bitta yoki undan kuproq xorijiy davlat hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalaridir.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar?

1. Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda nimani tushunasiz?
2. Mulk huquqini egallashning qanday usullari fuqarolik huquqida qo'llaniladi?
3. Mulk shakllariga baho bering?
4. Qanday ashyolar xususiy mulk huquqining obykti bo'la olmaydi?
5. Fuqarolik jamiyatning mohiyatini tushuntirib bering?

11-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY DAVLAT VA MA'MURIY- HUDUDIY TUZILISHI.

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat tuzilishi va uning asoslari ma'muriy–hududiy tuzilishi va uning prinsiplari .**
- 2. Ma'muriy hududiy tuzilishi masalalarini hal qilish tartibi.**
- 3. Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi.**

Tayanch iboralar: milliy-davlat tuzilishi va uning asoslari ma'muriy–hududiy tuzilishi va uning prinsiplari; ma'muriy hududiy tuzilishi masalalarini hal qilish tartibi.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T:
3. O'zbekiston,1996-249-b
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
5. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
8. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
9. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari

va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

11.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

1. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat tuzilishi va uning asoslari ma'muriy–hududiy tuzilishi va uning prinsiplari .

Davlat tuzilishi davlat shaklining bir turidir. Davlat tuzilishi deganda davlatning siyosiy va ma'muriy hududiy tuzilishi, uning bo'laklari, uning markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlar bilan o'zaro aloqalari hususiyati tushuniladi.

Milliy davlat tuzilishi deganda esa, davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qisimlarining o'zaro munosabatlari, davlat va uning tarkibiy qisimlarining huquqiy holati ularning vakolatlari tushuniladi. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Davlat tuzilishiga va uning shakliga uch narsa ta'sir etadi:

(1)Muayyan davirda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadlar.

(2)Davlatdagi millatlarning soni va o'zaro munosabatlari .

(3)Davlat hududining kata yoki kichikligi.

Davlat tuzilishi oddiy (unitar) va murakkab (Federativ, konfederativ, imperiya) bo'lishi mumkin. M: Rossiya Federasiyasi tarkibiga 21ta Sobiq muxtor Respublikalar kiradi. O'zini mustaqil deb e'lon qilgan respublikalar bilan bir qatorda, muxtor viloyatlar va okruglardan tashqari, Rossiya ma'muriy oblastlari, o'lkalari, Moskva Sankt-Peturburg shaharlari ham federatsiya subyektlari bo'lib kiradilar.

Konfederasiya a'zolari mustaqillikni saqlab qolib, ma'lum bir vazifani bajarishi maqsadida birlashadilar. Konfederatsiyaning umumiy hududi, yagona fuqaroligi va konstitutsiyasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham konfederatsiya mustaqil davlat hisoblanmaydi, u vaqtinchalik ittifoqdir konfederatsiya asosiy maqsadiga erishganidan so'ng tarqalib ketadi yoki tuzilgan ittifoqni mustahkamlab federatsiyaga o'tadi, yoxud qo'shilib o'nitar davlat bo'lib ketadi. M: tarixda AQSH 1776-1787 yillari, Shveysariya-1815-1848 (33 yil), Germaniya 1815-1856(51 yil) konfederativ shakildagi davlat bo'lgan.

Milliy davlat tuzilishi ma'lum prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Ular qo'yidagilardan iborat.

(1) Millatlarning suverinligi va teng huquqligi:

(2) Millat va elatlarning ozod rivojlanishi:

(3) Baynalminallik, milatlarning hamkorligi, do'stligini ta'minlash.

Konstitutsiyaga asosan, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi bo'yicha unitar davlat hisoblanadi. Uning o'nitar deb atalishiga qo'yidagi xususiyatlar sabab bo'ladi:

(1) O'zbekiston Respublikasining hududi tuzilishi bo'yicha yagona birlikni tashkil qiladi:

(2) Davlat hokimiyati, bo'lishni prinsipi asosida tuzilgan bo'lsa ham, Respublika hududida bir butunlikni tashkil etadi va ularning chiqargan huquqiy hujatlari butun O'zbekiston hududiga ta'luqlidir.

(3) Qonunchilik tizimi ham butun O'zbekiston hududiga ta'luqli bo'lib, O'zbekiston konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi asosida amal qiladi:

(4) Prokratura organlari va sud hokimiyat tizimi butun O'zbekiston hududida yagonadir:

(5) O'zbekiston tashqi siyosatni butun O'zbekiston halqining manfaatini ko'zlab va uning nomidan faqat u saylab qo'ygan Oliy Majlis va Respublika Prezidenti amalga oshirishi mumkin:

(6) O'zbekistonda moliya, soliq, bojxona, tuzilishi va Respublika qurolli kuchlari, milliy xavsizlik va ichki ishlar organlari xizmati markazlashtirilgan.

(7) Butun O'zbekiston hududida yagona fuqarolik joriy qilingan.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi.

Ma'muriy-hududiy bo'linmalar deganda har bir davlatning joylardagi hududiy bo'laklari tushuniladi.

Ma'muriy- hududiy bo'linishi ikki holda namoyon bo'ladi.

a) Siyosiy-hududiy bo'linish:

b) Ma'muriy-hududiy bo'linish:

Ma'lum davlat hududida siyosiy jihatdan alohida davlat (mustaqil yoki muxtoriyat shaklda) mavjud bo'lsa, bunday davlatning hududiy bo'linishi murakkab hisoblanib, u siyosiy-hududiy bo'linishga ega bo'lgan davlat deyiladi. Agar davlat faqat ma'muriy-hududiy bo'laklardan iborat bo'lsa, bunday davlat ma'muriy-hududiy bo'linishga ega davlat deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining prinsiplari qo'yidagilardan iborat:

(1) Iqtisodiy prinsip.

(2) Siyosiy prinsip.

(3) Milliy- maishiy prinsip.

(4) Davlat aparatini ommaga yaqinlashtirish prinsipi.

Ma'muriy hududiy tuzilishi masalalarini hal qilish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy birligining turlari. Ularning tashkil etish va o'zgartirish tartiblari.

Hozirgi O'zbekiston hududi 1917 yil 6 oktabrdagi davlat to'ntarilishiga rasman Rossiyaning kaloniyasi hisoblanib, uning ma'muriy hududiy tuzilishi Rossiya qonunlari bilan belgilanar edi. 1917 yilgi oktabr' inqilobidan so'ng, O'zbekiston hududida yangidan tashkil qilingan RSFSR qonunlari amal qiladigan bo'ldi.

Ma'muriy-hududiy birlik davlat aparatini tuzimi bilan bog'liq.. RSFSR davlati o'z davlat aparatlari bilan bir qatorda yangi ma'muriy-hududiy bo'laklarni tashkil qiladi. Bu ish 1922 yildan boshlab Sovet Ittifoqini tuzish jarayonida ayniqsa qizg'in tus oldi. Chunki SSSR davlati hududi unga qo'shilib olinadigan boshqa ittifoqchi davlatlar hududlari hisobiga tashkil topishi kerak edi.

Bu esa bo'lg'usi SSSR davlati va rasman mustaqil hisoblanib, uning tarkibiga

kiruvchi ittifoqdosh respublikalar oldiga katta ma'muriy-hududiy masalalarni hal qilish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ygan edi.

Mazkur muammo ayniqsa, Markaziy Osiyo halqlari o'rtasida alohida ahamiyat kasb etdi xususan, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi jarayoni dastlab ikki bosqichda o'tkaziladi. Bu tadbir O'zbekiston davlati tarixiga ma'muriy-hududiy rayonlashtiriv degan nom bilan kirib keldi.

Uning birinchi bosqichi, O'rta Osiyo milliy davlat chegaralanishi, deb nom oldi va ular 1924-25 yillarda o'tkazildi.

Ikkinchi bosqich oblast', uye'zd, volost', qishloq soveti shakillaridagi to'rt bo'g'inli ma'muriy bo'linishdan- okrug, rayon, qishloq soveti shakillariga o'tish orqali amalga oshirildi. 1930 yildan boshlab okrug ma'muriy birligi oblast' birligi bilan almashtirildi.

Rayon sovetlari o'zlari joylashgan rayon hududlarida siyosiy madaniyat – ho'jalik sohalarini boshqarib borishlari kerak edi. O'zbekistonda rayonlashtirish tadbirlari amalga oshirilguncha, ularning hududi Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Zarafshon, Surxandaryo, Qashqadaryo, Xorazim oblastlaridan iborat yettita ma'muriy-hududiy birliklardan tashkil topgan edi. Mazkur yettita oblast', o'z navbatida 22 u'yezdga va 241 volostga bo'lingan edi.

Mustaqil O'zbekistonning ma'muriy- hududiy tuzilishi o'zining konstitutsiyaviy kafolatlariga egadir. Jumladan, konstitutsiyaning 16-bobi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga bog'ishlangan Mazkur bobning 68-moddasi O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat degan normani mustahkamlab qo'ygandir.

69-moddada esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining roziligi bilan amalga oshirilishi qonunlashtirilgan. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustdagi O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponimik obektlarga nom berishi va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarni

hal qilish tartibi to'g'risidagi qonunida O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi shakllari va ularni hal qilish tartibi ko'rsatilgan. Bu qonunga asosan (1-modda), viloyatlarni tuzish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining taklifiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining aholi punktlari shahar va qishloq joylariga bo'linadi. Shahar joylariga shahar va shahar posyolkalari, qishloq joylariga esa qishloqlar va ovullar kiradi.

Har bir ma'muriy-hududiy birlikda davlatning mahalliy vakillik organlar hokimiyati yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tashkil etiladi.

Viloyat ma'muriy-hududiy bo'linmalari bo'lishi uchun 2-ta sifatga ega bo'lishlari kerak.

(1) Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarish birligi.

(2) Viloyat ishlab chiqaruvchi bo'linishi kerak ya'ni ishlab chiqarishi ehtiyojdan, sarfdan yuqori bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududi hozirgi davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan tashqari 12ta yirik viloyatlardan iboratdir. Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyasining 16- moddasida ko'rsatilishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi rayonlaridan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat.

Rayonlarni, shaharlarni tashkil qilish va ularni tugatish, shunengdek, ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi tomonidan amalga oshiriladi. Unda viloyatlar mavjud emas.

1996 yil 30 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponimik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to'g'risidagi qonunda shaharlarini aholi soniga, ishlab chiqarishi sanoatiga qarab toifalarga ajratish tartiblari ko'rsatilgan. M: viloyat, respublika (Qoraqalpohiston Respublikasi) itoatidagi shaharlar turkumiga kamida 30ming aholisi bo'lgan, muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan, ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan

shaharlar kiritilishi mumkin. Hozir respublikada shaharlar soni 51 ta qonunining moddasiga muvofiq, tumanga bo'ysunadigan shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 7 ming aholisi bo'lgan sanoat korxonalari va rivojlangan infrastrukturasi mavjud shaharchalar, aholi punktlari kiritilishi mumkin. Bu masalani hal qilish tegishli viloyat hokimiyatlarning iltimosnomasiga asosan Vazirlar mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar (posyolka) turkumiga sanoat korxonalari qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obektlari yaqinida joylashgan hamda qoida tariqasida kamida 2 ming aholisi bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin.

Shahar hududlariga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan qishloq markazlari va ma'lum sanoat obektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo'lib hisoblanadilar.

Ovullar esa qishloqlarga qaraganda kichikroq hajimdagi yashash va turar joylardan iborat aholi punktlaridir. Ovullarda ko'p hollarda chorvador oilalar istiqomat qilib ular asosan ko'chib yuruvchi bir necha chuponlar oilalaridan tashkil topadi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi konstitutsiyaviy maqomi .

Qoraqalpog'iston Respublikasi suveren demokratik davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga asosan (70-modda) Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyasi va ularning o'zaro shartnomalari asosida belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy holati birinchi navbatda, uning mustaqil davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi, uning butun to'liq hokimiyat egasi (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) ekanligini bildiradi.

Ikkinchi belgi uning o'z hududiga ega ekanligidir. Qoraqalpog'iston

Respublikasi hududi buzilmas va daxilsizdir Qoraqalpog'iston millati o'z yeriga o'z boyliglariga o'zi egalik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi konstitutsiyaviy- huquqiy holatini belgilovchi yana bir xususiyat shundaki, bu respublika o'zining konstitutsiyaviy huquqiy tizimiga ega. Ularga Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyasi respublika qonunlari va o'z vakolati yuzasidan qabul qilingan boshqa huquqiy normativ aktlar, Qoraqalpog'istonning O'zbekiston bilan tuzgan shartnoma va bitimlari kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining vakillik qonun chiqaruvchi organ Jo'qorg'i kengesiga, Vazirlar kengesiga, sud tizimi Respublika Oliy sudi, Respublika xujalik sudi, konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Respublika prokratura organlariga ega

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday davlat demokratik davlat hisoblanadi?
3. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini tavsiflab bering?

12-Mavzu: O'ZBEKISTONDA QONUNCHILIK HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Reja:

- 1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat va uni tashkil qilish tartibi.**
- 2. Oliy majlis palatalarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi.**
- 3. O'zbekistonda saylov huquqi va tizimi.**
- 4. Referendum va uni o'tkazish tartibi hamda shartlari .**

Tayanch iboralar: davlat hokimiyati organlari; Oliy vakillik organining tuzilishi; Qonunchilik palatasi va senatning vakolatlari; saylov huquqi; saylov tizimi; referendum va uni o'tkazish tartibi; referendumga oid qonun hujjatlari;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: 3. O'zbekiston,1996-249-b
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
5. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
6. O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risidagi qonun.(Yangi tahriri).03.12.2004 y.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
9. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston

respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).

11.Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21.702).

13.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat va uni tashkil qilish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.U ikki palatadan qonunchilik palatasi (qo'yi palata)va senatdan (yuqori palata)dan iborat.Ularning har ikkalasining vakolati 5-yil. Oliy Majlisning qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 135-deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlsining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6-kishidan saylanadi. 16-nafar a'zosi Prezident tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida 5-yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi deputati shunengdek Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi va senatining birgalikdagi vakolatlari qo'yidagilardan iborat:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
- 2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
- 3) O'zbekiston respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash hamda qaror qabul qilish.
- 4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish:
- 5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash.
- 6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqish haqidagi qarorlarini tasdiqlash.
- 7) Boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish.
- 8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish.
- 9) Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish.
- 10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy- hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish.
- 11) Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish.
- 12) Davlat mukofotlari va unvonlarini ta'xis etish.
- 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash.
- 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasini tuzish.
- 15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash .
- 16) O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining inson huquqlari bo'yicha

vakili va uning o'rinbosarini saylash.

17) O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish .

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash.

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulotda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash .

20) Halqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsasiya qilish Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan maslalar avval qonunchilik palatasida , so'ngra senatda ko'riladi.

2. Oliy Majlis palatalarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi.

Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari:

1)Qonunchilik palatasi Spekeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash.

2)Bosh prokrorning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisinig qonunchilik palatasi deputatini daxilsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish.

3) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoyidalarini bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

4) Siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shunengdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Senatning mutloq vakolatlariga:

(1) Senat Raisining va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash.

(2) Prezidentning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash.

(3)_____ "_____ "Oliy sudini

saylash

(4)_____”_____”Oliy xo'jalik sudini saylash.

(5)_____”_____”tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish:

(6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston bosh prokrori va uning o'rn bosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash.

(7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy Xavfsizlik xizmati rayisini tayinlash va uni lovozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash.

(8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish.

(9) O'zbekiston Respublikasining Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish.

(10) O'zbekiston Respublikasining Prezidentining taqdimiga binoan aministiya to'g'risidagi hujatlarni qabul qilish.

(11) O'zbekiston bosh prokrorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Senati a'zosini daxilsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish.

(12) O'zbekiston Renspublikasi Bosh prokrorining, Tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish.

(13) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki-tartib qoyidalarini bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

(14) Siyosiy,ijtimoiy_iqtisodiy hayot soxasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shunengdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasi va senatining1-chi majlislari tegishlicha qonunchilik

palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va senat tarkib topganidan keyin 1-oydan kechiktirmay Markaziy Saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Qonunchilik palatasining majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar qoida tariqasida sentabrning 1chi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi .

Senat majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida 3-marta o'tkaziladi.

Oliy majlis palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok eayotgan bo'lsa, vakolatli xisoblanadi, Konstutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida 2/3 qismi ishtirok etishi shart.

Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

Palatalarning qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotining, va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga (1) Prezident (2) O'zbekiston davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, (3) Qonunchilik palatasi deputatlari (4) Vazirlar mahkamasi (5) Konstitutsiyaviy sud, (6) oliy sud, (7) Oliy xujalik sudi, (8) Bosh prokror.

3. O'zbekistonda Saylov huquqi va tizimi.

Saylov huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Oliy Majlisi va halq deputatlari viloyatlar, tumanlar, shahar kengashlarining saylovi ketganda kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar yig'indisidir.

Professor A.Saidov „Saylov huquqi“ tushunchasini va iborasini ikki ma'noda ishlatadi. Birinchidan, bu saylov huquqi saylab qo'yiladigan organlarni shakillantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tuzimidir. Ikkichisi, bu fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarni tuzishda qatnashish ya'ni ularning tartibini saylash (faol saylov huquqi) va unga O'zlarining saylanishi (passiv saylov huquqi) huquqlaridir. (Saidov.A.X. Saylov huquqi –T,1993- i-b)

O'zbekiston Respublikasi Saylov huquqi o'z manbalariga ega

(1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,(23-bob) Qaroqolpog'iston Respublkasi Kengasi (22-bob) saylov to'g'risidagi normalar .

(2),„O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”gi qonun, „O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi qonun, „Halq deputatlari viloyatlar, tumanlar, shahar kengashlariga saylov to'g'risida”gi qonun, „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun, „Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun.

Saylov huquqining prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari umumiylik, teng saylov huquqi, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi, o'z xohish-irodalarini erkin bildirish va yashirin ovoz berish prinsiplariga asosan saylovni amalga oshiradilar.

Umumiy saylov huquqi shuni anglatadiki, O'zbekiston Respublikasining 18-yoshga kirgan har bir fuqarosi saylov huquqiga egadir. 35 yoshdan kichik bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari Respublika Prezidenti etib saylanish huquqiga, 25 yoshga tug'ulgan fuqarolar Oliy majlisga saylanish huquqiga, 21 yoshga to'lgan fuqarolar hokimiyatning mahaliy vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar.

Teng saylov huquqining ma'nosi shundan iboratki,

Har bir fuqaro saylovchi bir ovozga ega: saylovda hamma teng asoslarda qatnashadi: ayollar va yerkaklar teng saylov huquqlariga ega huquqlaridan foydalanadilar: hech kim saylovda boshqa shaxslarga nisbatan biron bir afzalikka ega emas.

To'g'ridan to'g'ri saylov huquqi hokimiyat organlariga saylov to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilishini bildiradi: saylovchilar o'z nomzodlariga saylov vaqtida bevosita ijobiy yoki qarshi ovoz berishlari mumkin.

Davlat vakillik organlariga saylov o'tkazish tartibi saylovchilar ro'yxatini, saylov okruglarini va uchastkalarini tuzish.

Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to'ladigan ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylovchilar

ro'yxatiga kiritiladi.

Saylovchilarning ro'yxatlari saylovga 15 kun qolganda O'zbekiston Respublikasi chet eldagi vakolatxonasida, sanatoryalar va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa stasionar davolash muassasalarida. O'lis va borish qiyin bo'lgan joylarda tuzilgan saylov uchastkalarida esa saylovchilarga yetti kun qolganda hamma tonishishi uchun taqdim qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilish hududiy prinsipga asoslanadi. Bu degan so'z saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi. Saylov okrugi bu saylov o'tkazish uchun qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hududiy saylov birligidir.

Oliy majlisga saylov o'tkazish uchun 250 ta hududiy saylov okruglari ro'yxatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatgan holda saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan 15 kun ichda e'lon qiladi

Viloyatlar va toshkent shahar kengashilariga 60 tadan ko'p bo'lmoq tuman va shahar kengashlariga 30 tadan ko'p bo'lmoq hududiy saylov okrugi tuziladi.

Saylovda ovoz berishni o'tkazish va saylovlarning bergan ovozi sanab chiqish uchun saylov uchastkalari tashkil qilinadi. Saylov uchastkalari saylov tayinlanganidan keyin 30 kundan kechikmay tuziladi. Harbiy qisimlarda, o'lis va borish qiyin bo'lgan yerlarda ham saylov uchastkaalari ana shu muddatda, ayrim hollarda esa- istisno tariqasida saylovga kamida 5-kun qolganda tuziladi. Saylov uchastkalari, qoyida tariqasida kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchidan iborat etib tuziladi. Ovoz berishni tashkil etish uchun har bir saylov uchastkasiga tuman, shahar hokimligi bino ajratadi.

4§ Referendum va uni o'tkazish tartibi.

Referendum (lotincha referendum- xabar etilishi kerak bo'lgan narsalar)- alohida jamiyat va davlat ahamiyatiga molik masalani xal qilish uchun umumxalq ovoziga surovnom qo'yishdir. Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining oliy shakli- referendumda qatnashib ovoz berishdir. O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi qonun 18.11.1991 y. 2001 yil29-

avgust. Mazkur Qonunga O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

Qonun 7-bobdan iborat:

I. Umumiy qoidalar; II. Referendumni tayinlash; III. Referendum okruglari va uchastkalari; IV. Referendum o'tkazuvchi komissiyalarni tuzish va ularning vakolatlari; V. Ovoz beruvchi fuqarolarning ro'yxatlari. Referendumda ovoz berish byuleteni; VI. Ovoz berish va referendum natijalarini aniqlash; VII. Referendumda qabul qilingan qarorlarning e'lon qilinishi, kuchga kirishi va majburiyligi; VIII. Yakunlovchi qoidalar

O'zbekiston Respublikasining referendumi (bundan buyon matnda referendum deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Referendum O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi.

Quyidagi masalalar referendum predmeti bo'lishi mumkin emas:

O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar;

amnistiya va avf etish;

jamoat tartibini, aholi sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish;

mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish.

Quyidagilar Referendum o'tkazilishini istisno etadigan holatlar hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining butun hududida joriy etilgan harbiy vaqt yoki favqulodda holat sharoitlarida, shuningdek harbiy vaqt tugagan yoki favqulodda holat bekor qilingandan keyin uch oy davomida referendum o'tkazilmaydi.

Referendum natijalari rasman e'lon qilingandan keyin bir yil davomida mazmun yoki ma'nosiga ko'ra xuddi shunday savol qo'yilgan referendum o'tkazilmaydi.

Referendum o'tkazishning asosiy prinsiplari:

Referendum fuqarolarning o'z xohish-irodasini umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining referendumda ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini referendumda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga, shuningdek xohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hych kim haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari referendumda teng asoslarda ishtirok etadilar. Har bir fuqaro bir ovozga ega bo'ladi.

Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari referendumda bevosita ishtirok etadilar.

Fuqarolarning o'z xohish-irodasini bildirishi nazorat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Referendumda ishtirok etish huquqi:

Referendum o'tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to'la haqlidir.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud xukmi bilan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatiga qarab

fuqarolarning referendumda qatnashish huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash man etiladi.

Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda ochiqlik:

Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda siyosiy partiyalardan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Manfaatdor tashkilotlar, fuqarolar tashabbuskor guruhlari o'z kuzatuvchilari to'g'risida okrug komissiyalariga referendum o'tkazilishiga kechi bilan o'n besh kun qolganida ma'lum qiladilar. Referendum o'tkazuvchi okrug komissiyasi manfaatdor tashkilotdan, fuqarolar tashabbuskor guruhidan ariza olganidan keyin besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan namunadagi mandatni kuzatuvchi uchun beradi.

Referendumni o'tkazish tashabbusi bilan:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari; (O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son qonuni taxriridagi xat boshi)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining referendumni o'tkazish tashabbusini amalga oshirish tartibi: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari agar, referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida besh foizini tashkil etgan fuqarolar imzosi to'plangan bo'lsa, basharti bunda imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir ma'muriy-hududiy tuzilma (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha bir tekis va mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lsa, referendumni o'tkazish tashabbusi huquqini amalga oshiradilar

O'zbekiston Respublikasining referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan har bir fuqarosi yoki fuqarolar guruhi referendumni o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi imzolarni to'plash uchun kamida yuz kishidan

iborat tashabbuskor guruhni tuzishi mumkin. Fuqarolar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili guruhni ro'yxatdan o'tkazishni so'rab O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

fuqarolar tashabbuskor guruhi a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, turar joy manzili, pasportining seriyasi va tartib raqami ko'rsatilgan ro'yxati;

fuqarolar tashabbuskor guruhi yig'ilishining vakolatli vakilni tayinlash to'g'risidagi qarori va uning nomiga qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma;

fuqarolar tashabbuskor guruhi referendum o'tkazish to'g'risida tashabbus ko'rsatib qaror qabul qilgan yig'ilishining bayoni;

referendumga olib chiqish uchun fuqarolar tashabbuskor guruhi taklif etayotgan masalaning (masalalarning) ta'rifi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarning ushbu qonun talablariga muvofiqligini aniqlagach, ular tushgan kundan e'tiboran besh kun ichida fuqarolar tashabbuskor guruhini ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Fuqarolar tashabbuskor guruhini ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin vakolatli vakilga tegishli ro'yxatdan o'tganlik guvohnomasi beriladi.

Fuqarolar tashabbuskor guruhini ro'yxatga olish rad etilgani taqdirda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi asosli javob beradi.

Fuqarolar tashabbuskor guruhi o'zining vakolatli vakili ro'yxatdan o'tganlik guvohnomasini olganidan keyingina referendumni o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlovchi imzolar to'plashga haqlidir. Bunda fuqarolarning ilgari to'plangan imzolari hisobga olinmaydi. Fuqarolar tashabbuskor guruhiga berilgan ro'yxatdan o'tganlik guvohnomasi uch oy mobaynida haqiqiydir. Imzolar to'plash bo'yicha xarajatlarni fuqarolar tashabbuskor guruhi qiladi.

Imzo varaqalarining shaklini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi belgilaydi. Imzo varaqasida referendumga qo'yilayotgan masalaning ta'rifi bo'lishi kerak.

Fuqarolar imzo varaqasida o'z familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, turar joy manzili, pasportining seriyasi va tartib raqamini, shuningdek imzo qo'yilgan sanani ko'rsatadilar.

Referendumga qonun loyihasi qo'yilgan taqdirda, imzolar to'plashni o'tkazayotgan shaxs fuqaroning talabiga binoan shu qonun loyihasining matnini taqdim etishi kerak.

Imzo varaqasini imzolarni to'plagan shaxs, shuningdek fuqarolar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili tasdiqlaydilar, bunda ular o'z familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joy manzili, pasportining seriyasi va tartib raqamini ko'rsatadilar.

Fuqarolarning imzosini to'plash ish, xizmat, o'quv, turar joyida, shuningdek tashviqot qilish va imzolar to'plash qonunlar bilan taqiqlanmagan boshqa joylarda o'tkaziladi. Bunda imzolar to'playotgan shaxs fuqarolarni har qanday shaklda majburlashi va o'ziga og'irib olishiga yo'l qo'yilmaydi.

Imzolar to'planganidan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi, har bir viloyat va Toshkent shahri bo'yicha alohida-alohida jildlarga tikilgan imzo varaqalari, shuningdek fuqarolar tashabbuskor guruhining yakuniy bayoni fuqarolar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga topshiriladi.

Hujjatlarni taqdim etgan shaxsga O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xujjatlar qabul qilib olingan sana va vaqt ko'rsatilgan ma'lumotnoma beradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tushgan hujjatlarning ushbu qonun talablariga muvofiqligini tekshiradi va imzo varaqalari tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga o'z xulosasini yuboradi hamda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentini xabardor qiladi. (O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son qonuni taxriridagi qism)

Agar tekshirish natijasida imzolarni qalbakilashtirish hollari, ushbu qonunning boshqa buzilishlari aniqlansa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbus haqiqiy emasligi haqida qaror chiqaradi. Mazkur qaror nusxasi fuqarolar tashabbuskor guruhiga yuboriladi.

Referendum tayinlash huquqi: Referendum O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti referendum o'tkazish tashabbuskori bo'lgan taqdirda u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaat etishi yoki referendum o'tkazish to'g'risida o'z qarorini qabul qilishi mumkin. Referendunga qo'yilayotgan masalaning matni referendum tayinlanganda ma'qullanadi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni kim amalga oshiradi?
2. Saylov huquqining prinsiplari nimalardan iborat?
3. Referendum o'tkazish tashabbusiga kimlar ega?
4. Referendum o'tkazishni istisno qiladigan holatlar?

13 - Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI.

Reja:

- 1. O'zbekistonda Prezidentlik Respublikasi boshqaruvining joriy etilishi.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.**
- 3. Vazirlar Mahkamasi va uning vakolatlari.**

Tayanch iboralar: davlat boshqaruvi shakllari; Prezidentlik Respublikasi; Prezidentning vakolatlari; Vazirlar Mahkamasi va uning vazifalari; Prezident tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlar;

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
4. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risidagi qonun.(Yangi tahriri).03.12.2004 y.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
8. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston

- respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
9. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21.702).
- 11.O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.

1. O'zbekistonda Prezidentlik Respublikasi boshqaruvining joriy etilishi.

Prezidentlik hokimiyati instituti faqat hokimiyatning bo'linishi prinsipiga asoslangan mamlakatlarga xos holatdir. Demokratyani, jamiyatni rivojlantirishning tezlashuvi davlatchilik tizimining asta-sekin yangilanishi, prezidentlik lavozimining demokratik tabiatini belgilovchi kafolatlarning SSSR konstitutsiyasida mustahkamlanishi 1990 yilda Sovet itifoqida Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi ittifoqdosh respublikalar ichida 1-chi bo'lib Prezidentlik boshqaruviga o'tdi va Respublikada prezidentlik lavozimi ta'sis etildi.

Prezidentlik Respublika shaklidagi davlatlarda respublika Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi.

Respublika Oliy Kengashi qonunida takidlanishicha „mazkur konstitutsiyaviy institutlarining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish, siyosiy islohatlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzimni mustahkamlash, O'zbekiston jamiyat va boshqaruv organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirishdan iboratdir.

„O'zbekiston SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston

SSSR Konstitutsiyasi (asosiy qonun) o'zgartirishi va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun Sovet O'zbekistoni 1990 4-aprel'.

Demak, prezidentlik lavozimi O'zbekistonda nisbatan yangi lavozimdir. U ijroiya hokimyatini mustahkamlash maqsadida vujudga keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi 1990 y 24 martda Respublika Oliy Kengashining 12-chaqiriq birinchi sessiyasida ta'sis etildi va shu munosabat bilan O'zbekistoning 1978 yilgi konstitutsiyasiga Respublika Prezidenti haqidagi maxsus yangi 12-bob kiritildi. Respublika Konstitutsiyasiga kiritilgan 118-modda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'i deb e'lon qilindi. Shu bobning keyingi moddalarida Respublika Prezidentiga qo'yiladigan talablar, uni saylash tartibi ko'rsatilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining 1-chi Prezidenti Oliy Kengashning shu sessiyasida halq deputatlari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylandi. Shundan keyin ijro etuvchi va boshqaruv hokimyatning tuzilishi takomillashtiriladi. Respublika Ministirlar Soveti Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

1991 yilning 29 dekabirdagi referendumda O'zbekiston halqi mamlaktimizning mustaqil rivoji uchun ovoz berdi va tariximizda ilk marotaba bevosita umumiy teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan Respublika Prezidentini saylaydi. 1991 yilda O'zbekistonda bo'lib o'tgan respublika Prezidentligiga saylov „O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi 1991 yil 18 noyabr' qonuniga asosan amalga oshirilgan. 1991 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylashda 10mln 515 ming 66 saylovchidan, 9 mln 915ming 181 kishi yoki saylovchilarning 94,3 foizi saylov bulleteni oldilar saylovda 9mln 900 ming 58 kishi yoki saylovchilarning 94,2 foizi ovoz berdilar. Respublika Prezidentligiga nomzod I.A.Karimov uchun 8 mln 514 ming 136 saylovchi yoki jami saylovchilarning 86 foizi ovoz berdi. Boshqa nomzod uchun 1mln 220 ming 474 saylovchi yoki jami saylovchilarning 12,3 foiz ovoz berdi. Uchastka saylov komissiyalari tomonidan 129 ming 823 bulleten yoki jami byulletinlarning 1,3 foiz haqiqiy emas deb topildi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakuni O'zbekiston Respublikasida mustaqil davlatning paydo bo'lishi - T:1992-50 b).

1995 yilning 26 martida o'tkazilgan referendum Prezident vakolatini 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirdi.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomiga, 93-moddasi Prezidentning vakolatlariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyada ko'rsatilgan vakolatlarini maqsadi, mazmuniga ko'ra, shartli ravishda bir necha guruhga bo'linishi mumkin (1) qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlar (2) Davlt organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar: (3) Fuqarolarning huquq erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi vakolatlar. (4) halqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar.

(1) Qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlari: Respublika Prezidenti Davlat rahbari sifatida qonunchilik jarayonining bevosita ishtirokchisidir. Konstitutsiyaning 83-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. U Oliy Majlis qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini yoki biror masala bo'yicha qonun ishlab chiqishni taklif etishi mumkin.

Konstitutsiya 93-moddasining 17-bandiga asosan, respublika Prezidenti Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarni imzolaydi. Bu holat esa Oliy Majlis qabul qilgan qonun faqat respublika Prezidenti imzosidan keyingina kuchga kirishini bildiradi. Qonunga e'tirozi bo'lganda, Prezident o'z e'tirozlarini ilova qilib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yishi uchun Oliy Majlisga qaytarishga, tasdiqlashni kechiktirishga haqli.

Qonunni qabul qilish tartibi.

A. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran 10-kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullash yoki uni rad etishi to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining 2/3 qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston

Respublikasi Prezidentiga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

B. Senat tomonidan ma'qulangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga 10 kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun 30 kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan va qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullash uchun Senatga qaytadann kiritilgan qonunni Senat ko'rib chiqib, uni ma'qullash yoki rad yetishi to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda Senat a'zolari umumiy sonining kamida 2/3 qismidan iboratko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 14kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Prezident qonuniylikning ta'minlashning kafilidir. Uning bu sohadagi faoliyati qonuniylikni ta'minlashda ishtirok etuvchi organlarni tuzishda, Ularning faoliyatini nazorat qilib turishda o'z ifodasini topadi.

(2) Davlat organlarini tuzishdagi vakolatlari.

Ijro etuvchi hokimyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi: respublika Oliy Hokimyat va boshqaruv organlarining va hamjihat ishlashini ta'minlaydi: vazirliklar davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi

Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Senatiga taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodni taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi. Bosh vazirning taqdimiga binoan Vazirlar maxkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimidan ozod qiladi. Bosh prokror uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni senat tasdig'iga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tasdig'iga Konstitutsiyaviy Sud

raisi va sudyalar, Oliy sud raisi va sudyalari Oliy xujalik sudi raisi va sudyalari, Markaziy Bank boshqaruvining raisi tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi. Viloyatlar, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Viloyat hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritadi.

Konstitutsiyani qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga hakli. Bundan tashqari Prezident milliy xavsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni senat tasdig'iga kiritadi.

Prezident Qurolli kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi Qurolli kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi oliy harbiy unvonlar beradi.

Konstitutsiyaning 95-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasi yoki senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir-necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shunengdek qonunchilik palatasi bilan senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tarqatib yuborilishi mumkin. Yangi saylovlar 3-oy ichida o'tkaziladi.

(3) Respublika Prezidentining fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlarini soxasidagi vakolatlari

O'zbekiston Konstitutsiyasida Respublika Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir, deb

belgilangan. Respublika Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklarini respublika hududidagina emas, balki uning tashqarisida, boshqa chet davlatlar hududlarida ham ta'minlashning asosiy kafili bo'ladi.

Prezident Respublika Fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikdan chiqarish, siyosiy boshpana berish masalalarini ham hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va faxriy yorliqlari bilan fuqarolarni mukofatlaydi. Respublika Prezidenti fuqarolar xavsizligini saqlash uchun kerakli choralar ko'radi. Jumladan, Favqulotda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik holat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz borgan taqdirda, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulotda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini 3kun ichida oliy majlis palatalari tasdig'iga kiritadi.

Shunengdek, Prezident davlat miqyosidagi katta bayramlar va tantanalarga bag'ishlab, aminsiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi.

(4) Respublika Prezidentining halqaro munosabat sohasidagi vakolatlari.

Respublika Prezidenti 1-chi navbatda mamlakat halqaro siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, o'z davlatining vakili sifatida halqaro munosabatlarda yuqori vakillikni olib boradi: chet davlatlar va halqaro tashkilotlar bilan muzokaralar o'tkaziladi, bitim va shartnomalar tuzadi, ularni izlaydi, respublikaning tuzilgan hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Respublika Prezidenti o'z huzurida akreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi: O'zbekiston Respublikasining Chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlaydi hamda lovozimlaridan ozod qiladi: respublika oliy majlisiga har yili ichki va halqaro ahvol xususida ma'lumotnoma taqdim etiladi.

Respublika Prezidenti mamlakatimizga hujum qilishganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish bo'yicha tuzilgan shartnoma majburiyatlarni bajarishi zarurati tug'ilganda urush holati e'lon qilishi huquqiga ega va bu to'g'risidagi

qarorni 3-kun ichida Oliy majlis palatalarining tasdig'iga kiritadi.

3§ Vazirlar mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi - Hukumati O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir. Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari kiradilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i o'z lavozimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi hamda uni vazifasidan ozod qiladi. Vazirlar Mahkamasining a'zolarini Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi va vazifasidan ozod qiladi. Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislari

Davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarini Bosh vazir o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining majlislarini tayyorlash va o'tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti bilan belgilanadi.

Quyidagilar faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko'rib chiqiladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamini oshirish to'g'risidagi takliflar;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi takliflar;

davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yxati;

qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi takliflar.

Bosh vazir

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi hamda uning samarali ishlashi uchun shaxsan javob beradi.

Bosh vazir:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

Davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Vazirlar Mahkamasining Rayosati

Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bosh vazirning qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi. Vazirlar Mahkamasining normativ tUSDagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasining normativ tUSDagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng ommaga darhol yetkazish zarur bo'lgan taqdirda esa ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni

Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislariga tayyorgarlik ko'rish, tegishli qarorlar loyihalarini, tahliliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun Vazirlar Mahkamasining devoni faoliyat ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasining devoni va uning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining devoni

asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

1993-yil 6-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunni 2003 yilda yangi tahrirda yana bir bor qabul qilindi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vaolatlari nimalardan iborat?
2. Prezident qanday tartibda saylanadi?
3. Ijro faoliyatini respublikada qaysi davlat organi amalga oshiradi?
4. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qay tartibda shakllantiriladi?

14-Mavzu: O'ZBEKISTONDA MAHALLIY HOKIMIYAT IDORALARI.

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlari tizimi.**
- 2. Mahaliy davlat hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy vazifalari**
- 3. Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini tuzilishi tartibi va vazifalari.**

Tayanch iboralar: mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlari tizimi; mahaliy davlat hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy vazifalari; Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini tuzilishi tartibi va vazifalari.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2009.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
6. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).

7. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
9. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
10. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
11. O'zbekiston Respublikasining mahaliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil yetish to'g'risida»gi 1992 yil 4 yanvar qonuni
12. „Mahaliy davlat hokimiyati to'g'risida»qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan qonun va qarorlar. O'n ikkinchi chaqiriq 11 sessiya 1993yil 2-3 sentabr'-1994.-13-b.

1. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlari tizimi.

«O'zbekiston Respublikasining mahaliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi 1992 yil 4 yanvar qonuni respublikada mahaliy hokimiyat organlarining Yangi tizimi vujudga kelishishida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu qonunda ko'rsatilishicha, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitida ijroiya hokimiyatni mustahkamlash zarurligi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasining viloyatlar, tumanlari va shaharlarida vakillik hokimiyatiga hamda ijroiya- boshqaruv hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimini ta'sis etish lozim deb topildi. Ushbu qonunga binoan, viloyatlarning hokimlari respublika Prezidentining joylardagi rasmiy vakillari

bo'lib tegishli viloyat kengashlariga hisob beradilar. Ular Prezident tomonidan tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar hamda halq deputatlari tegishli viloyat kengashlari tomonidan tasdiqlanadilar: tuman va shaharlarning hokimlari tegishli tuman, shahar kengashlari tomonidan tasdiqlanadilar. Bu qonun qabul qilingach, mahalliy hokimiyat organlari tizimi va ularning shakllanishiga katta o'zgarishlar kiritildi: jumladan, mahalliy hokimiyat organlari 2 mustaqil organlariga (vakillik va ijroiya hokimiyatiga) bo'linadi: ijroiya hokimiyat organlariga vakillik organlariga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunmaydigan organlar bo'ldilar: joylarda yakkaboshchilik asosida ish olib boruvchi, ikki mahalliy organlarga rahbarlik qiluvchi hokim lavozimi ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 21-bobida O'zbekiston Respublikasi Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlangan. Unda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi: tuzilish tartibi: Ularning vakolatlari faoliyatining shakllari: o'zini-o'zi boshqarish organlari va qabul qiladigan huquqiy hujjatlari to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar ko'rsatilgan. Konstitutsiyaga muvofiq mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil etiladi. Tumanlarga bo'ysunadigan va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda esa davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil etilmaydi. Bu joylarda faqat ijroiya hokimiyati organlari hokimlar bo'lishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi 1993 yil sentabrda „Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida“ qonun qabul qildi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan qonun va qarorlar. O'n ikkinchi chaqiriq 11 sessiya 1993yil 2-3 sentabr'- t: 1994.-13-b) Ushbu qonuning asosiy xususiyati shundan iboratki, u hamma pog'onadagi mahalliy hokimiyat organlarning faoliyatini yagona qonun asosida huquqiy jihatdan tartibga soladi.

Bundan tashqari ushbu qonun mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyatlari organlarining yangi tizimini mustahkamladi. Xalq deputatlari mahalliy kengashi davlat hokimiyatining vakillik organi hisoblanadi. U viloyat, tuman va shaharlarda tashkil etiladi viloyat tuman va shaharlarda shu hududlarning oliy mansabdor

shaxsi hokim vakillik va ijroiya hokimyatini boshqaradi. Hokimlarning vakillik organlariga rahbarligi vakillik organlarining ishni tashkil qilishga qaratilgandir.

Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi Respublika Prezident va tegishli halq deputatlari Kengashi oldida hisobdadorlar. Tuman va shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli halq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar.

Toshkent shahridan tumanlarda vakillik organlari bo'lmaganligi tufayli Toshkent shahridagi tuman hokimlarini bevosita Toshkent shahar hokimi tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi ular Toshkent shahar halq deputatlari kengashlarida tasdiqlanadi. Halq deputatlari barcha pog'onasidagi kengashlarining va hokimyatning vakolati muddati 5 yil.

2. Mahalliy davlat hokimyat organlarining konstitutsiyaviy vazifalari

Konstitutsiyaning 100- moddasiga ko'ra, mahalliy hokimyat organlari vazifalariga qo'yidagilar kiradi.

- Qonuniylikni, huquqiy tartibga va fuqarolarning xavsizligini ta'minlash.
- Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish.
- Mahalliy budjetni shakillantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarini belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish.
- Mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish.
- Atrof muhitni muxofaza qilish.
- Fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash.
- Normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

„Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonuning 7-moddasiga asosan, mahalliy kengashlar va hokimlar O'zbekiston Respublikasi mulki bo'lgan davlat mulki obektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishi, atrof –muhitni muxofaza qilish, aholini ijtimoiy himoya qilish kabi sohalarda nazoratni amalga oshiradilar. Bundan tashqari, xalq deputatlari viloyat tuman shahar kengashi davlat

mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunga muvofiq o'zi sotib olgan obektlarga nisbatan mulkdor va kofolatlarni to'liq amalga oshiradi.

Mahalliy hokimiyat organlarining yer mulklari sohasidagi vakolatlari qonuning 10-moddasida mustahkamlangan. Jumladan, viloyat, shahar hokimligi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dexqon xo'jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun ijaraga yer berishga, bu subektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to'xtatib qo'yishga, shuningdek, yerlarni olib qo'yishga haqli bo'lib, uning bu xususda qabul qilgan qarorlari tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Qonuning 25-moddasida ko'rsatilishicha, hokimlarning asosiy vazifasi konstitutsiya, qonunlari, Oliy Majlisning boshqa xujjatlari, Prezident va Vazirlar mahkamasining hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari kengashlarining ijrosini tashkil etishdir.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qiladilar. Ular qaror va farmoishlar shaklida bo'lishi mumkin.

Mahalliy hokimiyat organlari tashkiliy faolyatining shakillari. Mahalliy vakillik organlari kollegial organdir. Ular o'z vakolatlarini amalga oshirishlari uchun deputatlarning to'la ishtiroki talab etiladi. Shuning uchun mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliy- huquqiy shakli sessiyadir. Sessiyada asosan kengash vakolatiga kiradigan masalalar muhokama qilinadi, hisobotlar eshitiladi va bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilinadi. Halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlarining sessiyalari tegishli darajadagi hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab yiliga kamida 2 marta chaqiriladi. Shuningdek, sessiya tegishli kengash deputatlari kamida 2/3 qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin. Deputatlar kengash sessiyasini chaqirishi to'g'risidagi qarorlar haqida sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadilar.

Xalq deputatlari kengashining sessiyasi jami deputatlarning kamida 2/3 qismi ishtirok etsagina vakolatli hisoblanadi. Kengash qarorlari deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash qarorlari hokim

tomonidan imzolanadi va o'sha vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Har bir xalq deputatlari kengashlari o'zining vakolat muddatiga deputatlarning orasidan doimiy komissiyalar tuzadi. Bunday doimiy komissiyalar mahalliy kengashlar faoliyatining tashkiliy shakillaridan biridir. Bu doimiy komissiyalar deputatlarni kengash ishiga doimiy va faol jalb qilish vositasidir. Ularning soni tegishli kengashlar tomonidan belgilanib, uning sohalaridan kelib chiqadi. Doimiy komissiyalarning vazifasi-sessiya muxokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, Kengash qarorlarini va qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatish.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimining 1-chi o'rinbosari va o'rinbosarlari Prezident bilan kelishilgan holda hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

2. Fuqarolar o'zini- o'zi boshqarishi organlarining tuzilishi tartibi va vazifalari.

Konstitutsiyaning 105-moddasida „shahar va qishloq va ovullarda,shunengdek ,ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib ular 2,5 yil muddatga raisni (oqsoqolni va uning maslaxatchilarini) saylaydi deb belgilab qo'yilgan.

Oliy majlisning 14 sessiyasida yangi tahrirdagi „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun (1999y 14 aprel') qabul qilindi. Mazkur qonuning 7-moddasida, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi organlari davlat hokimiyatlari organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga qo'yidagilar kiradi.

1. Fuqarolar yig'ini.
2. Fuqarolar yig'inining kengashi.
3. Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar.

4. Fuqarolar yig'inining taftishi komissiyasi hamda ma'muriy komissiyalar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, belgilangan namunadagi muhrga ega hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi. Ularning oliy organlari fuqarolar yig'ini hisoblanadi va aholi manfaatlarini ifodalash, uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida mahalliy hududda yashovchi 18- sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar qatnashish huquqiga ega. Bu huquqqa ega bo'lgan fuqarolarning 2/3 qismi mavjud bo'lganda yig'in vakolatli hisoblanadi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini muvofiqlashtirish Respublika oqsoqollar kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish shakllari bo'yicha viloyat, tuman, shahar, muvofiqlashtirishi kengashlari tuzilishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini kengashi va fuqarolar yig'inining majlisi fuqarolar yig'inining raisi tomonidan zaruratga qarab, lekin oyiga kamida 1 marta o'tkaziladi hamda kengash a'zolarining 2/3 qismi bo'lganida qabul qilingan qaror vakolatli hisoblanadi. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy resurslari ularning o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan budjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ijtimoiy mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topishi mumkin.

Raislar ayrim fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga oladi va notarial harakatlarni amalga oshiradi, jumladan, tug'ilish, o'lim nikox tuzish va nikoxni bekor qilish., otalikni belgilash hamda notarius bo'lmagan aholi punktlarida vasiyatnomalarni, ishonchnomalarni tasdiqlash va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Mahalla-milliy demokratik institut

Odamlarni o'zaro mehr-oqibatli saxovatli qilib tarbiyalashda, o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahalla juda katta ahamiyatga ega. Narshaxiyning IX asrda yozilgan,, Buxoro tarixi" kitobida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir necha

mahalla bo'lganligi ko'rsatilgan. Arab istilosi va islom dini qabul qilingandan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlarning birlashmasi bo'lgan. Ayrim sotsiologlar mahallani qo'shnichilikka asoslangan jamoa deb qayd qiladilar va ularni tarixan Movarounnahr shaharlarida vujudga kelgan deydilar. Toshkentda mahallalar asosan **XVIII** asirdan paydo bo'la boshlagan. O'shanda 150 ta mahalla bo'lib, **XIX** asirda ularning soni 200 taga yetgan.

Ko'p asirlik tarixga ega bo'lgan mahalla 1-chi marotaba mustaqil respublikamiz konstitutsiyasining 105-moddasida o'zining huquqiy maqomiga ega bo'ldi. Mahallalar mavqiyini oshirish maqsadida bir qator farmon, qaror, qonunlar qabul qilindi.

1) 1992 yil 12 sentabr' respublika „Mahalla” jamg'armasini tuzish to'g'risida,,gi farmon

2)1993 yil 2 sentabr' „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun (Yangi tahrir 1999y 14 aprel') mahalla arabcha so'z bo'lib, „mahal; mahallatun” Yangi hamjamiyat, hamjamoat degan ma'noni anglatadi. Mahallalar ming yillar davomida kasb-hunar yoki milliy belgilar asosida tarkib topgan. Masalan, Toshkent shahrida „professorlar” „pichoqchilar” „zargarlar” va boshqa nomlari bilan atalgan mahallalar mavjud.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. Mahalliy vakillik organlari deganda nimani tushunasiz?
2. „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonunning mazmunini tushuntirib bering? Ijro faoliyatini respublikada qaysi davlat organi amalga oshiradi?
3. Viloyat hokimlari kim oldida hisob beradi?
4. Mahalla so'zining ma'nosini tushuntirib bering?

15-Mavzu: O'ZBEKISTONDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Reja:

1. O'zbekistonda sud hokimiyatini tashkil etish va vazifalari
2. Sud hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy maqomi
3. Hakamlik sudlari faoliyati

Tayanch iboralar: sud hokimiyatini tashkil etish va vazifalari; sud hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy maqomi; sud hokimiyati organlarining tizimi va hududiy birlikda tashkil etilishi; sudlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar.

Tavsiya qilinayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008. B. 173
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mavkura .T.1.-T: O'zbekiston,1996-249-b
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
5. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
6. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim

- ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).
 8. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.
 10. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.- T.: O'zbekiston. 2008.
 11. O'zbekiston Respublikasi qonuni 02.09.1993 y. Sudlar to'g'risida (yangi tahriri) yangi
 12. tahriri o'zr. 14.12.2000 y. 162-ii-son qonuni bilan tasdiqlangan
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 14.08.2000 y. pf-2682 O'zbekiston
 14. Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida
 15. O'zbekiston Respublikasining qonuni 16.10.2006 y. n o'rq-64 «Hakamlilik sudlari to'g'risida»
 16. O'zbekiston Respublikasining qonuni 30.08.1995 y. n 103-i O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida». Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni

1. O'zbekistonda sud hokimiyatini tashkil etish va vazifalari

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida bir mustaqil organi hisoblanadi. U mamlakatda odil sudlovni amalga oshiradi. Odil sudlov davlat faolyatining bir turi bo'lib, jamiyatda sodir bo'ladigan va huquqiy normalar buzilishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish va hal etishga qaratilgandir. Odil sudlov o'zining maxsus belgilari bilan ajralib turadi. U davlat tomonidan qonunda belgilangan protsessual shaklda hamda fuqaroviy,

jinoyiy va boshqa ishlarni sud majlislarida ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107 - moddasi va „Sudlar to'g'risida”gi qonuning 1 - moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining sud tizimi 5 yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiya va qonunda ko'rsatilgan sudlardan tashqari, boshqa biron bir davlat organlari yoki tashkilotlarning sudlov ishini amalga oshirishga yoki favqulotda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sudyalarni saylash va tayinlash tartibi: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan saylanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'g'ori Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'g'ori Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi. Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo Tuman (shahar) sudlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozmiga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, ho'jalik sudlari sudyalari esa O'zbekiston Respublikasi oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Sudyalar 5 yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi.

Sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxsdir. 25 yoshdan kichik

bo'lmagan oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlar(aero, tuman, shahar) sudi xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida 5 yillik shu jumladan qoida tariqasida sudya bo'lib kamida 2 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtixonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida 7-yillik, shu jumladan, qoida tariqasida sudya bo'lib kamida 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtixonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi oliy sudi, oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Sudlar to'g'risidagi qonuning 67-moddasida sudyalarning mustahkamligini ta'minlash kafolatlari ko'rsatilgan. Ular qo'yidagilardan iborat: ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash tayinlash va sudyalikdan ozod qilish: sudyalarni daxilsizligi: odil sudyani qat'iy tartibda amalga oshirilishi: qaror chiqarishi chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab e'tilishining taqiqlanishi: sudga hurmatizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashishi: sudyalar daxilsizligini buzganlik uchun javobgarlik: sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berishi.

Konstitutsiya va sudlar to'g'risidagi qonuning 70-moddasi, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyaning shaxsiy daxilsizligini mustaxkamladi. Daxilsizlik-sudyaga g'ayriqonuniy ta'sir etishdan saqlaydi, odil sudlovni amalga oshirayotganida uning huquqlarini cheklashga imkon bermaydi sudyalarning daxilsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va xujatlarga taalluqlidir.

Sudyalarning shaxsiy xavsizligini ta'minlash maqsadida ularga tegishincha O'zbekiston Respublikasi oliy sudi raisi, oliy hujalik sudi raisi adliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha o'qotar qurol beriladi. Zarur hollarda

tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratiladi. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi bosh prokrori tomonidan qo'zg'atiladi.

Sudya oliy sud Plenumining yoki oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, xibisga olinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sud hokimiyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan bir neche prinsiplarni mustahkamlagan.

1. Sud ishlarini yuritishning oshkoroligi
2. Sud ishlari yuritiladigan til
3. Ayibsizlik prezumpsiyasi
4. Sud himoyasida bo'lishi huquqi

2. Sud hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy maqomi

Umumiy yurisdiksiya sudlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shaxar sudi; Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shaxar) sudi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shaxar) sudi; Xarbiy sudlardan tashkil topadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmaligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;

sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalardan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Harbiy hay'at.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi eng yuqori sudlov instansiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi:

ishlarni nazorat tartibida ko'radi;

sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibi va raislarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek sudlov hay'atlarining faoliyati haqidagi ma'ruzalarni tinglaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlarini bajarish to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi;

qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan sud ishlarini ko'rish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ishni nazorat tartibida ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining ish holatlari va protest vajlari haqidagi ma'ruzasini tinglaydi. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, shuningdek, basharti taraflar ishtirok etayotgan bo'lsa, ularning fikrlari tinglanadi. Protestni muhokama qilish va ovoz berish chog'ida majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zolaridan tashqari boshqa shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolari ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi oxirgi bo'lib ovoz beradi. Protest yuzasidan qaror, agar uni yoqlab O'zbekiston

Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zolarining ko'pchiligi ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Ishni ko'rishda ilgari qatnashgan sudya ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas. Ko'pchilikning ovozini olmagan protest rad qilingan hisoblanadi. Shundan so'ng boshqa takliflar tushish navbatiga qarab ovozga qo'yiladi.

Qabul qilingan qaror bilan rozi bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zosi o'z fikrini yozma ravishda bayon etishga haqli bo'lib, bu fikr O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari:

Ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi; sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi; sud statistikasini tahlil qiladi; qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi tarkibi: Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rinbosari, sudyalalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rinbosari, sudyalardan iborat bo'ladi va sud rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi:

O'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;

tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;

sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi; sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi;

qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tarkibi:

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi rais va sudyalardan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar bo'ladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan fuqarolik ishlarini ko'radi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi qonun bilan o'z vakolatlari doirasiga berilgan jinoyat ishlarini hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

HARBIY SUDLAR

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

Harbiy sudlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati lavozim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari hisoblanadigan harbiy hay'at raisi, harbiy hay'at raisining o'rinbosari va sudyalardan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi viloyat sudi huquqida ish olib boradi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Okrug va hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqida ish olib boradilar va rais, sudyalar, xalq maslahatchilaridan, zarurat bo'lganda esa rais o'rinbosaridan ham iborat bo'ladi.

Harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq

tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

alohida holatlarga ko'ra umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;

davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ko'radi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XO'JALIK SUDLARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining vakolatlari: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining tarkibi: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalaridan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati;

Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati;

Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sudi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining sudlov hay'atlari:

ishlarni birinchi instansiyada va kassatsiya tartibida ko'radi;

sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi;

qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

sud statistikasini tahlil qiladi;

qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari tarkibi: Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari rais, rais o'rinbosarlari va sudyalardan iborat bo'ladilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudida, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarida zarur hollarda sudlov hay'atlari tuzilishi mumkin.

KONSTITUTSIYAVIY SUD

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan sud hokimiyati organi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud: O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi; Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibda saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud tarkibidan kamida to'rt kishi saylangan takdirda sud o'z faoliyatini boshlashga haqlidir. Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan takdirda Oliy Majlisning Senati belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyaviy sudda ishlarni

qarab chiqish va qarorlar qabul qilish kamida to'rt sudyadan iborat tarkibda kollegial amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Konstitutsiyaviy sudning normativ va boshqa hujjatlarni, ularning nusxalarini taqdim etish to'g'risidagi, qarab chiqilayotgan masalalar yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish xususidagi talablari ular yuborilgan organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sudga masalalarni kiritish huquqi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, Oliy Majlis Senatining Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to'rtidan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining kamida to'rtidan bir qismidan iborat senatorlar guruhi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi va Bosh prokurori Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin.

Agar olingan materiallar qo'yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingan kundan e'tiboran yetti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o'rganib chiqishga kirishadi. Konstitutsiyaviy sudga tegishli material olingan paytdan boshlab kechi bilan uch oy ichida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, Oliy Majlis Senatining Raisi, uning o'rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorri Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

va Adliya vaziri qatnashishlari mumkin. Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidirlar.

Konstitutsiyaviy sud to'xtamlari Davlatlararo shartnomaning va normativ hujjatning konstitutsiyaviyligi yuzasidan ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qaror deb ataladi. Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Boshqa hollarda Konstitutsiyaviy sudning to'xtami xulosa deb ataladi yoki boshqacha shaklda ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami u matbuotda e'lon qilingan paytidan kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qat'iy va uning ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi.

3. HAKAMLIK SUDLARI TO'G'RISIDA

Hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) - fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etuvchi nodavlat organ; **hakamlik sudyasi** - hakamlik sudida nizoni hal etish uchun hakamlik bitimi taraflari tomonidan saylangan yoki belgilangan tartibda tayinlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlari tashkil etilishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hakamlik sudlarini tashkil etishi hamda hakamlik bitimi (taraflarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi kelishuvi) taraflari bo'lishi mumkin emas.

Hakamlik sudlari yuridik shaxs bo'lmaydi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yuridik shaxs tomonidan tashkil etilishi mumkin va uning huzurida faoliyat ko'rsatadi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yuridik shaxs doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudini tashkil etish haqida qaror qabul qilganida, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi

hakamlik sudining qoidalarini va hakamlik sudyalari ro'yxatini tasdiqlaganida tashkil etilgan deb hisoblanadi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudini tashkil etgan yuridik shaxs uning tashkil etilganligi to'g'risidagi hujjatlar nusxalarini hakamlik sudi joylashgan yerdagi adliya organiga yuboradi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi o'z nomi yozilgan blanka va yumaloq muhriga, O'zbekiston Respublikasi hududida hisob-kitob varaqlari, valuta hisobvaraqlariga hamda boshqa bank hisobvaraqlariga ega bo'lishi mumkin. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi faoliyatini tugatish tartibi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining qoidalari bilan belgilanadi.

Muvaqqat hakamlik sudi hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan muayyan nizoni hal etish uchun ular tomonidan tashkil etilib, nizo ko'rib chiqilganidan keyin muvaqqat hakamlik sudi o'z faoliyatini tugatadi. Hakamlik sudida raislik qiluvchi (nizo hay'atda ko'rib chiqilayotganda) yoxud hakamlik sudyasi (nizo yakka tartibda ko'rib chiqilayotganda) hakamlik bitimi nusxasini va muvaqqat hakamlik sudi tashkil etilganligi to'g'risidagi xabarnomani mazkur sud joylashgan yerdagi adliya organiga hakamlik muhokamasi boshlanguniga qadar yuboradi.

Hakamlik sudlari hisobini yuritish: Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tegishli hududlarda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari hisobini ro'yxatdan o'tkazishni va muvaqqat hakamlik sudlarini hisobga olishni amalga oshiradilar.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlarini tashkil etish va faoliyatini tugatish, muvaqqat hakamlik sudlarini tashkil etish to'g'risidagi, shuningdek doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalari haqidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tizimlashtiriladi hamda "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami"da e'lon qilinadi.

Hakamlik sudlari hisobini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Nizom bilan belgilanadi.

Hakamlik sudlari fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etadi. Hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi.

Hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Vakolatli sudning hal qiluvida bo'lgan nizoga oid hakamlik bitimi vakolatli sud nizo yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilguniga qadar tuzilishi mumkin.

Hakamlik bitimining shakli Hakamlik bitimi yozma shaklda tuziladi. Hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin. Hakamlik bitimi, agar u hakamlik bitimi taraflari tomonidan imzolangan hujjatda ifodalangan bo'lsa yoki bunday bitimni qayd etishni ta'minlovchi elektron yoxud boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda xatlar yoki xabarlar almashish yo'li bilan tuzilgan bo'lsa, yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Yuqoridagi qoidalarning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilmagan taqdirda, hakamlik bitimi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Hakamlik bitimining mazmuni Hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha yoxud ayrim nizolar hakamlik sudida ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida, shuningdek agar nizo doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluviga topshiriladigan bo'lsa, mazkur hakamlik sudining nomi ko'rsatilishi lozim. Hakamlik bitimida hakamlik sudylarining soni, hakamlik muhokamasi o'tkaziladigan joy va til, hakamlik muhokamasining qo'llaniladigan qoidalari, nizoni ko'rib chiqish muddati haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Hakamlik sudyasiga qo'yiladigan talablar: Yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan, nizoning xolis hal qilinishini ta'minlashga qodir bo'lgan, nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lmagan, hakamlik bitimi taraflaridan mustaqil bo'lgan va hakamlik sudyasi majburiyatlarini bajarishga

rozilik bergan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin. Nizoni yakka tartibda hal qiluvchi hakamlik sudyasi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Nizo hay'atda hal qilinayotganda hakamlik sudi tarkibining raisi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Hakamlik sudyasining malakasiga qo'yiladigan talablar hakamlik bitimi taraflari o'rtasida bevosita kelishib olinishi yoki doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining qoidalari bilan belgilanishi mumkin.

Quyidagilar hakamlik sudyasi bo'lishi mumkin emas:

muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lgan shaxs;

sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;

o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun sudya, advokat, notarius, tergovchi, prokuror yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati qonunda belgilangan tartibda tugatilgan shaxs;

qonunda belgilangan mansab maqomiga muvofiq hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin bo'lmagan shaxs.

Hakamlik sudining tarkibini shakllantirish hakamlik sudyalarini (hakamlik sudyasini) saylash (tayinlash) orqali amalga oshiriladi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudida hakamlik sudyalari mazkur hakamlik sudini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan hakamlik sudyalari ro'yxatiga kiritilgan sudyalar orasidan saylanadi (tayinlanadi). Agar hakamlik bitimi tarafi hakamlik bitimi boshqa tarafining hakamlik sudyasini (hakamlik sudyalarini) saylash haqidagi iltimosini olgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida hakamlik sudyasini (hakamlik sudyalarini) saylamasa yoki hakamlik bitimining taraflari hakamlik sudyasini tanlash to'g'risida kelisha olmasalar (nizo hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqilayotganda) yoxud agar hakamlik sudyalari raislik qiluvchi hakamlik sudyasini tayinlash to'g'risida o'zlari saylangan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida kelisha olmasalar, ularni tayinlash

doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining raisi tomonidan hakamlik bitimi taraflaridan birining iltimosiga binoan o'n kun muddatda amalga oshiriladi.

Muvaqqat hakamlik sudida hakamlik sudyalari hakamlik bitimi taraflari tomonidan saylanadi. Agar hakamlik bitimi tarafi hakamlik bitimi boshqa tarafining hakamlik sudyasini (hakamlik sudyalarini) saylash haqidagi iltimosini olgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida hakamlik sudyasini (hakamlik sudyalarini) saylamasa yoki hakamlik bitimining taraflari hakamlik sudyasini tanlash to'g'risida kelisha olmasalar (nizo hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqilayotganda) yoxud agar hakamlik sudyalari raislik qiluvchi hakamlik sudyasini tayinlash to'g'risida o'zlari saylangan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida kelisha olmasalar, nizo hal qilish uchun vakolatli sudga topshiriladi. Bunda hakamlik bitimining amal qilishi tugatiladi.

Hakamlik sudyalarining soni toq bo'lishi kerak.

Hakamlik bitimi taraflari ushbu moddaning qoidalariga rioya etgan holda hakamlik sudyalarining sonini o'z xohishlariga ko'ra belgilashlari, hakamlik sudi tarkibini shakllantirish tartibini kelishib olishlari mumkin. Agar hakamlik bitimi taraflari hakamlik sudyalarining sonini belgilamasa, hakamlik sudining tarkibi uch nafar hakamlik sudyasidan shakllantiriladi.

Hakamlik muhokamasi hakamlik sudining hay'at tarkibi tomonidan o'tkazilayotganda hakamlik bitimining har bir tarafi hakamlik sudyalarini teng miqdorda saylaydi va shunday tarzda saylangan hakamlik sudyalari boshqa hakamlik sudyasini - raislik qiluvchini tayinlaydi.

Da'vogar o'z talablarini hakamlik sudiga yozma shaklda beriladigan da'vo arizasida bayon etadi. Da'vo arizasining nusxasi javobgarga yuboriladi.

Hakamlik sudi nizo holatlari tekshirilganidan so'ng hakamlik sudi tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalarining ko'pchilik ovozi bilan **hal qiluv qarori** qabul qiladi.

Hal qiluv qarori hakamlik sudining majlisida e'lon qilinadi. Hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat xulosa qismini e'lon qilishga haqli. Bunday holda asoslantirilgan hal qiluv qarori hal qiluv qarorining xulosa qismi e'lon qilingan

kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay hakamlik muhokamasi taraflariga yuborilishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori yozma shaklda bayon etiladi va hakamlik sudi tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalari tomonidan, shu jumladan alohida fikrga ega bo'lgan hakamlik sudyasi tomonidan imzolanadi. Hakamlik sudyasining alohida fikri hakamlik sudi hal qiluv qaroriga ilova qilinadi.

Hal qiluv qarori qabul qilinganidan so'ng o'n kun ichida hakamlik muhokamasining har bir tarafiga hal qiluv qarori topshirilishi yoki yuborilishi kerak.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori mazkur hal qiluv qarorida belgilangan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ijro etiladi. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida ijro etish muddati belgilanmagan bo'lsa, u darhol ijro etilishi kerak.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik sudining hal qiluv qarorida belgilangan muddatda ixtiyoriy ijro etilmagan bo'lsa, u majburiy ijro etilishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, vakolatli sud bergan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni kim amalga oshiradi?
2. Sud hokimiyati tizimini tushuntirib bering?
3. Harbiy sudlar faoliti nimalardan iborat?
4. Hakamlik sudlari qanday tashkil qilinadi?

Fan bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar.

I. Asosiy adabiyotlar.

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura: t-1. – T.: O'zbekiston. 1996
- 1.2. Karimov I.A Bizdan ozod va obod Vatan qolsin: - T.: O'zbekiston. 1996. 380 bet.
- 1.3. Karimov I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T-3, - T.: O'zbekiston. 1996. 366 bet.
- 1.4. Karimov I.A Bunyodkorlik yo'lidan: T-4 – T.: O'zbekiston. 1996. 349-bet.
- 1.5. Karimov I.A Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi T-5 T: O'zbekiston 1997.384 b
- 1.6. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.T6 T: O'zbekiston 1998, 429b
- 1.7. Karimov I.A Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz:T-7, O'zbekiston 1999, 410 b.
- 1.8. Karimov I.A Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T-8, - T: O'zbekiston 2000.528-bet.
- 1.9. Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz.T-9,T..O'zbekiston 2001,432-bet.
- 1.10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T-10. - T.:O'zbekiston. 2002, 432-bet.
- 1.11. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.»Xalq so'zi»,2000 yil 8 dekabr.
- 1.12. Karimov I.A. Konstitutsiya to'g'risida.T..Akademiya,2001 y.
- 1.13. Karimov I.A. Oliy Majlis II-chaqiriq 9-sessiyasidagi nutqi.Turkiston gazetasi, 2002 yil 31 avgust.
- 1.14. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T. 1993.
- 1.15. Karimov.I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-

- barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T: O'zbekiston. 2007.
–320 b
- 1.16. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma'naviyat. 2008.
–176 b.
- 1.17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
- 1.18. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
- 1.19. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // G.Zarafshon. 2010 yil. 28 yanvar. № 12(21.701).
- 1.20. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // G. Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanvar. № 21 (4936).
- 1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori. // G. Zarafshon. 2010 yil. 30 yanvar. № 13 (21. 702).

II . Qo'shimcha adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T..O'zbekiston 2009 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston
3. Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi 2001 yil 4 yanvardagi F-1321-sonli farmoyishi. «Xalq so'zi» 2001 yil 5 yanvar.
4. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi

- 1991 yil 31 avgustdagi konstitutsiyaviy qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.T..Adolat 2000 y.
5. Mustaqillik deklaratsiyasi.UzR qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.T.2000.
 6. Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi.T..Adolat 1996 y.
 7. O'zbekistonning yangi qonunlari. T: Adolat, 1993-2004 yillar, 1-29 sonlari.
 8. Fayziyev M. O'zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati. (o'quv qullanma) T.: Adolat. 1998.
 9. Xusanov O. O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunga sharxlar T:Adolat. 1995.
 - 10.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. T:2000 y..
 - 11.Ibodullayev.J. Yurudik fanlar bo'yicha test savollari. Toshkent 2005.
 - 12.Odilqoriyev X. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar bulinishi prinsipi. T: 1993.
 - 13.Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T. 2003.
 - 14.Raxmonqulov. X. Fuqarolik: Huquqlar,erkinliklar, burchlar. T.: O'zbekiston. 1991.
 - 15.Tojixonov U, Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik 2-jildlik T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,1998.
 - 16.Saidov A, Tojixonov U. Davlat va huquq asoslari. T:1995
 - 17.Xolmo'minov K. Davlat va huquq nazariyasi. T:1998
 18. Fuqarolik huquqi. Darslik 2000
 - 19.Zokirov I.B O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik 1-qism. T:1996
 - 20.Zokirov I.B O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik 2-qism. T:1999
 - 21.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish (o'quv kursi bo'yicha ma'ruza matnlari) Toshkent 2002 y.
 - 22.Nazarov K.M. Davlat va huquq nazariyasi. O'quv qo'llanma.Samarqand 2000.

- 23.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. T: Sharq 2001.
- 24.Jinoyat huquqi. Darslik.T:2000.
- 25.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik T:2000.
- 26.Davlat va huquq asoslari. (A.Saidov, U.Tojixonov, X.Odilqoriyev)
T:Akademiya. 2002.
- 27.A.Saidov, U.Tojixonov, X.Odilqoriyev O'zbekiston Respublikasining
Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent 2001.
- 28.J.Ibodullayev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.
«Yangi asr avlodi» Toshkent 2003.
- 29.Tursunov Y. Mehnat huquqi (O'quv qullanma) T: 2000.